

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

N.T. HUSANOV

SHRIFT

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2017

UO‘K: 766:003.07

KBK 85.15

H 84

Husanov, N.

Shrift. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.
/N. Husanov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi – T.: «Niso Poligraf», 2017. – 168 b.

UO‘K: 766:003.07

KBK 85.15

Ta q r i z c h i l a r :

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi ilmiy-metodik
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-5081-6-3

© M. Husanov, 2017

© «Niso Poligraf», 2017

KIRISH

Inson dunyoga kelibdiki, fikrlash, muloqot qilish, o'zida tug'ilgan qandaydir yangi fikr va mulohaza yoki kashfiyotlar paydo bo'lsa, uni boshqalarga tezda yetkazish va kelasi avlodga qoldirish niyatida bo'ladi. Ibtidoiy davrda insonlar birinchi bo'lib juda oddiy, sodda bo'lgan ma'lumotlarni har xil tasviriy shakllarni qoya toshlarga chizish orqali, o'zida bor barcha ma'lumotni tasvirlash bilan chizib qoldirishgan. Bu xabarlarini tasvirlashdan asosiy maqsad, boshqalarga tezroq yetkazishdan iborat bo'lgan. Shu davrdan boshlab turli tasvirlar husnixatning ilk ko'rinishlari muomalaga kira boshladi. Davrlar o'tishi bilan husnixat tasvirdan asta-sekin geometrik shakllar ko'rinishiga ega bo'lib, dastlabki sodda alifbo paydo bo'ldi. Hozirgi davrdagi alifbo dunyoga kelgunga qadar juda murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Alifbo belgilari grafik (yozuv) hozirgidan bir-biridan farq qiladi va o'zining shartli sodda tomoni bilan grafemalarni taqdim qiladi.

Harflar tovush alifbosining (grek, lotin, rus, slavyan va boshqalar) grafematik tarkibi ko'p asrlar mobaynida tashkil topgan bo'lib, ular yozish va o'qishning qulay bo'lishiga hamda osonlashtirishga qaratilgan.

Biz bilgan bugungi kundagi alifbo ikki variantda grafemalarni o'zida mujassamlashtirgani uchun eng qadimgisi hisoblanadi.

Mayusku (lotincha minusculus – birmuncha katta) bosh (katta) harflar ko'rinishida, ikkinchisi – minusku (lotincha minusculus –

juda kichkina) harflarning qator yozuvi shaklida rus alifbosining boshlanishi (lotin alifbosi kabi) grekkapiteligi (lotincha, capitalis – bosh)ga borib taqaladi.

Birinchi harfli alifbo birmuncha ilgari, ya'ni eramizdan oldingi XVI asrda paydo bo'lgan. Sinay yarim orolida yashovchi qabila arab yozuvidagi qator belgilarni – ideogrammalarni qabul qilgan. Ideogrammalar aytiladigan so'zning faqat birinchi tovushini bildirgan. Finikiylar ularni takomillashtirib, o'z navbatida harflarning tovushlarini O'rta yer dengizining janubiy sharqidagi greklarga uzatilishida vositachilik qilgan. Shunday qilib, qadimgi grek tili talablariga javob beruvchi yozuv paydo bo'lgan. Grafemalarning tuzilishi tarixiylik jihatidan ierogliflarga borib taqaladi. Buni grek alifbosidagi bir qancha harflarning nomlanishi ham tasdiqlaydi. Bugungi kundagi alifbo qadimgi belgi shaklini yo'qotib, shartli grafik tuzilishini oldi.

Qadimgi grek bosh harflari eramizgacha bo'lgan VIII asrda paydo bo'lgan bo'lib, bizning eramizgacha bo'lgan IV asrdagina nisbatan yakuniy shaklni oldi. U birmuncha grafik jihatdan sodda, yorqin, ammo qatorlarda geometrik aniqlik yetishmasdi. Matnda harflar erkin yozilardi, qatorda ularning kattaligi turlicha bo'lishi mumkin edi.

Husnixatlar tarixida qadimgi grek (eramizning IV asri) tovushlar harf alfa mayuskuplarning rim kapital husnixatining takomiliga yetishuvi yozuv qatorida shaxsning minuskup yozuvining to'liq shakllanishi eramizning VIII to'g'ri keladi. Renessansning antik bosma husnixatining dunyoga kelishi (XV–XVI asrlar); lotin yozuvi asosida yangi rus fuqarolik husnixatining paydo bo'lishi (XVIII asr boshi); G'arbiy Yevropadagi kabi Rossiyada yangi klassik antikvarning yuzaga kelishi (XVIII asr oxiri XIX asr boshi); husnixatlarning yangi shakllari rivoji, lentali antik va antikvarning grotesk va boshqalari (XX asr)da paydo bo'ldi.

Husnixat ko‘p asrlardan buyon insoniyatni ma‘naviy jihatdan tarbiyalab kelmoqda, uning eng ilg‘or fikrlari, g‘oyalari, kashfiyotlari avloddan-avlodga o‘tib, jamiyatni ma‘naviy kamoliga yetishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Fan, texnika, adabiyot, madaniyat, san‘at, diniy va boshqa sohalarda insoniyat qo‘lga kiritgan eng ilg‘or fikrlar taraqqiyotga hissa qo‘shgan oddiy yutuqlardan tortib eng murakkab bo‘lgan g‘oya va fikrlarni tarixga muhrlab qoldirishga, asosiy zamin yaratgan «alifbo» tufayligina, biz bu cheksiz ummonni o‘qib o‘rganish orqali o‘z bilim tafakkurimizni oshirib boramiz.

Zamon taraqqiy etishi bilan husnixat ham o‘zgarib va mukammallashib bordi. Har bir davrning o‘ziga xos bo‘lgan husnixati bo‘lib, u o‘sha davr ruhini eslatib turadi.

Yozuv bir sirli sandiqqa o‘xshaydi, uni kim ochib o‘qisa, dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaydi.

Husnixat insoniyatning eng buyuk kashfiyotidir, husnixat insoniyatni asrlar davomida ma‘nan tarbiyalashda yuksak ekanligini, uning chegarasi yo‘qligini hayot o‘zi davrlar o‘tishi bilan isbotlab turibdi. Husnixat orqali insonlar tarixini, hozirgi zamonni va kelajagini o‘qib o‘rganadi.

Husnixatdagi har bir harf ma‘nan bir tovush asosida o‘ziga xos shakl va ko‘rinishga ega bo‘lganligi uchun biz ularni bir-biridan tez ajrata olib, harflardan muomalamizda uchraydigan barcha so‘zlarni tuzish imkoni mavjud. Harflardan so‘z tuzganda to‘g‘ri yozish qoidalariga rioya qilish lozim.

1-mavzu.

QIRQMA HUSNIXATDA TO‘G‘RI YOZISH QOIDALARI

Qirqma husnixati boshqa garnituradagi husnixatlardan tubdan farq qiladi. Bu harflar bilan o‘ta jiddiy mavzularni yoritishda qo‘llash maqsadga muvofiq, chunki uning tomoshabin tomonidan qiynalmay o‘qilishi, harflarning dona-dona bo‘lib uzoq masofadan ko‘zga tashlanishini inobatga olib, ko‘cha va katta maydonlarga osiladigan siyosiy pannolarda, shior va e‘lonlarni targ‘ib qilishda, u tijorat (reklama)larda va turli mavzulardagi plakatlarda keng qo‘llanadi. Alifbodagi harflar simmetriya va asimmetriya degani, qirqma husnixatidagi asosiy qismi simmetrik va asimmetrik harflardan iborat. Bu bo‘linish shartlidir, simmetriya – bu harflar umumiy shaklining ikki tomoni bir-biriga tengligidir. Alifbodagi harflar asimmetriya turi esa, uning chap qismi o‘ng tomoniga o‘xshamaydi.

Simmetrik harflar: «A», «Д», «Ж», «Л», «М», «Н», «О», «Т», «Ф», «Х», «Ш», «Щ», «С».

Asimmetrik harflar: «Б», «В», «Г», «Е», «К», «Р», «С», «Ъ», «Ы», «Й», «О», «З», «У», «Ч», «Э», «Я».

Har bir harf o‘ziga xos shakl va ko‘rinishga ega bo‘lganligi tufayli biz ularni bir-biridan tezda farqlab ham yozamiz va o‘qiy olamiz. Harflar orasidagi masofani to‘g‘ri tanlab, so‘z tuzish uchun xattot rassomdan ko‘nikma, mahorat va amaliy tajriba bo‘lishi ko‘p jihatdan bog‘liq. Kirill alifbosi 36 ta harfdan iborat bo‘lib, ular to‘rt qismga bo‘linadi:

Birinchi qismi – ikki tomoni ochiq harflar:

«A», «Ж», «З», «O», «C», «T», «Y», «Ф», «X», «Э», «Ў», «Х».

Ikkinchi qismi – o‘ng tomoni ochiq harflar:

«Б», «В», «Г», «Е», «К», «Р», «С», «Б», «Ъ», «І», «Ю».

Uchinchi qismi – chap tomoni ochiq harflar:

«Д», «Л», «Ч», «Я».

To‘rtinchi qismi – ikki tomoni yopiq harflar:

«И», «Й», «М», «Н», «П», «Ш», «Щ», «І». Qirqma harflardan to‘g‘ri so‘z yozishda, har bir harfning qanday ko‘rinishda ketma-ket kelishiga, uning shakli, vazni, ikki tomoni ochiqligi, o‘ng tomoni ochiqligi, chap tomoni ochiqligi va ikki tomoni yopiqligiga qarab, to‘g‘ri masofada joylashtirilsa, so‘zning yaxlit bir butun bo‘lib o‘qilishida, harflar orasidagi bo‘shliqqa, harflarning qanday shaklda bo‘lishiga va harflarning qay tarzda ketma-ket kelishiga katta ahamiyat berish lozim. Qaysi paytda harflar orasidagi masofani bir xil qilib yozish mumkin, qachonki harflarning ikki tomoni yopiq kelsa, boshqa payt harflarni qanday shakldaligiga qarab uni o‘ng va chap tomonga kerakli masofaga surib yozish lozim. Alifbodagi ayrim harflarning shakliga qarab tepa yoki past chiziqlardan chiqarib yozilishi lozim. Bu nima uchun qilinadi? Yozilgan harflarning optik jihatdan barcha harflarning umumiy balandligini bir xil va teng ko‘rinishda bo‘lishini ta’minlashda ayrim harflarni gorizontal chiziqdan sal yuqoriroq va pastroqqa tushirib chiqarish tavsiya etiladi. Misol uchun «З», «O», «C», «Э», «Ю», «A» harflari boshqa harflarga nisbatan olganda xiyol pastroq ko‘rinadi, shuning uchun boshqa harflar bilan optik jihatdan teng o‘qilishi uchun gorizontal chiziqdan bir millimetr chiqarib yozilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Harflarning bir chiziq qatoridagi ritmi, undan tashqari unga optik ta’siri, harflarning tekislikda dumaloq va o‘ta uchli konstruksiyasi hamda ularning barchasining to‘g‘ri joylashishi qo‘shni qatordagi

harflar bilan to'g'ri burchak shakl, uning hajmining balandligi bilan belgilanadi. Bu bir qatordagi barcha harflarning umumiy balandligi optik jihatdan bir xil ko'rinishi uchun qilinadi. Rassom bu vazifani aniq bajarishi uchun barcha dumaloq va o'tkir uchli harflar chiziqli bilan teng bo'lsa, u tomoshabinga balandligi jihatdan past ko'rinadi, asosiy chiziqlar go'yoki ikkinchi planga o'tganday bo'ladi.

Lotin alifbosida 29 ta harf bo'lib, ular ham to'rtga bo'linadi.

Ikki tomoni ochiq harflar:

«A», «V», «G», «Z», «Y», «O», «S», «T», «X», «CH», «Sh», «O'», «Q», «G'».

O'ng tomoni ochiq harflar:

«B», «D», «E», «K», «L», «P», «R», «F», «Ng».

Chap tomoni ochiq harflar:

«J»

Ikki tomoni yopiq harflar:

«I», «M», «N», «U», «H».

Bu harflarni to'rt qismga bo'lishdan maqsad, ular orqali so'z yozishda harflar orasidagi masofalardan to'g'ri foydalanishda qo'l keladi. Faqat ikki tomoni yopiq bo'lgan harflarning orasidagi masofani bir xil qilib tashab yozish mumkin, qolgan uch ko'rinishdagi harflar bilan yozishda harflar orasidagi masofani bir-biriga muvozanatini moslashtirib yozish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Qirqma husnixat ishlashda nimaga e'tibor berish lozim?
2. Qirqma husnixat ishlashda uslubiy ketma-ketligiga qanday e'tibor beriladi?
3. Qirqma husnixat bilan necha xil usulda yozish mumkin?
4. Qirqma husnixatda nima uchun vertikal chiziqlar chiziladi?
5. Qirqma husnixatdan qaysi joylarda foydalansa bo'ladi?

6. Qirqma husnixatda soʻz yozishda qanday ashyolardan foydalanish mumkin?
7. Ikki tomoni ochiq harflar qaysilar?
8. Oʻng tomoni ochiq harflar qaysilar?
9. Chap tomoni ochiq harflar qaysilar?
10. Ikki tomoni yopiq harflar qaysilar?

Amaliy mashgʻulot

Harflarni shakllariga qarab ajratib, toʻgʻri yozishni oʻrganish.
Harflardan soʻz yozishni mashq qilish.

2-mavzu.

«A», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» harflarini yozish qoidolari

Qirqma harflarning ikki gorizontal chiziq qatorida qanday ritmda joylashganligi, undan tashqari harflarning bir-biriga optik taʼsiri, uning geometrik shakli hamda harflarning barchasini toʻgʻri chiziqda joylashishi, keyingi qatordagi harflar bilan mosligi, uning hajmi, harfning eni bilan boʻyi orasidagi farqi qandayligiga qarab belgilanadi. Harflar tekislikda toʻgʻri ravon oʻqilishida dumaloq va toʻrtburchak shakldagi harflarning konstruksiyasiga qarab moslab yoziladi. Ayrim harflarni umumiy shakliga qarab tepa yoki past chiziqlardan chiqarib chizish lozim. Bu nima uchun qilinadi? Optik jihatdan barcha harflarning umumiy balandligini bir xil va teng koʻrinishda boʻlishini taʼminlashda ayrim harflarni chiziqdan sal yuqori yoki pastroqqa ozgina chiqarib yozish tavsiya etiladi.

«A», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» beriladigan birinchi topshiriqni ishlashda, avvalo, qirqma harflarni bir-biridan qaysi tomonlari bilan farq qilishi oʻrganib chiqiladi. Toʻgʻri vertikal

chiziqlar chizishda nimalarga e'tibor berish lozim, avvalo, qirqma harfdagi qalin va ingichka chiziqlarning bir-biriga nisbati qanday bo'lishini aniqlab olamiz, chiziqlar orasidagi masofalarni iloji boricha bir xil oraliqda masofani tashab, to'g'ri yozishni o'rganamiz. O'quvchilarga beriladigan birinchi topshiriq sifatida, kirill alifbosidagi qirqma harflarni to'g'ri yozish qoidalarini o'rganib boramiz. «А», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» birinchi darsda mana shu yettita harflarni to'g'ri yozish qoidalarini o'rganamiz. Bu yettita harf uch qismga bo'linadi. Ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq va chap tomoni ochiq harflardan iborat. Harflarni qoidaga rioya qilib yozishda, oddiy qog'ozlarda ko'proq mashq qilish talab etiladi. Qirqma harflarni to'g'ri yozish plastmass va temir chizg'ichlar, qattiq va yumshoq qalamlar, o'chirg'ich va boshqa ashyolardan foydalaniladi. Harflarni aslidan nusxa olishda ularni avvalambor masshtabga nisbatan olib, kichik hajmda ishlanadi.

«А» harfi ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi, uni bo'yiga nisbatan, pastki asos qismi kengroq olinsa, harf chiroyli chiqadi. «А» harfining chap va o'ng chiziqlar ularni o'rtasidan bog'lovchi chiziq bilan birlashtirilgan, chap va o'ng birlashtirilgan chiziqlar qalinligi bir xil qalinlikda bo'lib, uning asosi ikkita chizig'idan ingichka gorizontaal chiziq bilan bog'lanadi.

«Б» va «В» harflar shakl va hajmi borasida bir-biriga yaqin harflar, ikkalasi ham o'ng tomoni ochiq harflar, ularni chizishda bo'yiga nisbatan eniga kengroq olib chizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. «Б» va «В» harflarning o'ng tomonidagi pastki dumalog'ini bo'yiga nisbatan yuqoriroqdan olib chizilsa, bu harflarning proporsiyasi to'g'ri olingan bo'ladi.

«Г», «Е» va «Ё» harflari o'ng tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bular o'xshash bo'lib, bo'yiga nisbatan eni kichikroq harflardir. «Г» harfining tepa qismidagi gorizontaal chizig'i ingichka bo'lsa, «Е», «Ё» harflarida o'rta va pastki gorizontaal chizig'i ingichka,

ularning o'rtadagi chiziqni vertikal chiziqqa nisbatan o'rtadan sal balandroqdan chizish maqsadga muvofiq bo'ladi. «E» bilan «Ё» harfining farqi ularning tepasidagi ikkita nuqtasida.

А Б В Г Д Е

Nazorat savollari

1. Qirqma harflar «А», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» husnixatining yozilish qoidalari nimalardan iborat?
2. Qirqma harflarning turli shakllarini aniqlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
3. Qirqma harflarning hajmi, bo'yi, enini bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtira bilishda nima qilish lozim?
4. Qirqma harflarning bir tekisda o'qilishida qaysi qoidalarga rioya qilish kerak?
5. Qirqma harflar orasidagi masofaning to'g'ri yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Qirqma harflarning aslidan nusxa olishda qanday usuldan foydalaniladi?
7. Harflarni aslidan nusxa olishda nimalarga e'tibor beriladi?
8. Plakat perosi bilan husnixatining yozilish qonun-qoidalari?

Amaliy mashg'ulot

Qirqma harflar «А», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё»ni to'g'ri yozishni o'rganish.

Qirqma harflar «А», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё»ni planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

3-mavzu.

«Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З» harflarini yozish qoidalari

«Д» va «Л» harflar chap tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bu harflarning o'ng va chap tomonidagi vertikal chizig'i qalin, tepa va past tomonidagi ingichkaroq chiziqlar bilan chiziladi. «Л» harfiga nisbatan «Д» harflarining ostki qismi kengroq chiziladi va chiziqdan pastga ingichka chiziq chizilib, «Д» harfi tugallangan hisoblanadi. «Ж», «К» va «Қ» harflari o'xshash harflar. «Ж» harfi ikki tomoni ochiq bo'lsa, «К» harfining o'ng tomoni ochiq harflar turiga kiradi.

«Ж» harfi bo'yiga nisbatan eni keng harflar toifasiga kiradi, uning o'rtadagi vertikal chizig'i va ikki yonidan pastga tushadigan chiziqlari qalin, qolgan ikki tepaga chiziladigan chiziqlari ingichka bo'ladi.

«Ж» harfining vertikal chizig'ining o'ng tomoni «К» harfining o'zidir. «К» harfining bo'yiga nisbatan eni kengroq chizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. «З» harfi hech bir harfga o'xshamaydi, u ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi.

«З» harfi ikki dumaloq shakllardan iborat, pastki dumalog'i tepaga nisbatan eniga va bo'yiga kengroq chiziladi, tepadagi dumaloq pastdagi dumaloqqa nisbatan kichikroq chiziladi. «З» harfining ikkita dumaloq shakllarining ikki o'ng va chap tomonlari qalin, tepa, o'rta va pastki qismlari unga nisbatan ingichka bo'ladi.

Д Л Ж К Қ З

Nazorat savollari

1. «Д» va «Л» harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. «Ж» harfiga o'xshash harfni ayting.
3. «З» harfini yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Harflarni bir tekis yozishda qanday qoidalarga rioya qilish lozim?
5. «К» harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Harflarning turli shakllarini aniqlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
7. Harflarni hajmi, bo'yi, eni bo'yicha bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtiring.
8. Harflarning bir tekisda o'qilishiga e'tibor bering.

Amaliy mashg'ulot

«Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З» harflarining risoladagidek yozilish qoidalarini o'rganish.

Harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni mashq qilish.

4-mavzu.

«И», «Й», «Н», «П», «С» harflarini yozish qoidalarini

«И», «Й», «Н», «П», «С» harflari o'xshash harflar bo'lib, bu harflar ikki tomoni yopiq harflar turiga kiradi, ularning hajmi deyarli bir xil, faqat ikkita qalin vertikal chiziqlar orasidagi ingichka bog'lovchi chiziqlarining qanday joylashishi bilan farqlanadi. Ularning bo'yiga nisbatan eni sal kichikroq chiziladi.

Nazorat savollari

1. «И», «Й», «Н», «П», «С» qirqma harflari o'xshash harflar turiga kiradimi?

2. «И», «Й», «Н», «П», «С» qirqma harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. «И», «Й», «Н», «П», «С» qirqma harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
4. Qirqma harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e’tibor berish lozim?
5. «И», «Й», «Н», «П», «С» qirqma harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Katta harflar bilan kichik harflarning farqi nimada?
7. Kirill alifbosini yozishda qaysi usuldan foydalansa bo‘ladi?
8. Kirill alifbosining afzalligi nimada?

Amaliy mashg‘ulot

«И», «Й», «Н», «П», «С» qirqma harflarining yozilish qoidalarini o‘rganish. Qirqma harflarni kompozitsion to‘g‘ri joylashtirishni o‘rganish.

5-mavzu.

«М», «Ш», «Щ» harflarini yozish qoidalarini

«М», «Ш», «Щ» harflari deyarli bir xil hajmdagi harflardir. Ular ham ikki tomoni yopiq harflar turiga kiradi.

«М», «Ш», «Щ» harflari bo‘yiga nisbatan enining kengligi sal kengroq chiziladi.

«М» harfi birinchi chap vertikal chizig‘i va to‘rtinchi chizig‘i qalin, o‘rtadagi qiya ikkinchi va uchinchi qiya chiziqlari ingichka chiziqlardir.

«Ш», «Щ» harflari uchta vertikal chiziqlari qalin, pastki ularni birlashtiruvchi chiziq ingicha chiziq bilan birlashtiriladi. «Щ» bilan «Ш» harflari bir-biridan pastki gorizontaal chiziq tushirilgan ingichka chiziqcha bilan farqlanadi.



Nazorat savollari

1. «М», «Ш», «Щ» o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. «М», «Ш», «Щ» qirqma harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. «М», «Ш», «Щ» qirqma harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Qirqma harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
5. «М», «Ш», «Щ» qirqma harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Harflarni plakat perosida yozishda tushdan foydalansa yaxshimi yoki guashdan?
7. «М», «Ш», «Щ» qirqma harflarini yozishda nimalarga ahamiyat berish lozim?
8. «М», «Ш», «Щ» qirqma harflarini yozishda qanday usullardan foydalansa bo'ladi?

Amaliy mashg'ulot

«М», «Ш», «Щ» qirqma harflarining yozilish qoidalarini o'rganish.

Qirqma harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

6-mavzu.

«O», «C», «Э», «Ю» harflarini yozish qoidalarini

«O», «C», «Э» harflari asosan bir-biriga o'xshash harflar hisoblanadi. Bu harflar ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bunga o'xshash yana o'ng tomoni ochiq «Ю» harfini kiritish mumkin. «O», «C», «Э» harflari shakli va hajmi bir-birlariga yaqin bo'lsalar-da, «Ю» harfi esa bo'yiga nisbatan eni keng bo'lib, uning chap tomonidan vertikal qalin chizig'i tepadan pastki chiziqqacha tushadi va uning o'ng tomonida «O» yoziladi, harfning o'rtasidan yuqoriroqdan ingichka chiziq bilan ulanadi.

«C» harfining teskarisi «Э» harfidir, faqat ular o'rtadagi chapdan o'ngga chiziladigan ingichka chiziqchasi bilan farqlanadi. «O», «C», «Э» harflari bo'yiga nisbatan eni keng harflar turiga kiradi. «O», «C», «Э» harflari ikkita parallel chiziqdan bir millimetr tepa va pastdan xiyol chiqarib yozilsa, so'z o'qilganda illyuzon ko'rinishi bir tekis bo'lib ko'rinadi. «O», «C», «Э» harflarini o'ng va chap chetidagi chiziqlari qalin bo'lib, ularning tepa va past qismidan ingichkadan boshlanib, o'rtadan birlashadigan chizig'iga qadar ingichkalashib boradi.



Nazorat savollari

1. «O», «C», «Э» qirqma harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. «C» qirqma harfining teskarisi qaysi harf?

3. «O», «C», «Э» qirqma harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. «O», «C», «Э» qirqma harflarini yozishda qanday asboblardan foydalaniladi?
5. «O», «C», «Э» qirqma harflarining orasidagi masofa qanday bo'ladi?
6. «O», «C», «Э» qirqma harflarining bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
7. «Ю» qirqma harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
8. «Ю» qirqma harfining bo'yiga nisbatan eni tengmi?

Amaliy mashg'ulot

«O», «C», «Э» qirqma harflarini yozish qoidalarini o'rganish.
Qirqma harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni mashq qilish.

7-mavzu.

«P», «Ђ», «Б», «В», «Я» harflarini yozish qoidalarini

«P», «Ђ», «Б», «Я» harflari o'xshash harflar turiga kiradi. «P», «Ђ», «Б» harflarning o'ng tomoni ochiq bo'lsa, «Я» harfining chap tomoni ochiqdir. «P» va «Я» harflarining tepadagi doira dumaloq qismi vertikal chiziqqa nisbatan o'rtadan pastroqda bo'lsa, «Ђ», «Б» va «В» harflarining asosiy vertikal chiziqning o'ng tomonidagi doira dumaloqlari o'rtadan yuqoriroqdan boshlab chiziladi.

Р Ђ Б В Я

Nazorat savollari

1. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Qirqma harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
5. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarini yozishda qaysi ashyolardan foydalansa bo'ladi?
6. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarini yozishda qanday qoidalar bor?
7. «P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarini yozishda qaysi bo'yoqlardan foydalanish mumkin?

Amaliy mashg'ulot

«P», «Т», «Б», «Я» qirqma harflarini yozish qoidalarini o'rganish.

Qirqma harflarning kompozitsion to'g'ri joylashtirib yozishni o'rganish.

8-mavzu.

«Г», «Т», «Ӣ», «У», «Ф», «Х», «Х», «Ч» harflarini yozish qoidalari

«Г», «Т», «Ӣ», «У», «Ф», «Х» harflari ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi. «Т» harfi «Г» harfining o'zginasi bo'lib, faqat gorizontall ingichka chizig'i o'ng tomondagi chizig'i bilan farqlanadi. Bu harflarning bo'yiga nisbatan tepa qismi ixchamroq

bo‘lib, birinchi asosiy vertikal chizig‘i qalin, ikkinchi gorizontal chizig‘i ingichka bo‘ladi.

«Ÿ» harfi ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi, «Ÿ» harfining o‘ng tomonidagi chizig‘i qalin, chap tomonidagi ingichka chiziqqa uchburchak shaklni hosil qilib ulanadi.

«Ÿ» harfi «Y» harfidan tepasiga qo‘yiladigan belgi bilan farqlanadi.

«Φ» harfi o‘rtadagi asosiy vertikal chizig‘i qalin, unga ikki tomondan dumaloq bir xil shaklda aylana chiziladi. Faqat aylana vertikal chiziqni chizishda tepadagi vertikal chiziqqa qaraganda pastdagi ulanadigan dumalog‘iga nisbatan ko‘proq joy tashlanib yozilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

«F» harfining ikkala doirasining tepa qismidan ingichkadan boshlanib, o‘rtasi qalinlashib yana pastga ingichkalashib, asosiy vertikal chiziqqa ulanadi.

«X» harfi ikki uchburchak shakldan iborat bo‘lib, tepa va past qismlarga bo‘linadi, tepa qismga nisbatan pastgi qismi kengroq bo‘ladi. Chapdan o‘ngga qiya bo‘lib chiziladigan chiziq qalin, o‘ngdan chapga chiziladigan qiya chiziq ingichka bo‘ladi.

«X» harfining «X» dan farqi ularning o‘ng tomondagi qalin chizig‘ining past qismidagi dumida.

«Ч» harfi hech bir harflarga o‘xshamagan bo‘lib, chap tomoni ochiq harflar turiga kiradi, ikkita vertikal chiziqlari qalin, ularni birlashtiruvchi yarim dumaloq chizig‘i ingichka bo‘ladi.

Г Т Ÿ У Ф Х Ч

Nazorat savollari

1. «F», «T», «Ÿ», «U», «Φ», «X», «Ψ» qirqma harflari o'xshash harflar turiga kiradimi?
2. «F», «T», «Ÿ», «U», «Φ», «X», «Ψ» qirqma harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X», «Ψ» qirqma harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Qirqma harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
5. «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X», «Ψ» qirqma harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotlar

«F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X», «Ψ» qirqma harflarini yozishni mashq qilish.

Qirqma harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

9-mavzu.

«1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini yozish qoidalari

«1» raqami bitta vertikal chizig'i qalin, uning chap tomonga qiya bo'lib tushadigan chizig'i ingichka chiziqda chiziladi.

«2» raqamini to'g'ri yozishda ikkita vertikal chiziqning tepa qismidan yarim doira chapdan o'ngga chizilib, o'rtaga kelganda chiziqning chap tomoniga burib pastgacha tushiriladi va o'ng tomonga chiziq tortib, 2 raqami yoziladi.

«3» raqami ikkita doiradan iborat bo'lib, tepasi kichkina, pastdagi doirasi kattaroq bo'lib, tepadagi doirani chap tomondan qalin chiziqdan boshlab tepaga ingichkalashib, yana pastga qalin-

lashadi va oʻrtasi ingichkalashib, chap tomonga burilib toʻxtaydi, pastga qarab ikkinchi doira boshlanadi, uning ham oʻrtasi qalin boʻlib, pasti ingichkalashib chap tomonga qalinlashib tugaydi.

«4» raqami oʻng tomondan qalin vertikal chiziqdan boshlanib pastgacha chiziladi, uning tepa qismidan chap tomonga ingichka qiya chiziq tushirib, vertikal chiziqning oʻrtasidan pastroqqacha tushirib, qalin chiziq asosiy chiziqqa belbogʻ boʻlib toʻrt raqami yoziladi.

«5» raqami ikki tomoni ochiq hisoblanadi. «5» raqamini yozishda tepadagi gorizontaal chiziqdan oʻngdan chapga chizilib, pastga ozgina tushiriladi va oʻng tomonga katta doirani pastki chiziqqacha tushirib, uni chap tomonga burib xiyol tepaga olib chiqib besh raqami hosil qilinadi.

1 2 3 4 5

Nazorat savollari

1. «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining qaysi tarafi ochiq hisoblanadi?
2. «2» raqamining teskarisi qaysi raqamga oʻxshaydi?
3. «1», «2», «3», «4», «5» raqamlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarni yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Raqamlarning bir tekis yozilishida nimalarga eʼtibor berish lozim?
6. «4» raqamining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
7. «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini yozishda nimalarga eʼtibor berish lozim?

Amaliy mashgʻulotlar

«1», «2», «3», «4», «5». Bu raqamlarni yozishni mashq qilish. Raqamlarni kompozitsion toʻgʻri joylashtirishni oʻrganish.

10-mavzu.

«6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozish qoidalari

«6» raqamini toʻgʻri yozishda oʻngdan chapga qarab katta yarim doira chizilib, pastki chiziqqacha tushirib oʻng tomonga kichik doira yasab chap tomondagi katta doiraga ulanadi.

«7» raqamini ikki chiziqdan iborat tepadagi chizigʻini chapdan oʻngga chizib, uni pastki chiziqa qarab chap tomonga sal qiyshaytirib chizib tushiriladi. Tepa qismi qalin, pastga tushgan qiyshiq chizigʻi ingichka qilib chiziladi.

«8» raqami ikkita dumaloq doiradan iborat boʻlib, tepasi kichik, pastkisi katta doiradan iborat. «8» raqamining oʻng va chap tomoni qalin boʻlsa, tepa, past va oʻrtadagi ulangan joyi qismlari ingichka chiziqdan iborat.

«9» mraqaming olti raqamining teskarisi boʻlib, uning dumaloq qismi tepada boʻlib, katta doirasi oʻng tomondan boshlanib, pastki chap tomonga burilib tugaydi.

«0» raqamining ikki tomoni ochiq hisoblanadi. «0» raqami chap va oʻng tomonlari qalin boʻlib, tepa va pastki qismi ingichka chiziq bilan ulanadi.

6 7 8 9 0

Nazorat savollari

1. «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarining qaysi tarafi ochiq hisoblanadi?
2. «6» raqamining teskarisi qaysi raqam hisoblanadi?
3. «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarni bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Raqamlarning chiroyli yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
6. «7» raqamining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
7. «6», «7», «8», «9», «0» raqamlari orasidagi masofa qanday bo'lishi kerak?

Amaliy mashg'ulotlar

«6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozishni mashq qilish.
Raqamlarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

11-mavzu.

Qirqma husnixatda yozilgan harflardan kompozitsiya yaratish

Qirqma husnixatni avvalambor vaqtini va ashyolarni tejash maqsadida A 4 format qog'ozni vertikal va gorizontal bo'laklarga 5×7 sm hajmda to'g'ri to'rtburchak bo'laklarga bo'lib chiqish lozim. Shu to'rtburchaklar ichiga harflardan chiroyli original tarzda turli xil kompozitsiyalar izlanadi. Qirqma husnixatning o'ziga xosligini inobatga olib, uning xususiyatiga mos bo'lgan kompozitsiyalar izlaniladi, uning fond uchun turli shakllardan foydalanish mumkin.

Agar qirqma husnixatda soʻzlar yoziladigan boʻlsa, har bir soʻz tugagandan soʻng ular orasida, eng kamida bir harf kengligida masofa tashlab yozish tavsiya etiladi.

Qirqma harflardan kompozitsiyaga xomakilar ishlashda asosan kompozitsiyaning ikki oʻng, chap qismi va tepa qismidan bir xil masofa qoldirilsa, pastki qismidan esa ularga nisbatan koʻproq joy qoldirilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Xomaki ishlash jarayonida barcha (variant) usullar, turli xil daliliy ashyolardan, foto koʻrinishlardan foydalanib, qoralamalar izlab qidirib, topilgan fikr va dastlabki gʻoyalarni oʻqituvchisiga koʻrsatib, uning koʻrsatma va takliflarini inobatga olib, xomaki qoralamalarni aniq bir mavzuga qaratib, uni tushunarli holga kelgunga qadar izlanishdan toʻxtamay qidiriladi.

Nazorat savollari

1. Qirqma harflardan husnixat bilan kompozitsiya yaratishda nimalarga eʼtibor berish lozim?
2. Qirqma harflardan kompozitsiya qidirishda qaysi qoidalarga rioya qilish kerak?
3. Qirqma harflardan soʻz yozganda har bir soʻzning orasida qancha masofa tashlab yoziladi?
4. Qirqma harflardan eskiz qidirishda eng qulay yoʻl qaysi?
5. Qirqma harflarni toʻgʻri yozishda nimalarga eʼtibor berish lozim?
6. Qirqma harflarni yozishda qoʻllaniladigan usullar qaysilar?

Amaliy mashgʻulot

Xomaki ishlash qoidalariga rioya qilish.

Xomaki ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.

12-mavzu.

Qirqma husnixatni kartonda ishlash

Qirqma husnixat topshirig'ini o'quvchi ixtiyoriga ko'ra ikki xil usulda bajarishi mumkin. Kompozitsiyaning fonini oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki uning aksi bo'lishi mumkin. Kompozitsion jihatdan topilgan husnixat eskizini o'qituvchi tasdiqlagandan so'ng, uni 50×70 sm bo'lgan kartonga, ya'ni millimetrovkaga asl nusxa hajmiga mos qilib harflarni to'g'ri joylashtirib chiqiladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarni yozishda qoidalarga to'liq rioya qilinadi. Qirqma husnixatdan so'z yozishda harflarning orasidagi masofa qanday kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar bir so'z yozilganidan so'ng, keyingi so'zni yozmoqchi bo'lsak, orasidagi masofa eng kamida bir harf kengligida joy tashlab yozish tavsiya etiladi.

Qirqma husnixati kompozitsiyasini kartonga to'g'ri joylashtirishda asosan topilgan (eskiz) xomaki kompozitsiyani ikki yon tomonlari o'ng, chap va tepa qismlaridan bir xil masofa qoldirilsa, pastki qismidan esa ularga nisbatan ko'proq joy tashlab joylashtiriladi. Kartonning asosiy vazifasi harflarni planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirishda qoralamadagi barcha shakl va elementlarni mashtabda kattalashtirib joy-joyiga qo'yib, chizib chiqiladi, xomakidagi barcha qiyinchiliklar kartonda tugatib, kartonga (eskiz) xomakisi chiroyli joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin uni yana bir bor yaxshilab tekshirib chiqiladi.

Nazorat savollari

1. Karton qanday hajmda bo'lishi lozim?
2. Karton nima uchun kerak?
3. Kartonga xomakini o'tkazishda masshtabga rioya qilinadimi?
4. Nima uchun husnixat harflar turlarga va variantlarga bo'linadi?
5. Broshyura va kitoblardagi husnixatning farqi nimada?
6. Qanday husnixat elementlarini bilasiz?
7. Husnixatda obraz nima uchun kerak?
8. Husnixatda birinchi va ikkinchi darajali elementlar qaysilar hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulot

Kartonda ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikki darajali elementlarni ajrata olish.

13-mavzu.

Asl nusxani ishlash

Kartonning hajmi asl nusxasining hajmi bilan teng bo'lishi kerak. Kartondagi chizmani asl nusxa o'tkazishdan oldin, karton orqa tomoni qora qalam yoki ko'mir bilan qoralab bo'yab chiqiladi. Orqasi qoralangan kartonni asl nusxa planshetga o'tkazish uchun uni yaxshilab skochlab yoki knopkalab qimirlamaydigan qilib mahkamlab, barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga asta-sekin shoshilmay o'tkazib olinadi.

Kompozitsion jihatdan topilgan qirqma husnixatning xomaki qoralamasini 50×70 sm bo'lgan kartonda (millimetrovkaga), ya'ni masshtabga mos ravishda eskizni kattalashtirish jarayonida risoladagidek to'g'ri joylashtirilgandan so'ng harflarni yozish

qoidalariga to'liq rioya qilinadi. Asl nusxasi tushirilgan kompozitsiyani yana bir bor qaytadan aniqlashtirib chizib chiqiladi. Asl nusxani toza va ozoda bo'lishi uchun chizilgan husnixatni ustidan suyuq qilib oq guash bilan tekis qilib bo'yab olinadi. Bu ishni qilishdan asosiy maqsad, asl nusxa tugagandan keyin surkalgan joylarini oq guash bilan bo'yalganda qog'oz oqarib yoki sarg'ayib qolmaydi, qog'ozdan ajralib qolmasligi uchun guashda bo'yaladi. Guashni suyuq qilib bo'yab o'tgandan so'ng uni obdan qurishi poylanadi, guash obdan qurigandan so'ng qalam bilan chizilgan husnixatni guash, tempera yoki akril bo'yog'i bilan bo'yab chiqiladi. Chiziqlar obdan quriganda so'ng mo'yqalam bilan husnixatning ichki qismlarni guashga ozgina PVA yelimi qo'shib bo'yalsa, asl nusxa uzoq muddat saqlanadi va qo'l bilan tekkanda surkalmaydi. Harflar bo'yolib bo'lgandan so'ng eng nozik ishlari qoladi. Har bir harflarning uchlarini va tag qismini, gorizontaal va vertikal chiziqlarni aniqlashtirib risoladagidek bo'lguncha, qiyomiga keltirib ishlanadi.

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo'lingandan so'ng ularni yana bir bora, birma-bir ko'zdan o'tkazib, tuzatadigan joylarini nozik mo'yqalam bilan to'g'rilab tekislanadi, surkalgan joylarini oq guash bilan tozalab bo'yaladi.

Nazorat savollari

1. Qirqma harflarning qanday husnixat turini yoza olasiz?
2. Qirqma harflarni husnixat yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Qirqma harflarning so'zlar orasidagi masofa qanday yozilishi kerak?
4. Qirqma harflarning harflar orasidagi masofa qanday yozilishi kerak?
5. Qirqma harflarning qoralama eskizlari kerakmi?
6. Qirqma harflarni yozishda kompozitsiya muhimmi?

7. Qirqma harflar bilan yozishda kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
8. Qirqma harflarni yozishda eskiz, karton ishlatish kerakmi?
9. Qirqma harflarning asl nusxasini ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Qirqma harflarning asl nusxasini ishlash qoidalariga rioya qilish.

Asl nusxani tugata bilish.

14-mavzu.

Asl nusxani ko'rikka tayyorlash

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo'lingandan so'ng ularni yana bir bora, birma-bir ko'zdan o'tkazib, tuzatadigan joylarini nozik mo'yqalam bilan to'g'rilab tekislanadi, surkalgan joylarini oq guash bilan tozalab bo'yaladi.

Barcha ishlar tugallangandan so'ng planshetni ehtiyot qilib qog'oz bilan o'rab qo'yiladi. Chunki guash bilan ishlangan ishlar juda nozik bo'lib, tezda kir bo'lishi yoki boshqa narsalar tegib ketsa, qirilishi va buzilishi mumkin. Tugatilgan ishni ko'rik hay'at a'zolari diqqatiga baholash uchun taqdim etiladi.





А
БВ
ГДЕЗ
ЖИЙК
ЛМНОПР
СТУЦФХЧЬ
ЬЭЮЯШЩ
12345678
9её:!
“” □
?
?



Б Н Х Т К Ц
Н Е П В Б И
К М Я
В Л У Ц Н П
Е Б П И Е Л

Nazorat savollari

1. Asl nusxani ishlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Asl nusxani ishlashda so'zlar orasidagi masofa qanday bo'lishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday bo'lishi lozim?
5. Asl nusxani ishlashda qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
6. Asl nusxani ishlashda kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
7. Asl nusxaning kompozitsiyasini ishlashda nimalarga e'tibor berilish kerak?
8. Asl nusxani ishlashda nima uchun eskiz karton qilinadi?

Amaliy mashg'ulot

Asl nusxani ishlash qoidalariga rioya qilish.

Asl nusxani ko'rikka tayyorlash.

I KURS.

III SEMESTR (40 soat)

1-mavzu.

Gulsimon harflar

Gulsimon harflar qadim zamonlardan maxsus shoh saroylarida yetuk xattotlar tomonidan qo‘l mehnati asosida eng nozik did bilan yozilgan shohona farmon, buyruq, taklifnoma, tashakkurnoma, qo‘lyozma kitoblar, diplom, faxriy yorliq, diplomik aloqalardagi rasmiy xatlar, davlat miqyosidagi mukofotlarni san‘at asari darajasiga yetkazib yozilganligi tufayli hozirda davlat muzeylarida, shaxsiy kolleksionerlarning arxivlarida ardoqlab saqlanib kelinmoqda.

Xattotlik (arab – husnixat yozuvi) kalligrafiya – yozuv (xat) san‘ati, kitobat ko‘chirish hamda me‘moriy inshootlar, badiiy buyumlarni, kitoblarni yaratish kasbi yozuvning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan O‘rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelgunga qadar qo‘lyozma kitob tayyorlash, uning nusxalarini ko‘paytirish (matn ko‘chirish) bilan xattotlar shug‘ullangan (qadimiy kitobat san‘ati) bilan mashhur xattotlar shug‘ullangan (qadimiy kitobat san‘ati). Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo‘lib ishlagan. Jumladan, Temuriy shahzoda Boysung‘ur Mirzo (1397–1433) Hirotda tashkil qilingan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda qirqdan ortiq xattotlar qo‘lyozma kitoblar tayyorlashgan, yaroqsiz holga kelganlarini ta‘mirlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. Xattotlik san‘atiga bag‘ishlangan ko‘plab

risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muhaqqaq, nasta'lik, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, rikoriq'iy) mavjudligi haqida darak beradi.

O'rta Osiyoda arab yozuvi tarqalgunga qadar turli yozuv usullari bo'lgan (masalan: Sug'diy, O'rxun-Yenisey, qadimiy turkiy xoqon yozuvlar) va boshqalar. Qadimiy yozuvlardan bo'lgan Kufiy yozuvi ko'pgina me'moriy yodgorlik va boshqa obidalarining bezagida saqlanib qolgan. Jumladan, O'zbekiston musulmonlar diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni ham ana shu Kufiy (qadimiy hijoz adabiy yozuv)da ko'chirilgan. Qur'on ko'chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari ham bo'lgan. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so'nggi sulolalar (ashtarxoniylar, mang'itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida Mavlono Shamsuddin Munshiy, Sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo'lgan. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik san'atkorlar (Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy va boshqalar) husnixatda samarali ijod qilganlar. «Xattotlar sultoni» Sultonali Mashhadiy (Ibrohim bin Mir Tabriziy va boshqalar) nasta'liq xatini san'at darajasiga ko'targan. Temuriy shahzodalari Shohrux, Boysung'ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo va boshqalar) ham xattotlarga homiylik qilish bilan birga, o'zlari bu san'at turi bilan shug'ullanganlar.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo «Xati Boburiy» ixtirochisidir. Kitobat san'ati bilan bir qatorda, binolarning kitoblar, qabrtoshlaridagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo'llanilgan. Shayboniylardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan shug'ullangan va nasx xatini yuksak mahorat bilan yozgan.

Gulsimon husnixat boshqa garnituradagi husnixatlardan tubdan farq qiladi. Bu harflar bilan o‘ta jiddiy rasmiy mavzularni yoritishda qo‘llashgan, chunki tomoshabin tomonidan yozuvning qiynalmay o‘qilishi, har bir harflarga qunt bilan ahamiyat berib uning chiroyli yozilishiga, estetik ko‘rinishiga va dona-dona bo‘lib uzoq masofadan ko‘zni quvontiradigan darajada yozilishini inobatga olib, undan, ayniqsa, rasmiy ma’lumotlarni yozishda keng qo‘llanadi.

Gulsimon husnixatning nozikligi va jozibadorligi undagi chiziqlarning o‘ynoqiligi harfning kerakli joyida qalin bo‘lib, asta-sekin ingichkalashib go‘zal chiziqlar o‘yinini hosil qilishi bu husnixat naqadar shohona husnixat ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Gulsimon husnixatning asosiy qismi simmetrik va asimmetrik harflardan iborat. Alifbodagi harflar simmetriya va asimmetriyaga bo‘linadi (bu bo‘linish shartlidir, chunki asimmetriya ularga nisbatan olingan va harflarning chizmasiga bog‘liq). Simmetriya – bu harflar umumiy shaklining ichki tomoni bir-biriga tengligidir.

Nazorat savollari

1. Gulsimon husnixatga qaysilar kiradi?
2. Ikki tomoni ochiq harflar turini ayting.
3. O‘ng tomoni ochiq harflarga qaysi harflar turini kiritsa bo‘ladi?
4. Chap tomoni ochiq harflarga qaysi harflar turini kiritsa bo‘ladi?
5. Ikki tomoni yopiq harflar turini ayting.
6. Asimmetrik harflarni ayting.
7. Gulsimon husnixatning jozibasi nimada?
8. Gulsimon husnixat asosan qayerlarda qo‘llanilgan?
9. Gulsimon husnixatda yozgan xattotlarning qaysilarini bilasiz?
10. Amir Temur davrida xattotlarga qanday e’tibor bo‘lgan?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon husnixatda harflarni to'g'ri yozishni o'rganish.

Gulsimon husnixat harflarining shakliga e'tibor berib, to'g'ri yozish.

2-mavzu.

Gulsimon «A», «Б», «В», «Г» harflarini yozish qoidalari

«A» harfini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chizib olinadi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziq chiziladi va chap tomonga yarim doirani nuqta bilan tugatiladi. Ikkinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan boshlab o'ng tomonga qarab qalin chiziq chizib pastgacha tushiriladi, uchinchidan, «A» harfining belbog'ini o'ngdan chapga ingichka chiziqdan boshlanib, sekin qalinlashib doira shakl o'ng tomonga burilib asosiy chiziqqa ulanadi.

«Б» harfini chizishda, birinchidan, «Б» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib, ingichkadan boshlab o'rtasi qalinlashadi, chap tomonga ingichka bo'lib, yarim doira chizilib, nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan pastga doirani ingichkadan tepaga olib chiqib, o'rta chiziqqa kelib qalinlashtirib, asta-sekin ingichkalashib to'xtaydi, uchinchidan, ingichka dumaloq yarim doira qismi asosiy chiziqning o'rtasidan balandroqdan ingichka chiziqdan boshlab asta qalinlashib, yana pastga tushguncha ingichkalashadi va chap tomonga asosiy chiziqqa burilib tugallandi.

«В» harfini chizishda, birinchidan, «В» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab o'rtasini

qalinlashtirib, chap tomonga burilganda ingichkalashib, yarim doira chizilib nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan tomchisimon doira shakli chizib, tepaga chiqarib uni o'ng tomonga burib, uni asta-sekin ingichkadan qalinlashtirib, asosiy chiziqning o'rtasidan balandroqqa borib ulanib, pastiga qarab ikkinchi katta doirani ingichkadan boshlab, uning o'rtasi qalinlashib, pastga tushguncha ingichkalashib, chap tomonga burilib asosiy chiziqning o'rtasiga borib to'xtaydi.

«Г» harfini chizishda, birinchidan, «Г» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab o'rtasi qalin bo'lib, chap tomonga asta-sekin chiziq ingichkalashib, yarim doira nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan pastga doirani ingichka chiziqdan tepaga olib chiqib, o'rta chiziqqa kelib qalinlashadi va asta-sekin ingichkalashib to'xtaydi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon husnixatining qaysi turlarini bilasiz?
2. Gulsimon «А» harfining qaysi tomoni ochiq harflar turiga kiradi?
3. Gulsimon «Б» harfini yozish qoidalarini bilasizmi?
4. Gulsimon «В» harfini yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Gulsimon «Г» harfi qaysi harfga o'xshaydi?
6. Asimmetrik harflarni ayting.

Amaliy mashgʻulotlar

Gulsimon harflarni toʻgʻri yozishni oʻrganish.

Gulsimon harflarning shakliga eʼtibor berib yozish.

3-mavzu.

Gulsimon «Д», «Е», «Ё», «Ж» harflarini yozish qoidalari

«Д» harfini chizishda, birinchidan, «Д» harfining asosiy chizigʻini tepadan pastga toʻgʻri qilib ingichkadan boshlab oʻrtasini qalinlashtirib, chap tomonga asta-sekin ingichkalashib, pastki gorizontaal chiziqqa tushib oʻng tomonga buriladi, katta doiraning oʻrtasi qalinlashib borib, tepa chiziqqa ohista ingichkalashadi, harfning chap tomoni ingichkadan qalinga oʻtib dumaloq tomchi shaklini hosil qilib tugaydi.

«Е» harfini chizishda, birinchidan, «Е» harfining tepa gorizontaal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib, oʻng tomonga yarim doira shakl orqali tepaga gorizontaal chiziqqacha chiqib, ingichka chiziq chap tomonga burilib, asta qalinlashib «Е» harfining tepa qismi tugadi, «Е» harfini chiziqni oʻng tomonga burilib ingichkadan qalinlashib pastki chiziqqa ingichkalashib tepaga koʻtarilib, yana pastga ingichka chiziq bilan kichik doira hosil qilinadi.

«Ё» harfini «Е» dan farqi harf tepasidagi ikkita nuqtasi hisoblanadi. «Ё» harfini chizishda, birinchidan, «Ё» harfining tepa gorizontaal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib, oʻng tomonga yarim doira shakl orqali tepaga gorizontaal chiziqqacha ingichka chiziq chap tomonga burilib, asta qalinlashib «Ё» harfining tepa qismi tugab oʻng tomonga burilib, ingichkadan

qalinlashib, pastki chiziqqa ingichkalashib tepaga ko‘tarilib, yana pastga ingichka chiziq bilan kichik doira hosil qilinadi.

«Ж» harfini chizishda, birinchidan, «Ж» harfining chap tomondagi katta doirani tepadan pastga tuxumsimon doirani ingichka chiziq bilan o‘ng tomonga burib, ingichkadan asta-sekin qalinlashib pastga yana ingichkalashib yarim doira bo‘lib oxiri nuqta bilan tugaydi, katta doiraning o‘rtasidan ingichka chiziq bilan tepa chiziqqa chiqarib pastga «Ж» harfining o‘rtasi qalin chiziq bilan pastgacha tushirib yana tepaga ikkinchi doiragacha ko‘tariladi, ikkinchi doirani chapdan o‘ngga yarim doira qilib ingichka chiziq bilan tepagacha chiqarib, asta-sekin uni qalinlashtirib pastgacha tushirib o‘ng tomonga ingichka chiziq bilan kichik doira hosil qilinadi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «Д» harfining qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «E» harfiga o‘xshash harfni ayting.
3. Gulsimon «Д», «E», «Ё», «Ж» harflarini yozishda nimalarga e‘tibor beriladi?
4. Gulsimon harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e‘tibor berish lozim?
5. Gulsimon «Д», «E», «Ё», «Ж» harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashgʻulotlar

Gulsimon «Д», «Е», «Ё», «Ж» harflarining risoladagidek yozilish qoidalarini oʻrganish.

Gulsimon harflarni kompozitsion toʻgʻri joylashtirishni oʻrganish.

4-mavzu.

Gulsimon «З», «И», «Й», «К», «Қ» harflarini yozish qoidalarini

«З» harfini chizishda, birinchidan, «З» harfining tepa gorizontaal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontaal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib chap tomonga burilib, asta-sekin ingichka chiziqni oʻrtadan teparoqqa tushirib, «З» harfining pastki katta doirasini ingichkadan qalinlashtiriladi va sekin ingichkalashib chap tomonga burilib nuqta bilan tugaydi.

«И» harfini chizishda, birinchidan, «И» harfining tepa gorizontaal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontaal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib oʻng tomondan burilib, «И» harfining birinchi chizigʻi asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib, pastki chiziqqacha ingichkalashib, asta-sekin oʻng tomonga burilib, ikkinchi chiziqning tepa qismigacha borib pastga qalin chiziq boʻlib tushadi.

«Й» harfining «И» harfidan farqi tepasidagi hoshiyasi hisoblanadi. «Й» harfini chizishda, birinchidan, «Й» harfining tepa gorizontaal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontaal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib oʻng tomondan burilib, «Й» harfining

birinchi chizig‘i asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib, pastki chiziqqacha ingichkalashib, asta-sekin o‘ng tomonga burilib, ikkinchi chiziqning tepa qismigacha borib pastga qalin chiziq bo‘lib tushadi.

«K» harfini chizishda, birinchidan, «K» harfining tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib, o‘ng tomondan burilib, harfning birinchi chizig‘i asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib, chap tomonga burilib nuqta bilan tugaydi, «K» harfining ikkinchi ingichka chizig‘i harfning o‘rtasidan teparoqdan ulanib, harfning o‘ng tomonga ingichka chiziqdan qalinlashib pastgacha tushib, o‘ng tomonga burilib to‘xtaydi.

«K» harfining «Қ» dan asosiy farqi harfning pastidagi o‘ng tomondagi dum qismi (elementi) hisoblanadi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «З», «И», «Й», «К» harflari o‘xshash harflar turiga kiradimi?
2. Gulsimon «З», «И», «Й», «К» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulsimon «З», «И», «Й», «К» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
4. Gulsimon harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e‘tibor berish lozim?

5. Gulsimon «З», «И», «Й», «К» harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Gulsimon «К» harfining «К» dan asosiy farq nimada?
7. Gulsimon «Й» harfining «И» dan farqi nimada?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon «З», «И», «Й», «К» harflarini yozish qoidalarini o'rganish.

Gulsimon harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

5-mavzu.

Gulsimon «Л», «М», «Н», «О» harflarini yozish qoidalarini o'rganish

«Л» harfini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontaal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontaal chiziqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziq chiziladi va chap tomonga yarim doirani nuqta bilan tugatiladi. Ikkinchidan, tepadagi gorizontaal chiziqdan boshlab, o'ng tomonga qarab qalin chiziq chizib pastgacha tushirilib, o'ng tomonga ingichka chiziq yarim doira chiziladi.

«М» harfini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontaal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontaal chiziqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziq chiziladi va chap tomonga yarim doirani nuqta bilan tugatiladi. Ikkinchidan, tepadagi gorizontaal chiziqdan boshlab o'ng tomonga qarab qalin chiziq chizib, pastgacha tushirib o'ng tomoni ingichka chiziq

bilan yarim doira chiziladi va uchinchi qalin chiziqqa ulanadi. «M» harfining uchinchi qalin chizig‘i tepa gorizontal chiziqdan pastki chiziqqacha tushirilib, tepaga o‘ng tomonga yarim doira shaklda ingichka chiziqda chiziladi.

«H» harfini chizishda, birinchidan, «H» harfining tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib yarim tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib, o‘ng tomondan burilib, «H» harfining birinchi chizig‘ini asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib, pastki chiziqqacha ingichkalashib, asta-sekin o‘ng tomonga burilib, nuqta bilan tugatiladi. «H» harfining ikkinchi chizig‘ining tepa qismini ingichka chiziqdan boshlab, pastga qalin chiziq bo‘lib tushadi va o‘ng tomonga ingichkalashib, yarim doira bo‘lib tugaydi. «H» harfining ikkinchi chizig‘ining tepasidan o‘ng tomonga ingichka chiziq bilan harfning o‘rtasigacha tushirib, ikkita vertikal chiziqni o‘rtasidan o‘tkazib belbog‘ hosil qilinadi.

«O» harfini chizishda, birinchidan, «O» harfining pastki chiziqqa yetmasdan o‘ng tomonidan ingichka chiziq bilan tepaga ko‘tarib, yarim doirani ingichkadan qalinlashib, pastki chiziqqacha ingichkalashadi va chiziqni chap tomonga burib, uni asta-sekin qalinlashtirib, tepa chiziqqacha olib chiqiladi, undan kichkina doira shaklini hosil qilib, peroni chap tomonga burib, yana bir kichkina tomchi doirachasi hosil qilinadi.

A M H O

Nazorat savollari

1. Gulsimon «J», «M», «H», «O» harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «J», «M», «H», «O» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulsimon «J», «M», «H», «O» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Gulsimon harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Gulsimon «J», «M», «H», «O» harflarining estetik jozibasi nimada?
6. Gulsimon harflarni yozishda qaysi ashyolardan foydalaniladi?
7. Gulsimon harflarning qanday turini bilasiz?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon «J», «M», «H», «O» harflarining yozilish qoidalarini o'rganish.

Gulsimon harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

6-mavzu.

Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarini yozish qoidalarini o'rganish

«П» harfini chizishda, birinchidan, «П» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab o'rtasini qalinlashtirib, chap tomonga burib, uning chizig'ini ingichkalashtirib, yarim doirani hosil qilib, nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, «П» harfining o'ng tomonidan pastga qalin chiziqni

tepadan, pastki gorizontal chiziqqacha tushirib, uni yana o'ng tomonga burib, ingichka kichik doira chizig'i chiziladi, uchinchidan, «П» harfini tepa chap tomonidan ingichka chiziqni yarim doirani tepaga ko'tarib, uning o'rtasini qalinlashtirib va ingichka chiziq yarim doira bilan tugaydi.

«P» harfini chizishda, birinchidan, «P» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab, «P» harfining o'rtasini qalinlashtirib, peroni chap tomonga burib, uni ingichkalashtirib, o'ng tomonga burilib xiyol qalinlashib, chap tomonga burilib, nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan pastda doirani ingichkadan tepaga olib chiqib, o'rta chiziqning o'ng tomoniga o'tib, asta-sekin qalinlashadi va dumaloq shakl ingichkalashib, asosiy chiziqqa ulanadi.

«C» harfini chizishda, birinchidan, «C» harfining chap tomonidan ingichka chiziq bilan o'ng tomonga sekin qalinlashtirib, kichik doirani o'ng tomonga buriladi va tepa chiziqqacha yana bitta doira qilib asosiy chiziqqa ulanadi, uning o'rtasini qalin qilib pastga yana ingichkalashtirib, o'ng tomonidan katta doira chizib «C» harfi tugatiladi.

«T» harfini chizishda, birinchidan, «T» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab, o'rtasi qalinlashtiriladi va chap tomonga ingichkalashib undan yarim doira chizilib, nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, «T» harfining o'rtadagi ikkinchi chizig'i tepadan pastki chiziqqacha qalin chiziq bilan chiziladi, uchinchidan, «T» harfining o'ng tomonidan pastga qalin chiziq pastki gorizontal chiziqqacha tushirib, yana o'ng tomonga burilib ingichka chiziq bilan to'xtaydi, to'rtinchidan, «T» harfining tepa chap tomonidan ingichka kichik doira chizig'i chizilib, o'rtasi qalinlashib, chap tomonga burilib ingichka chiziq doira bilan tugaydi. «T» va «P» harflarining tepa qismi bir xil shaklda bo'ladi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarining o‘xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «П» harfi qaysi harfga o‘xshash?
3. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarini yozishda qanday asboblardan foydalaniladi?
5. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflari orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
6. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarining bir tekis yozilishida nimalarga e’tibor berish lozim?
7. Gulsimon «Т» harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg‘ulotlar

Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarining yozilish qoidalarini o‘rganish.

Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarini kompozitsion to‘g‘ri joylashtirishni mashq qilish.

7-mavzu.

Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflarini yozish qoidalarini o'rganish

«Y» harfini chizishda, birinchidan, «Y» harfining asosiy chizig'ining chap tomonidan pastga tomchi doirani ingichkadan tepaga olib chiqib, «Y» harfining tepasiga ulanib, ingichka chiziqdan qalinlashib harfning o'rtasiga tushib o'ng tomonga ingichka chiziq bilan burilib, tepa chiziqqacha chiqadi. O'rta chiziqqa kelib qalinlashtirib, asta-sekin ingichkalashib to'xtaydi. «Y» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab o'rtasini qalinlashtirib, u chap tomonga ingichkalashib, o'ng tomonga burilib, ingichka chiziq asosiy chiziqning o'rtasigacha borib, pastga yarim doira shakli bilan tugaydi.

«Φ» harfini chizishda, birinchidan, «Φ» harfining asosiy chizig'ining chap tomonidan pastga tomchi doirani ingichkadan tepaga olib chiqib, «Φ» harfi asosiy chizig'ining tepasiga ulanadi va harfning asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'rilab, harfning ingichkadan boshlab o'rtasini qalinlashtirib, chap tomonga burilib ingichkalashib, chiziq yarim doira hosil qilib, nuqta bilan tugaydi, «Φ» harfining chap tomondagi birinchi doirasini ingichka chiziqdan boshlab, dumaloqning o'rtasi qalin bo'lib, yana sekin ingichkalashib, asosiy ustunga ulanadi va harfning o'ng tomondagi ikkinchi doirani ingichka chiziqdan boshlab, o'rtasi qalin bo'lib yana pastga ingichkalashib, chap tomonga buriladi va yarim doira shaklini hosil qiladi.

«X» harfini chizishda, birinchidan, «X» harfining chap tomonidagi katta doirani tepadan pastga tuxumsimon doirani ingichka chiziq bilan o'ng tomonga burib, ingichkadan asta-sekin qalinlashib, pastga yana ingichkalashib yarim doira hosil qiladi, oxiri nuqta bilan tugaydi, ikkinchi doirani chapdan o'ngga yarim doira qilib, ingichka chiziq bilan tepagacha chiqarib, asta-sekin

uni qalinlashtirib, pastgacha tushirib o'ng tomong ingichka chiziq bilan kichik doira hosil qilinadi.

«X» harfi «X» dan uning ikkinchi doirasining pastidagi dumi bilan farqlanadi, birinchidan, «X» harfining chap tomondagi katta doirani tepadan pastga tuxumsimon doirani ingichka chiziq bilan o'ng tomonga burib, ingichkadan asta-sekin qalinlashib, pastga yana ingichkalashib borib, yarim doira shaklini hosil qilib, oxiri nuqta bilan tugaydi, ikkinchi doirani chapdan o'ngga yarim doira qilib, ingichka chiziq bilan tepagacha chiqarib, asta-sekin uni qalinlashtirib pastgacha tushiriladi va o'ng tomonga ingichka chiziq bilan kichik doira hosil qilinadi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflarining bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Gulsimon harflarning bir-biriga munosabati qanday?
7. Gulsimon harflarni yozishda malaka talab etiladimi?

Amaliy mashgʻulotlar

Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflarning yozilish qoidalarini oʻrganish.

Gulsimon «Y», «Φ», «X», «X» harflardan kompozitsiya yaratishni oʻrganish.

8-mavzu.

Gulsimon «Ÿ», «K», «F», «B» harflarini yozish qoidalarini oʻrganish

«Y» harfi «Ÿ» harfidan tepasidagi elementi bilan farqlanadi, «Ÿ» harfini chizishda, birinchidan, «Ÿ» harfining asosiy chizigʻi-ning chap tomonidan pastga tomchi doirani ingichkadan tepaga olib chiqib, «Ÿ» harfining tepasiga ulanib, ingichka chiziqdan qalinlashib harfning oʻrtasiga tushib, oʻng tomonga ingichka chiziq bilan burilib, tepa chiziqqacha chiqadi. Oʻrta chiziqqa kelib qalinlashtirib asta-sekin ingichkalashib toʻxtaydi. «Ÿ» harfining asosiy chizigʻini tepadan pastga toʻgʻri qilib ingichkadan boshlab oʻrtasini qalinlashtirib, u chap tomonga ingichkalashib, oʻng tomonga burilib, ingichka chiziq asosiy chiziqning oʻrtasigacha borib, pastga yarim doira shakli bilan tugaydi.

«K» harfidan «K» harfining farqi ikkinchi qalin chiziqning pastdagi elementi bilan farqlanadi. «K» harfini chizishda, birinchidan, «K» harfining tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib oʻng tomondan burilib, «K» harfining birinchi chizigʻi asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib chap tomonga burilib nuqta bilan tugaydi, «K» harfining ikkinchi ingichka chizigʻi harfning oʻrtasidan teparoqdan ulanib, harfning oʻng tomonga ingichka

chiziqdan qalinlashib pastgacha tushadi va o'ng tomonga burilib gajak shaklida bo'lib to'xtaydi.

«F» harfi «Γ» harfidan o'rtasidagi belbog'i bilan farqlanadi, «F» harfini chizishda, birinchidan, «F» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan boshlab o'rtasi qalin bo'lib, chap tomonga asta-sekin chiziq ingichkalashib, yarim doira nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan pastga doirani ingichka chiziqdan tepaga olib chiqib, o'rta chiziqqa kelib qalinlashadi va asta-sekin ingichkalashib to'xtaydi.

«Б» harfini chizishda, birinchidan, «Б» harfining asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan qalinlashib pastga ingichka chiziq chizib tushirilib, o'ng tomonga burib ingichkadan qalinlashadi va katta yarim doira chizilib asosiy chiziqning o'rtasidan yuqoriroqda tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan tepadan pastga tomchi doirani tepaga olib chiqib, asosiy chiziqqa kelib to'xtaydi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «Y», «K», «F», «Б» harflari o'xshash harflar turiga kiradimi?
2. Gulsimon «Y», «K», «F», «Б» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulsimon «Y», «K», «F», «Б» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?

4. Gulsimon «Ÿ», «Қ», «F», «Т» harflarini bir tekis yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Gulsimon «Ÿ», «Қ», «F», «Т» harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon «Ÿ», «Қ», «F», «Т» harflarini yozishni mashq qilish.

Gulsimon «Ÿ», «Қ», «F», «Т» harflarini kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

9-mavzu.

Gulsimon «Б», «И», «Ч», «Ш» harflarini yozish qoidalarini o'rganish

«Б» harfini «Т» harfidan farqi harfning chap tomondagi elementida. «Б» chizishda, «Т» harfini chizishda, birinchidan, «Т» harfning asosiy chizig'ini tepadan pastga to'g'ri qilib ingichkadan qalinlashib pastga ingichka chiziq chizib tushirilib, o'ng tomonga burib ingichkadan qalinlashadi va katta yarim doira chizilib, asosiy chiziqning o'rtasidan yuqoriroqda tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning chap tomonidan tepadan pastga tomchi doirani tepaga olib chiqib, asosiy chiziqqa kelib to'xtaydi.

«И» harfini chizishda, birinchidan, «И» harfning asosiy chiziqning chap tomonidan pastga tomchi doira chizig'ini ingichkadan tepaga olib chiqiladi, «И» harfning tepasidan ingichka chiziqdan qalinlashib harfning pastigacha tushib, o'ng tomonga ingichkalashtirib burib, tepadan qalin bo'lib tushayotgan ikkinchi chiziqqa ulanadi va o'ng tomonga yarim doira bo'lib to'xtaydi, «Ш» harfini «И» bo'lishi uchun unga pastdan dum ulanadi.

«Ғ» harfini chizishda, birinchidan, «Ғ» harfining asosiy chizig'ini chap tomonidan pastga tomchi doira chizig'ini ingichkadan boshlab tepaga olib chiqiladi, «Ғ» harfining tepasidan ingichka chiziqdan qalinlashib, harfning o'rtasigacha olib tushib, o'ng tomonga ingichkalashtirib burib, tepadan qalin bo'lib tushayotgan ikkinchi chiziqqa ulanadi va o'ng tomonga yarim doira bo'lib to'xtaydi.

«III» harfini chizishda, birinchidan, «III» harfining asosiy chizig'ini chap tomonidan pastga tomchi doira chizig'ini ingichkadan tepaga olib chiqiladi, «III» harfining tepasidan ingichka chiziqni qalinlashib, harfning o'rtasigacha olib tushib, chiziqni o'ng tomonga ingichkalashtirib burib, tepadan qalin bo'lib tushayotgan ikkinchi chiziqqa ulanadi va o'ng tomonga yarim doira bo'lib, uchinchi chiziqqa ulanadi. «III» harfining uchinchi chizig'i tepadan pastga qalin chiziq bo'lib tushib o'ng tomonga yarim doira bo'lib to'xtaydi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «B», «U», «Y», «III» harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «B», «U», «Y», «III» harflarini bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulsimon «B», «U», «Y», «III» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?

4. Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarini bir tekis yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarini chizishda qanday ashyolardan foydalaniladi?
7. Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarini yozishda qaysi qog'ozni qo'llash mumkin?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarining yozilish qoidalarini o'rganish.

Gulsimon «Б», «И», «У», «Ш» harflarini kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

10-mavzu.

Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarini yozish qoidalarini o'rganish

«Э» harfini chizishda, birinchidan, «Э» harfining chap tomonidan pastga tuxumsimon doirani tepaga olib chiqib, o'ng tomonga katta doirani ingichkadan harf o'rtasi qalinlashib, chap tomonga ingichkalashib yarim doira chizilib nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, asosiy chiziqning o'rtasiga gajakdor qilib chiziq chizib «Э» harfi yoziladi.

«Ю» harfini chizishda, birinchidan, «Ю» harfining tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan ingichkadan qalinlashib tomchi doira shakli orqali tepaga gorizontal chiziqqacha ingichka chiziqni qalinlashtirib, o'ng tomondan burilib, «Ю» harfining birinchi chizig'i asta-sekin ingichka chiziqdan qalinlashib chap

tomonga burilib nuqta bilan tugaydi, «IO» harfining pastki chiziqqa yetmasdan o'ng tomonidan ingichka chiziq bilan tepaga ko'tarib, yarim doirani ingichkadan qalinlashtirib, pastki chiziqqacha ingichkalashtirib, chap tomonga buriladi va uni asta-sekin qalinlashtirib, tepa chiziqqacha olib chiqiladi, kichkina doira shaklini hosil qilib, chap tomonga peroni burib, yana bir kichkina tomchi doira shakli hosil qilinadi. «IO» harfining asosiy chizig'i bilan ikkinchi «O» harfini o'rtasidan sal yuqoriroqdan ingichka chiziq bilan ulanadi.

«Я» harfini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziq chiziladi va chap tomonga yarim doira nuqta bilan tugatiladi. Ikkinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan boshlab, o'ng tomonga qarab qalin chiziq chizib, pastgacha tushiriladi va o'ng tomonga ingichka chiziq yarim doira chiziladi. «Я» harfining chap tomoniga katta doirani ingichkadan qalinlashtirib va yana ingichkalashtirib, tepaga olib chiqib, uni asosiy chiziqqa ulanadi.

The image shows the cursive letters 'IOЯ' in a large, elegant script. The 'I' is a simple vertical stroke with a small loop at the top. The 'O' is a large, circular loop that starts from the bottom of the 'I', goes around, and ends at the top. The 'Я' is a large, complex loop that starts from the bottom of the 'O', goes around, and ends at the top, with a small loop at the bottom.

Nazorat savollari

1. Gulsimon «Э», «IO», «Я» harflarining o'xshash harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Gulsimon «Э», «IO», «Я» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

3. Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
4. Gulsimon qirqma harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e’tibor berish lozim?
5. Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Gulsimon harflarni yozishda qanday perodan foydalansa bo‘ladi?
7. Gulsimon harflarni yozishda pero uzoq vaqt xizmat qilishi uchun nima qilish lozim?

Amaliy mashg‘ulotlar

Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarining yozilish qoidalarini o‘rganish.

Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarini kompozitsion to‘g‘ri joylashtirishni o‘rganish.

11-mavzu.

Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining yozilish qoidalarini o‘rganish

«1» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog‘ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontall bo‘lgan ikkita chiziqlar chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontall chiziqdan peroning yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziqdan boshlab asta-sekin pastga qalin bo‘lib tushadi. Ikkinchidan, «1» raqamining chap tomonidan ingichka chiziq bilan tepadagi gorizontall chiziq-qacha olib chiqib asosiy chiziqqa ulanadi.

«2» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog‘ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontall bo‘lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «2» raqamini chap tomonidan ingichka chiziq bilan peroni yon tomoni qiyalikda ingichka chiziqdan boshlab yarim

doira qilib tepaga ko'tariladi va asta-sekin pastga qalin bo'lgan chiziqni, tepadagi gorizontal chiziqqa borguncha yana chiziq ingichkalashib, o'ng tomonga buriladi va asta qalinlashtirib, peroning yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziq chiziladi va chap tomonga yarim doirani hosil qilib, pastki chiziqqacha tushadi. Uchinchidan, ingichka chiziq pastdagi gorizontal chiziqdan boshlab o'ng tomonga qarab, ingichka chiziq xiyol tepaga ko'tarilib, qalin chiziq chizib pastgacha tushiriladi va o'ng tomonga ingichka chiziq yarim doira chizib tugatiladi.

«3» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziqlar chiziladi. «3» raqami ikkita dumaloq shakldan iborat bo'lib, tepadagi shakl kichik pastdagisi esa kattaroq, «3» raqamini tepadagi kichik doirani chap tomonidan ingichka chiziq bilan peroni yon tomoni qiyaroq qilib ingichka chiziqdan boshlab, yarim doira qilib tepaga ko'tariladi va asta-sekin pastga qalin bo'lib, «3» raqaminining o'rtasidan teparoqda to'xtaydi, ikkinchi katta doira chizig'i yana ingichkalashib, o'ng tomonga burilib, asta pero chizig'i qalinlashib, pastdagi gorizontal chiziqdan boshlab, chap tomonga ingichka chiziq yarim doira qilib chiziladi va xiyol tepaga ko'tarilib qalin chiziq ingichkalashib, yarim doira chizib tugatiladi.

«4» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan xiyol pastroqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziqdan boshlab, asta-sekin pastga qalin bo'lib tushadi. Ikkinchidan, «4» raqamining chap tomonidan ingichka chiziq bilan tepadagi gorizontal chiziqdan pastga ingichka chiziq «4» raqaminining o'rtasidan pasroqqacha tushib, uni o'ng tomonga burilib, asosiy chiziqni kesib o'tib, xiyol tepaga buriladi va kichik nuqta bilan tugaydi.

«5» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qogʻozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal boʻlgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «5» raqamini tepadagi gorizontal oʻng tomonidan ingichka chiziqni qalinlashtirib, peroni past tomonga xiyol qiyalashtiriladi va ingichka chiziq bilan raqamning oʻrtasidan teparoqda toʻxtatib, uni oʻng tomonga burib katta doirani ingichka chiziqdan asta-sekin qalinlashib, peroni pastdagi gorizontal chiziqdan olib tushiladi va chap tomonga ingichka chiziq yarim doira boʻlib, xiyol tepaga koʻtariladi, keyin qalin chiziq ingichkalashib, yarim doira chizigʻini hosil qiladi.



Nazorat savollari

1. Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining qaysi tarafi ochiq hisoblanadi?
2. Gulsimon «2» raqamining teskarisi qaysi raqamga oʻxshash?
3. Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini yozishda qanday asboblardan foydalaniladi?
5. Gulsimon raqamlarning bir tekis yozilishida nimalarga eʼtibor berish lozim?
6. Gulsimon «4» raqamining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
7. Gulsimon raqamlarni yozishda qanday usul va uslublardan foydalansa boʻladi?

Amaliy mashgʻulotlar

Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining chiroyli yozilish qoidalarini mashq qilish.

Gulsimon raqamlarni kompozitsion toʻgʻri joylashtirishni oʻrganish.

12-mavzu.

Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozish qoidalarini oʻrganish

«6» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qogʻozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal boʻlgan ikkita chiziq chiziladi. «6» raqamini tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan pastga ingichka chiziqdan oʻrtasi qalinlashib pastga ingichkalashib, oʻng tomonga burib tepaga qalinlashib «6» raqamining oʻrtasidan xiyol balandroqdan ingichkalashadi va asosiy chiziqqa ulanadi.

«7» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qogʻozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal boʻlgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «7» raqamini chap tomonidan ingichka chiziqdan kichkina doira bilan tepaga chiziqni qalinlashtirib chiqarib, ozroq pastga tushib, yana ingichkalashib, tepada toʻxtaydi. Ikkinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan peroni yon tomoni bilan 30 gradus qiyalikda ingichka chiziqdan boshlab, asta-sekin pastga qalin boʻlib, chiziqni oʻng tomonga burib, pastdagi gorizontal chiziqqacha tushadi.

«8» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qogʻozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal boʻlgan ikkita chiziq chiziladi. «8» raqami ikkita dumaloq shakldan iborat boʻlib, tepadagi shakl kichik, pastdagisi kattaroq boʻladi, «8» raqamini tepadagi kichik doirani chap tomonidan ingichka chiziq bilan peroni yon tomoni

qiyaligida ingichka chiziqdan boshlab, yarim doira chizig'ini qalinlashtirib, o'ng tomonga burib, ikkinchi pastki doiraga ulanib pastki chiziqqacha tushib, chap tomonga burib, tepaga ko'tariladi va asta-sekin uni qalinlashtirib, «8» raqaminining o'rtasidan teparog'idan yana ingichkalashib, ikkinchi kichik doiraning o'ng tomoniga o'tadi va tepadagi ingichka chiziq yarim doira shaklda bo'lib, xiyol tepaga ko'tariladi, keyingi bosqich qalin chiziq ingichkalashib, yarim doira chiziladi.

«9» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. «9» raqamini tepa gorizontal chiziqning o'ng tomonidan pastga ingichka chiziqning o'rtasi qalinlashib, asta-sekin pastga ingichkalashib, chap tomonga buriladi va pastki chiziqqa tushib to'xtaydi. «9» raqamining o'rtasidan xiyol balandroqdan ingichka chiziq chap tomonga yarim doira shaklida ohista qalinlashadi va tepa chiziqqa chiqquncha yana ingichkalashib, asosiy chiziqqa ulanadi.

«0» raqamini maxsus pero bilan yozishda, qog'ozga ikkita harf balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. «0» raqamini tepa gorizontal chiziqning chap tomonidan pastga ingichka chiziqning o'rtasi qalinlashib, pastga tushguncha yana ingichkalashib, o'ng tomonga ohista burib, «0» raqamining o'rtasi qalinlashib, tepa gorizontal chiziqqa chiqquncha ingichkalashadi va chap tomondagi asosiy chiziqqa ulanadi.

The image displays five handwritten digits in a cursive script: 6, 7, 8, 9, and 0. Each digit is formed with fluid, connected strokes, characteristic of a calligraphic or cursive handwriting style. The digits are arranged horizontally and are rendered in a dark, bold ink.

Nazorat savollari

1. Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarining qaysi tarafi ochiq hisoblanadi?
2. Gulsimon «6» raqamining teskarisi qaysi raqam hisoblanadi?
3. Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozishda qanday asbobdan foydalanadi?
5. Gulsimon raqamlarni bir tekis yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Gulsimon «7» raqamining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
7. Gulsimon raqamlarni yozishda qanday bo'yoqlardan foydalansa bo'ladi?

Amaliy mashg'ulotlar

Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozishni mashq qilish.

Gulsimon raqamlarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

13-mavzu.

Gulsimon barcha harflarni yozish qoidalarini o'rganish

Gulsimon «A»dan «Я»gacha bo'lgan harflarni erinmay yana bir bor qayta yozib, ularni bir-biridan qanday farqlanishini qunt bilan o'rganib chiqiladi. Harflarni to'g'ri, risoladagidek yozishda birma-bir barcha harflarni erinmasdan, uni yozishda qayerida peroni qalinlashtirish kerak, qaysi joyida uni ingichka chizish mumkin, harflarni yozish paytida qalindan ingichkaga o'tkazish

davrida peroni qanday yurgizishni juda ko‘p marta mashq qilish lozim, chunki peroni qayerda botirib yozish kerak, qayerda undan ingichka chiziq chizish lozimligini husnixatning asl nusxasiga qarab, ko‘plab mashq qilib, bajargan ishlarini ustoziga ko‘rsatib, uning ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlariga amal qilish lozim.

Gulsimon harflarni yozishda har bir harfning o‘ziga xos ko‘rinish, yozilish uslubi, uning proporsiyasi, shakl-shamoyilidan kelib chiqib, qunt bilan o‘rganib chiqish talab etiladi. Gulsimon harflardan so‘z tuzishda bosh harf qanday kattalikda bo‘lishi lozim, kichik harflar unga nisbatan qanday bo‘lishi kerak. Gulsimon harflardan yozilgan san’at asari, go‘yoki ajoyib mumtoz musiqa kuyiga o‘xshaydi, ohanglar bir balandga ko‘tarilib, bir pastga tushishi, yoqimli mumtoz simfoniya asariga o‘xshab, tinglovchini o‘ziga jalb etgandek, chiroyli yozilgan gulsimon husnixat ham tomoshabinni bir qarashda o‘ziga jalb etadi.

Barcha harflarni to‘g‘ri yozishni o‘rganishda asl nusxaga o‘xshatish uchun juda ko‘plab qoralamalar, xomakilar yozishni mashq qilish kerak. O‘quvchi o‘z malaka, ko‘nikma va tajribasini faqat amaliy mashg‘ulotlar bajarish orqali oshirishi va yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Gulsimon harflar fanining rivojlanish tarixini so‘zlab bering.
2. Nima uchun shriftlar guruhlarga ajratiladi?
3. Husnixat fanining predmeti nimani o‘rgatadi?
4. Husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi qanday?
5. Gulsimon harflarni to‘g‘ri yozishda nimalarga e’tibor berish lozim?
6. Gulsimon harflarni yozishda qo‘llaniladigan usullar qaysilar?
7. Gulsimon harflarning yozuvi boshqa husnixat turlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Amaliy mashg'ulot

Gulsimon harflarni to'g'ri yozish qoidalariga rioya qilish.

Gulsimon harflar bilan ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.

14–15-mavzular.

Gulsimon harflarga kompozitsiya qidirish

Barcha harflarni to'g'ri yozishni o'rgangandan so'ng, keyingi bosqichda gulsimon harflardan kompozitsiya qidirish jarayoni boshlanadi. Avvalambor vaqtni va ashyolarni tejash maqsadida A4 format qog'ozga 5×7 sm hajmda vertikal va gorizont tal to'g'ri to'rtburchak shakllarga taqsimlab bo'lib chiqiladi. Shu bo'lingan to'rtburchaklar ichiga harflarni turli xil ko'rinishda, bir-biriga o'xshamagan birinchi fikr va g'oyalarni har xil shakllarda joylashtirib chiqiladi.

Gulsimon harflarga kompozitsiya qidirish asosli va ishonchli bo'lishi uchun juda ko'p badiiy adabiyotlardan, arxiv ashyolardan, qadimiy qo'lyozmalardan, tabrik xatlardan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hadislardan, rivoyatlarni bir necha bor qunt va e'tibor berib o'qib o'rganib chiqiladi va ustozlari bilan maslahatlashib, uning ko'rsatma, tavsiyalarini olgandan so'ng, ishlash uchun tavsiya etiladi.

Gulsimon harflarga kompozitsiya qidirishda turli grafik ashyolari tush, suvda eritib ishlatiladigan guash, akril, tempera bo'yoqlari, bundan tashqari 0,5 mm li geliyli ruchkalarning qora rangligidan foydalansa ham bo'ladi. Gulsimon harflarga kompozitsiya qidirishda qog'ozni to'g'ri tanlash kerak, chunki pero bilan husnixat yozganda qog'oz (glansiviy) silliqroq bo'lgani ma'qul, chunki silliq qog'ozga pero bilan yozganda uni qiynalmay ravon yurishini ta'minlaydi. Husnixatga xomaki ishlashda suvda

yaxshi eriydigan bo'yoqlarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Husnixatga qog'oz tanlashda suvni tez shimmaydigan va ranglar yoyilib ketmaydigan navlarini tanlash lozim. Qalam, retush va boshqa ashyolarda xomaki ishlashda oddiy yupqa A4 qog'ozga ishlasa ham bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun shriftlar guruhlariga ajratiladi?
2. Gulsimon husnixatga kompozitsiya kerakmi?
3. Gulsimon husnixatda xomaki nima uchun qidiriladi?
4. Gulsimon husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Gulsimon husnixatda qo'llaniladigan kompozitsiya qanday bo'lishi lozim?
6. Gulsimon husnixatning boshqalaridan farqi nimada?
7. Gulsimon harflarni yozishda amaliy tajriba talab qilinadimi?

Amaliy mashg'ulot

Gulsimon kompozitsiya ishlash qoidalariga rioya qilish.

Gulsimon harflarni ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.

16–17-mavzular.

Gulsimon harflarni kartonda ishlash

Topshiriq ikki xil usulda, ya'ni foni oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Kompozitsiya jihatdan topilgan husnixat eskizini o'qituvchi tasdiqlab bergandan so'ng, uni 50×70 sm o'lchamda olingan kartonga, ya'ni millimetrovkaga tasdiqlangan xomaki nusxasini asl nusxaga harflarni to'g'rilab joylashtirib chiqiladi. Xomakini kattalashtirish

jarayonida harflarni to'g'ri yozish qoidalariga to'liq rioya qilish lozim. Harflardan so'z yozishda har bir harf orasidagi masofani harflar qanday shaklda kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar jumla yozadigan bo'lsak, har bir so'z tugagandan so'ng, uning orasida eng kamida bir harfning kengligicha masofa tashlab yozish tavsiya etiladi.

O'qituvchi tomonidan tasdiqlab berilgan xomakini kartonga joylashtirishda, asosan kompozitsiyaning ikki yon qismi, ya'ni o'ng, chap tomoni va planshetni tepa qismidan bir xil masofa qoldiriladi. Kartonning pastki qismidan esa ularga nisbatan ko'proq joy qoldirib yozilsa, kompozitsiya chiroyli joylashadi. Kartonning asosiy vazifasi harflarni planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirish, barcha izlanishlar, qidiruv jarayonlaridagi barcha qiyinchiliklar, karton qoralamalar tugatilib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin uni yana bir bor e'tibor bilan ko'zdan o'tkazib, xato va kamchiliklari yaxshilab tekshirib olinadi.

Kartonning o'lchami asl nusxaning o'lchami bilan teng bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Karton qanday o'lchamda bo'lishi lozim?
2. Karton nima uchun kerak?
3. Kartonga xomakini o'tkazishda masshtabga rioya qilinadimi?
4. Nima uchun husnixat harflari turlarga va variantlarga bo'linadi?
5. Broshyura va kitoblardagi husnixatning farqi nimada?
6. Qanday husnixat elementlarini bilasiz?
7. Husnixatda birinchi va ikkinchi darajali elementlar qaysilar hisoblanadi?

Amaliy mashgʻulot

Kartonda ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikki darajali elementlarni ajrata olish.

18–19-mavzular.

Asl nusxani ishlash

Kompozitsion jihatdan topilgan qirqma husnixat eskizini 50×70 sm oʻlchamda boʻlgan kartonda, yaʼni millimetrovkada masshtabga mos ravishda eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga toʻliq rioya qilinib, risoladagidek toʻgʻri joylashtirilgandan soʻng, kartondagi eskizni asl nusxadagi planshetga oʻtkazishda xomaki kartonning orqa tomonini yumshoq qalam bilan boʻyab chiqiladi. Boʻyalgan kartonni asl nusxa (planshet)ga qimirlamaydigan qilib mahkamlab skochlanadi. Planshetga husnixatni aniqlashtirib chizgʻich yordamida asl nusxaga tushirib olinadi, oʻlchami chizib chiqiladi. Asl nusxaning toza va ozoda boʻlishi uchun chizilgan husnixatning ustidan suyuq qilib oq guashni tekis qilib boʻyaladi. Bu ishni qilishdan maqsad asl nusxa tugagandan keyin surkalgan joylarini oq guash bilan boʻyalganda qogʻoz oqarib yoki sargʻayib qolmaydi. Guashni suyuq qilib boʻyalgandan keyin uni obdan qurishi poylanadi, guash obdan qurigandan soʻng qalam bilan chizilgan husnixatni guash, tempera yoki akril boʻyogʻi bilan boʻyab chiqiladi. Chiziqlar obdan qurigandan soʻng moʻyqalam bilan husnixat ichlari guashga ozgina PVA yelimi qoʻshib boʻyalsa, qorishma mustahkam boʻladi va uzoq muddat saqlanadi. Harflarni boʻyab boʻlgandan soʻng eng nozik ishlari qoladi. Har bir harflarning uchlari va tag qismi, gorizontal va vertikal chiziqlarni aniqlashtirib risoladagidek boʻlguncha qiyomiga keltirib ishlanadi.

Gulsimon harflarda husnixat yozishda qog‘ozning ahamiyati juda katta, chunki bu husnixat turi tomoshabin e‘tiborini o‘ziga jalb qilishida qog‘oz rangini tanlangan mavzuga mos bo‘lishi talab etiladi.

Qog‘ozni eski qadimiy bo‘lishi uchun unga tus beriladi. Qog‘ozga rang berishda kofe yoki qora choyni suyuq qilib beriladi, qancha ko‘p berilsa, tusi shuncha to‘q bo‘lib boradi.

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo‘lingandan so‘ng ularni yana bir bor ko‘zdan o‘tkazib, tuzatadigan joylarini nozik mo‘yqalam bilan to‘g‘rilab tekislanadi, surkalgan joylarini oq guash bilan tozalab bo‘yaladi.



Ш Р И Ф Т Ы В Е Н Е Р А

А Б В Г Д Е Ё Ж З И Й К Л М
Н О Р С Т У Ф Х Ц Ч Ш Щ
Ъ Ы Ь Э Ю Я Ё Ъ Ы

Аа Бб Вв Гг Дд Ее Ёё

Жж Зз Ии Йй Кк Лл

Мм Нн Оо Пп Рр Сс

Тт Уу Фф Хх Цц Чч

Шш Щщ Ъ ъ Ы ы Ээ Юю Яя

Очень красивые рукописные шрифты

Очень красивые рукописные шрифты

Очень красивые рукописные шрифты

Очень красивые рукописные шрифты

Очень красивые рукописные шрифты

Очень красивые рукописные шрифты



Красивые шрифты

Красивые шрифты

Красивые шрифты

Красивые шрифты

Красивые шрифты

Красивые шрифты

Красивые шрифты

Nazorat savollari

1. Gulsimon harflarning qanday husnixat turini yoza olasiz?
2. Gulsimon harflarni husnixat yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Gulsimon harflarning so'zlari orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Gulsimon harflarning harflari orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Gulsimon harflarning qoralama eskizlari kerakmi?
6. Gulsimon harflarni yozishda kompozitsiya muhimmi?
7. Gulsimon harflar bilan yozishda kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
8. Gulsimon harflarni yozishda eskiz kartoni kerakmi?
9. Gulsimon harflarning asl nusxasini ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Gulsimon harflarning asl nusxasini ishlash qoidalariga rioya qilish.

Gulsimon harflarning asl nusxasini tugata bilish.

20-mavzu.

Asl nusxani ko'rikka tayyorlash

Barcha ishlar tugallangandan so'ng planshetni ehtiyot qilib qog'oz bilan o'rab qo'yiladi. Chunki guash bilan ishlangan ishlar juda nozik bo'lib, tezda kir bo'lishi yoki boshqa narsalar tegib ketsa, tez kirlanishi va buzilishi mumkin. Tugatilgan ish ko'rik hay'at a'zolariga baholash uchun taqdim etiladi.

Nazorat savollari

1. Asl nusxani ishlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Asl nusxani ishlashda so'zlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Asl nusxani ishlashda qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
6. Asl nusxani ishlashda kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
7. Asl nusxaning kompozitsiyasini ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
8. Asl nusxani ishlashda nima uchun eskiz karton qilinadi?

Amaliy mashg'ulot

Asl nusxani ishlash qoidalariga rioya qilish.

Asl nusxani ko'rikka tayyorlash.

II KURS. I SEMESTR (16 SOAT)

1-mavzu. Akademik harflar

Akademik harflarning asosiy qismi simmetrik va asimmetrik harflardir. Simmetriya – bu harflar umumiy shaklining ichki tomoni tengligidir. Alifbodagi harflar simmetriya va asimmetriyaga bo‘linadi. (Bu bo‘linish shartlidir, chunki asimmetriya ularga nisbatan olingan va harflarning chizmasiga bog‘liq.)

Simmetrik harflar: «А», «Д», «Ж», «Л», «М», «Н», «О», «Т», «Ф», «Х», «Ш», «Щ», «Ц».

Asimmetrik harflar ochiq va yo‘nalishi o‘ng tomonda: «Б», «В», «Г», «Е», «К», «Р», «С», «б», «в», «л», «ю».

Asimmetrik harflar ochiq va yo‘nalishi chap tomonda: «З», «У», «У», «Э», «Я».

Simmetriya sharoiti va turli yo‘nalishdagi harflar chizmasi qo‘shimcha belgi va tugallanadigan elementlari, uning shakli va to‘q-ochligiga bog‘liq. Kirill alifbosi 36 ta harflardan iborat bo‘lib, ular to‘rt qismga bo‘linadi:

Ikki tomoni ochiq harflar: «А», «Ж», «З», «О», «С», «Т», «У», «Ф», «Х», «Э», «Ў», «Н».

O‘ng tomoni ochiq harflar: «Б», «В», «Г», «Е», «К», «Р», «С», «б», «в», «л», «ю».

Chap tomoni ochiq harflar: «Д», «Л», «У», «Я».

Ikki tomoni yopiq harflar: «И», «Й», «М», «Н», «П», «Ш», «Щ», «Ы».

O'rta gorizontal chiziqda bo'lgan harflar bir chiziqda konstruktiv ritm asosida yoziladi.

Bunday harflar («A», «P», «Я», «Б», «В», «Е», «Ж», «З», «К», «Н», «Ч», «У», «Ь», «Ъ», «Э», «Я», «Ю»))lardagi o'rta chiziqqa qo'shimcha yoki undan sal yuqoriroq bo'lishi harflarning bir-biriga nisbatan tengligini saqlash maqsadida yuqoriroq yoki pastroq chiziladi.

Pastki qismi ochiq harflardan «A», «P», «Я», «Ч», «У» o'rtasidan ulanuvchi chizig'ini o'rtadagi chiziqdan pastroqqa tushiriladi. Chunki ularning proporsiyasini asl nusxasiga maksimal tarzida tenglashtirish maqsadida chiziladi.

Akademik harflardagi «З», «О», «С», «Е», «Ю», «А» harflarning bir qatoridagi chiziqqa joylashishi, yozilishidagi ritmi, undan tashqari harflar ketma-ket kelgandagi bir-biriga optik ta'siri, harflarning bir tekislikda turli shakllarda konstruksiyasi, dumaloq va o'ta uchli kelishi, hamda ularning barchasi to'g'ri joylashishida qo'shni qatordagi harflarning to'g'riburchak shakli, uning hajmi va balandligi bilan belgilanadi. Harflarni o'ziga qarab tepa yoki past chiziqlardan chizish mumkin. Bu nima uchun qilinadi? Optik jihatdan barcha harflarning umumiy balandligini bir xil va teng ko'rinishda bo'lishini ta'minlashda ayrim «З», «О», «С», «Е», «Ю» harflarini chiziqdan bir millimetr yuqoridan va pastdan ozgina chiqarib yozish tavsiya etiladi.

Bu bir qatordagi barcha harflarning umumiy balandligi optik jihatdan bir xil ko'rinishi uchun qilinadi. Rassom bu vazifani aniq bajarishi uchun barcha dumaloq va o'tkir uchli harflar chiziq bilan teng bo'lsa, u tomoshabinga balandligi jihatdan past ko'rinadi, asosiy chiziqlar go'yoki, ikkita planga o'tganday ko'rinadi.

Lotin alifbosida 29 ta harf bo'lib, ular ham to'rtga bo'linadi.

Ikki tomoni ochiq harflar: «A», «V», «G», «Z», «Y», «O», «S», «T», «X», «CH», «SH», «O'», «Q», «G'».

O‘ng tomoni ochiq harflar: «B», «D», «E», «K», «L», «P», «R», «F», «Ng».

Chap tomoni ochiq harflar: «J».

Ikki tomoni yopiq harflar: «I», «M», «N», «U», «N».

Bu harflarni to‘rt qismga bo‘lishdan maqsad, ular orqali so‘z yozishda harflar orasidagi masofalardan to‘g‘ri foydalanishda qo‘l keladi. Faqat ikki tomoni yopiq bo‘lgan harflar orasidagi masofani bir xil qilib tashlab yozish mumkin, qolgan uch ko‘rinishdagi harflar bilan yozishda, harflar orasidagi masofani bir-biriga moslashtirib, yozish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Kirill alifbosida harflar necha turga bo‘linadi?
2. Chap tomoni ochiq harflar qaysilar?
3. O‘ng tomoni ochiq harflar qaysilar?
4. Ikki tomoni ochiq harflar qaysilar?
5. Ikki tomoni yopiq harflar qaysilar?
6. So‘z yozishda nimalarga e‘tibor berish lozim?
7. O‘zbek tilida kirill alifbosida nechta harf bor?

Amaliy mashg‘ulot

1. Amalda «ganir» so‘zini yozib ko‘rish.
2. Harflarni shakllarga qarab ajratish.
3. Harflardan so‘z yozish.

2-mavzu.

Akademik husnixatdan nusxa olish

Husnixat fanidan beriladigan topshiriq «Akademik husnixatni yozish qoidalarini, harflarning turli shakl, hajmi, bo‘yi va enining


bir-biriga nisbati, ularning to'g'ri joylashishi, bir tekisda ravon o'qilishi, ular orasidagi masofaning to'g'ri yozilishi o'rganiladi. O'quvchilar birinchi topshiriq sifatida Antik harfdan 50×70 plan-shetga kompozitsion joylashtirishni san'at asari sifatida ishlashni o'rganadilar.

Akademik harflarni to'g'ri yozish qoidalarini asta-sekin o'rganib boramiz. «A», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», Ё» birinchi darsda mana shu yettita harfni to'g'ri yozish qoidalarini o'rganamiz. Bu yettita harf uch qismga bo'linadi. Ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq va chap tomoni ochiq harflardan iborat. Harflarni qoidaga rioya qilib yozishda millimetrovka qog'oz, plastmassa va temir chizg'ich, serkul, qattiq va yumshoq qalamlar, o'chirg'ich va boshqa ashyolardan foydalaniladi. Harflarning aslidan nusxa olishda ularni avvalambor masshtabga olib, kichiklashtirib ishlashni o'rganamiz.

Akademik harfdagi «A» harfi ikki tomoni ochiq harf turiga mansub, uni bo'yiga nisbatan pastki asos qismi kengroq olinsa, harf chiroyli chiqadi.

Akademik harfdagi «A» harfining piramida shakliga o'xshash bo'lib, tagi keng, tepasi bir nuqtaga borib tutashadi. «A» harfining chap va o'ng chiziqlari ularni o'rtasidan bog'lovchi chiziq bilan birlashtirilgan, chap va birlashtirilgan chiziqlar bir xil qalinlikda bo'lib, o'ng tomonidagi chizig'i ularga nisbatan uch va undan ortiq qalinlikda bo'ladi. Uning asosida hoshiyasi, ya'ni tugallovchi gorizontaal chiziq bilan ishlov beriladi.

Akademik harfdagi «Б» va «В» harflar shakl va hajmi borasida bir-biriga yaqin harflar, ikkalasi ham o'ng tomoni ochiq harflar, ularni chizishda bo'yiga nisbatan eniga kengroq olib chizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. «Б» va «В» harflarini o'ng tomonidagi pastki dumalog'ini bo'yiga nisbatan yuqoriroqdan olib chizilsa, bu harflarning proporsiyasi to'g'ri olingan bo'ladi.



Akademik harfidagi «Г», «Е» va «Ё» harflari o'ng tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bu harflar o'xshash bo'lib, bo'yi va eni bir xil harflardir. Bu harflarning bo'yiga nisbatan eni ensizdir. «Г» harfining tepa qismida gorizontal chizig'i bo'lsa, «Е», «Ё»ning o'rta va pastki gorizontal chiziqlari bilan farqlanadi. O'rtadagi chiziqni vertikal chiziqqa nisbatan o'rtadan sal balandroq chizish maqsadga muvofiq bo'ladi. «Г», «Ё» va «Е», «П» harflarning vertikal chiziqlari qalin, gorizontal chiziqlari esa ingichka chiziqda bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Akademik husnixatni yozish qoidalari nimalardan iborat?

2. Akademik harflarning turli shakllarini aniqlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
3. Akademik harflarning hajmi, bo'yi, enini bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtira bilish.
4. Akademik harflarning bir tekisda o'qilishiga e'tibor berish.
5. Akademik harflarning orasidagi masofani to'g'ri yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Akademik harflarni aslidan nusxa olishda qanday usuldan foydalansa bo'ladi?

Amaliy mashg'ulotlar

Akademik «А», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» harflarni to'g'ri yozishni o'rganish.

Akademik harflarni 50×70 planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirishni mashq qilish.


3-mavzu.

Akademik «Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З» harflarini yozish qoidalari

Akademik «Д» va «Л» harflar chap tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bu harflarning o'ng tomonidagi vertikal chizig'i qalin bo'lib, tepadan pastga tushadi va chap tomonidagisi esa ingichka chiziqlar bilan chiziladi. «Л» harfida nisbatan «Д» harfining ostki qismi kengroq bo'lib, chiziqning pastki qismiga ikkita hoshiya beriladi.

Akademik «Ж», «К» va «Қ» harflari o'xshash harflar bo'lib, «Ж» harfi ikki tomoni ochiq, «К» harfi o'ng tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Akademik «Ж» harfi bo'yiga nisbatan keng harflar toifasiga kiradi, uning o'rtadagi vertikal chizig'i va ikki pastki

yoniga tushadigan chiziqlari qalin bo‘lib, qolgan ikkita tepaga chiziladigan chiziqlari ingichka bo‘ladi. Akademik «Ж» harfining asosiy vertikal chizig‘idan o‘ng tomoni «K» harfining o‘zidir. «K» harfining bo‘yiga nisbatan eni kengroq chizilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Akademik «K» harfidan «Қ» harfining farqi o‘ng tomondagi dum qismidir. Akademik «3» harfi ikkita dumaloq shakllardan iborat, pastki dumalog‘i tepaga nisbatan eniga va bo‘yiga kengroq chiziladi, tepadagi dumaloq pastdagi dumaloqqa nisbatan kichikroq chiziladi. «3» harfini chizishda sirkuldan foydalaniladi.



Nazorat savollari

1. Akademik «Д» va «Л» harflarining qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «Ж» harfiga o'xshash harfni ayting.
3. Akademik «З» harfini yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Akademik harflarning bir tekis yozilishida qanday qoidalarga ahamiyat berish lozim?
5. Akademik «К» harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
6. Akademik harflarni to'g'ri yozish qoidalari qanday?
7. Akademik «К» harfining «Қ» dan farqi nimada?

Amaliy mashg'ulotlar






Akademik «Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З», harflarini yozish qoidalarini o'rganish.

Akademik harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

4-mavzu.

Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflarini yozish qoidalari

Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflari o'xshash harflar, bu harflar ikki tomoni yopiq harflar turiga kiradi, ularning hajmi deyarli bir xil, faqat ikkita vertikal chiziqlar va ularning orasidagi ingichka bog'lovchi chiziqlari qanday joylashganligi bilan farqlanadi. Ularning bo'yiga nisbatan eni sal kengroq chiziladi.



Nazorat savollari

1. Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflari qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
4. Akademik harflarning bir tekis yozilishida nimalarga ahamiyat berish lozim?
5. Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflarini chizishda qaysi ashyolardan foydalaniladi?
6. Akademik «И» bilan «Й»ning farqi nimada?

Amaliy mashgʻulotlar

Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflarini yozish qoidalarini oʻrganish.

Akademik harflarni kompozitsion toʻgʻri joylashtirishni oʻrganish.




5-mavzu.

Akademik «М», «Ш», «Щ» harflarini yozish qoidalari

Akademik «М», «Ш», «Щ» harflari hajmi deyarli bir xil harflardir. Ularning ikki tomoni yopiq harflar turiga kiradi.

Akademik «Щ», «Ш», «М» harflarining boʻyiga nisbatan enining qalinligi sal kengroq chiziladi.

Akademik «М» harfi birinchi chap tomondagi vertikal chizigʻi ingichka boʻlib, toʻrtinchi vertikal chizigʻi qalin, ikkita vertikal chiziqlarining oʻrtasida joylashgan ikkita qiya chiziqlarining birinchisi qalin boʻlib, tepadan harfning oʻrtadagi markaziga tushadi, ikkinchisi ingichka chiziq markazdan tepaga chiqib toʻrtinchi chiziqqa ulanib «М» yoziladi.



Akademik «III», «III» harflari uchta vertikal qalin chiziqlardan tashkil topgan bo‘lib, pastdagi ularni birlashtirib turuvchi ingichka chiziq bilan birlashtiriladi.

Nazorat savollari

1. Akademik «M», «III», «III» harflari o‘xshash bo‘lib, ular qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «M», «III», «III» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Akademik «M», «III», «III» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
4. Akademik harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e‘tibor berish lozim?
5. Akademik «M», «III», «III» harflarini yozishda qaysi ashyolarni qo‘llasa bo‘ladi?
6. Akademik «III» va «III» harflarining farqi nimada?

Amaliy mashg‘ulotlar

Akademik «M», «III», «III» harflarini to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rganish.


Akademik harflarni kompozitsion to‘g‘ri joylashtirishni o‘rganish.

6-mavzu.

Akademik «O», «C», «Э» harflarini yozish qoidalari

Akademik «O», «C», «Э» harflari bir-biriga o‘xshash harflar hisoblanadi. Bu harflar ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi. Bunga o‘xshash yana o‘ng tomoni ochiq «IO» harfini kirgizish mumkin. Bu barcha harflarni sirkul yordamida chizish mumkin.

Akademik «O», «C», «Ə» harflari hajmi bir-birlariga yaqin bo'lsa-da, «IO» harfi esa ularga nisbatan eni kengroq bo'ladi.



Akademik «C» harfining teskarisi «Ə» harfiga o'xshaydi, faqat o'rtadagi belbog'i bilan farqlanadi. «O» harfi bo'yiga nisbatan eni keng harflar turiga kiradi. «O» harfi ikkita parallel chiziqdan bir mm. xiyol chiqarib chizilsa, yaxshi ko'rinadi. «O» harfini ikki chetidagi chiziqlari keng, ularning o'rtasidagi birlashadigan chizig'iga qadar ingichkalashib boradi.

Nazorat savollari

1. Akademik «O», «C», «Ə» harflari o'xshash harflar, ular qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «C» harfining teskarisi qaysi harfga o'xshash?
3. Akademik «O», «C», «Ə» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Akademik «O», «C», «Ə» harflarini yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Akademik «O», «C», «Ə» harflarini yozishda ular orasidagi masofa qanday bo'lishi kerak?

6. Akademik harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
7. Akademik «IO» harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotlar


Akademik «O», «C», «Э» harflarini yozish qoidalarini o'rganish.

Akademik harflarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

7-mavzu.

Akademik «P», «Т», «Б», «Я» harflarini yozish qoidalari

Akademik «P», «Т», «Б», «Я» harflari o'xshash harflar. «P», «Т», «Б» harflari o'ng tomoni ochiq bo'lsa, «Я» harfi chap tomoni ochiqdir. «P» va «Я» harflarini tepadagi doira dumaloq qismi vertikal chiziqqa nisbatan o'rtadan yuqorida bo'lsa, «Т», «Б» va «Ы» harflarining pastdan vertikal chiziqqa nisbatan o'rtadan yuqoriroqda doira dumaloqlari chiziladi.



Nazorat savollari

1. Akademik «P», «Б», «б», «Я» harflari o'xshash harflar, ular qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «Я» harfining teskarisi qaysi harfga o'xshaydi?
3. Akademik «P», «Б», «б», «Я» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Akademik «P», «Б», «б», «Я» harflarini yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Akademik «P», «Б», «б», «Я» harflarini yozganda ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
6. Akademik harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
7. Akademik «Б» harfi qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotlar

Akademik «P», «Б», «б», «Я» harflarini to'g'ri yozish qoidalarini o'rganish.

Akademik harflarni kompozitsion joylashtirishni o'rganish.

8-mavzu.


Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Ф», «X» harflarini yozish qoidalari

Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «F», «X» harflari ikki tomoni ochiq harflar turiga kiradi. «T» harfi «Г» harfiga o'xshash bo'lib, faqat gorizontal ingichka chizig'ini chap tomonga takroran qayta chizilsa «T» harfi paydo bo'ladi.

Akademik «Y» harfining tepa qismi kengroq, birinchi qiya chizig'i qalin, ikkinchi qiya chizig'i ingichka bo'ladi. «Y» harfining «Ÿ»dan farqi tepa qismidagi elementida.

Akademik «Φ» harfi o'rtadagi asosiy vertikal chizig'i qalin bo'lib, uning ikki tomonidan dumaloq shakllari bir xil aylana chiziladi. Faqat aylana vertikal chiziqning tepasiga qaraganda pastdan ko'proq joy tashlab yozilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Akademik «X» harfi ikki uchburchak shakldan iborat bo'lib, tepa va past qismlari bo'ladi, tepa qismiga nisbatan pastki qismi kengroq va kattaroq bo'ladi. Chapdan o'ngga qiya bo'lib chiziladigan chiziq qalin, o'ngdan chapga chiziladigan qiya chiziq ingichka bo'ladi. «X» harfining «X» dan farqi uning pastki dumida.



Akademik «Ч» harf hech bir harfga o‘xshamagan bo‘lib, chap tomoni ochiq harflar turiga kiradi, ikkita vertikal chizig‘i qalin, ularni birlashtiruvchi yarim dumaloq chiziq ingichka bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X» harflari o‘xshash harflar, ular qaysi tarafi ochiq harf turiga kiradi?
2. Akademik «Ч» harfi qaysi harfga o‘xshaydi?
3. Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X» harflari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X» harflarini yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X» harflari orasidagi masofa qanday bo‘ladi?
6. Akademik harflarning bir tekis yozilishida nimalarga e‘tibor berish lozim?
7. Akademik «T» harfining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?

Amaliy mashg‘ulotlar

Akademik «F», «T», «Ÿ», «Y», «Φ», «X» harflarining chiroyli yozilish qoidalarini o‘rganish.

Akademik harflarni kompozitsion to‘g‘ri joylashtirishni o‘rganish.

9-mavzu.

Raqamlarning yozilish qoidalari

Akademik «1», «2», «3», «4», «5» raqamlari orasida «2», «3» va «5» raqamlari ikki tomoni ochiq raqamlar turiga kiradi. Akademik «1» raqamini yozishda, qog‘ozga raqam balandligida

qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan pastki chiziqqa qalin vertikal chiziq chiziladi. Ikkinchidan, uni qalin chizig'ining tepa qismidan chap tomonga ingichka chiziq hoshiya tugatiladi, uchinchidan, asosiy katta chiziqning tagidan ikki tomonga hoshiya bilan bezaladi.

Akademik «2» raqamini yozishda, qog'ozga raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan chapdan o'ng tomonga katta yarim doirani ingichkadan qalinlashtirib pastgacha yana ingichka qilib tushiriladi, ikkinchidan, pastdagi qalin chizig'i o'ng tomonga hoshiya chizish bilan tugatiladi,

Akademik «3» raqamini yozishda qog'ozga raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan chiziqlar chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqdan uch raqamini yozishda yarim doiraning o'rtasini qalin qilib raqamning o'rtasidan teparoqdan tugatiladi, ikkinchidan, uni pastga qarab ingichka chiziqdan boshlab o'ng tomonga qarab qalinlashadi va yana pastga ingichka bo'lib, oxiri dumaloq nuqta bilan tugatiladi.

Akademik «4» raqamini qalam qog'ozga raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziqlar chiziladi. Birinchidan, tepadan pastga qarab qalin chizig'i tushiriladi. Ikkinchidan, chapga qarab ingichka chiziqni raqamning o'rtadan pastroqqa qiya qilib tushiriladi va o'ng tomondagi qalin chizig'ini asosiy chiziqni kesib o'tib to'xtaydi.

Akademik «5» raqamini yozishda qog'ozga raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziqlar chiziladi. Birinchidan, tepadagi gorizontal chiziqqa «5» raqamining pastga qarab ingichka chiziqni xiyol qiya qilib chiziladi va o'ng tomonga katta yarim doira shaklini pastki chiziqqacha tushguncha ingichkalashib chap tomonga burilib nuqta bilan tugaydi, ikkinchidan, uni tepadagi ingichka chizig'ini o'ng tomonga chizib tugatiladi.

Nazorat savollari

1. Akademik «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining qaysi tarafi ochiq raqam hisoblanadi?
2. Akademik «2» raqamining teskarisi qaysi raqamga o'xshash?
3. Akademik «1», «2», «3», «4», «5» raqamlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Akademik «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini yozishda qanday asboblardan foydalaniladi?
5. Akademik raqamlarni bir tekis yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Akademik «4» raqami qaysi tomoni ochiq raqam hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotlar

Akademik «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini chiroyli yozish qoidalarini mashq qilish.

Akademik raqamlarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

10-mavzu.

Akademik raqamlarning yozilish qoidalari

Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlari orasida «6» va «0» raqamlari ikki tomoni ochiq raqamlar turiga, qolganlari esa ikki tomoni ochiq raqamlar turiga kiradi. Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlari ikki tomoni ochiq raqamlar turiga kiradi.

«6» raqamini yozishda, qog'ozga «6» raqam balandligida qalam bilan gorizontall bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «6» raqamini yozishda tepa gorizontall chiziqdan o'ng tomondan chapga ingichka chiziqdan katta yarim doirani qalinlashtirib, pastki chiziqqa ingichka chiziq bo'lib tushiriladi, ikkinchidan, raqamning o'ng tomonini yarim doira shaklda ingichka chiziqdan

boshlab, o'rtasi qalinlashib pastdagi ingichka chiziq chap tomondagi chiziqqa ulanadi.

«7» raqamini yozishda, qog'ozga yetti raqami balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «7» raqami chap tomonidagi pastdan tepaga hoshiya chizib gorizontal chizig'ini o'ng tomonga qalin qilib chiziladi. Ikkinchidan, raqamning o'ng tomonidan qiya qilib pastda ingichka chiziq bilan tugatiladi.

«8» raqamini yozishda, qog'ozga «8» raqami balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «8» raqami chap tomonidagi tepa gorizontal chizig'idan chap tomonga ingichka chiziqdan qalinlashtirib o'ng tomonga burib, ingichka qilib chizib pastga tushiriladi. Ikkinchidan, raqamning o'ng tomondagi ingichka chiziqdan yarim doira o'ng tomonga burilib qalinlashadi va raqamning o'rtasidan yuqoriroqdan chap tomonga burilib, ikkinchi katta doiraning o'rtasi qalin bo'lib, pastga ingichkalashib asosiy chiziqqa ulanadi.

«9» raqamini yozishda, qog'ozga «9» raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan, ikkita chiziq chiziladi. «9» raqami «6» raqamining teskarisi. Birinchidan, «9» raqamining chap tomonidagi tepa gorizontal chiziqdan ingichka chiziqdan boshlab yarim doira o'rtasi qalin qilib chiziladi va pastga ingichkalashib, o'ng tomonga buriladi. Ikkinchidan, raqamning o'ng tomoni yarim doira shaklida pastga ingichka chiziq bilan boshlanib, pastga ingichkalashtirib tugatiladi.

«0» raqamini yozishda qog'ozga «0» raqam balandligida qalam bilan gorizontal bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Birinchidan, «0» raqami chap tomonidagi tepa gorizontal chiziqdan yarim doirani ingichkadan boshlab o'rtasi qalin bo'lib, pastgacha ingichkalashtirib tushiriladi. Ikkinchidan, raqamning o'ng tomonini yarim doira shakli ingichkadan boshlab o'rtasi qalinlashib, pastga yana ingichka chiziq chizilib tugatiladi.

Nazorat savollari

1. Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarining qaysi tarafi ochiq hisoblanadi?
2. Akademik «6» raqamining teskarisi qaysi raqamga o'xshash?
3. Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozishda qanday asbobdan foydalaniladi?
5. Akademik raqamlarning bir tekis yozilishida nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Akademik «7» raqamining qaysi tomoni ochiq hisoblanadi?
7. Akademik raqamlarning bir tekis yozilishida qaysi qoidalarga amal qilish kerak?

Amaliy mashg'ulotlar

Akademik «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozish qoidalarini mashq qilish.

Akademik raqamlarni kompozitsion to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

11-mavzu.

Akademik barcha harflarni yozish qoidalarini

Akademik «A»dan «Я»gacha bo'lgan harflarni erinmay yana bir bor qayta yozib, ularning bir-biridan farqlanishi qunt bilan o'rganib chiqiladi. Harflarni risoladagidek to'g'ri yozishda birma-bir barcha harflarni erinmasdan uni yozishda qayerida chiziqni qalinlashtirish kerak, qaysi joyida ingichka chiziq chizish mumkin, harflarni yozish paytida qalindan ingichkaga o'tkazish davrida qalamni qanday yurgizishni juda ko'p marta mashq qilish

lozim, chunki qalamni qayerda qalin chizish kerak, qayerda undan ingichka chiziq chizish lozimligini husnixatning asl nusxasiga qarab, ko‘plab mashq qilib, bajargan ishlarini ustoziga ko‘rsatib, uning ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlariga amal qilish lozim.

Akademik harflarni yozishda har bir harfning o‘ziga xos ko‘rinish, yozilish uslubi, uning proporsiyasi, shakl-shamoyilidan kelib chiqib, qunt bilan o‘rganib chiqish talab etiladi. Akademik harflardan so‘z tuzishda bosh harf qanday kattalikda bo‘lishi lozim, kichik harflar unga nisbatan qanday bo‘lishi kerak? Barcha harflarni to‘g‘ri yozishni o‘rganishda, asl nusxaga o‘xshatish uchun juda ko‘plab qoralamalar, xomakilar yozishni mashq qilish kerak. O‘quvchi o‘z malaka, ko‘nikma va tajribasini faqat amaliy mashg‘ulotlar bajarish orqali yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Barcha harflarni to‘g‘ri yozishni o‘rgangandan so‘ng, keyingi bosqich uni chiroyli qilib planshetga joylashtirish jarayoni boshlanadi. Akademik husnixatning qadimiyligi va o‘ziga xosligini inobatga olib, uning kompozitsiyasi qadimiy antikvar buyum (qum soat, shamchiroq, shaxmat va hokazolar) bo‘lishi mumkin.


Nazorat savollari

1. Nima uchun shriftlar guruhlariga ajratiladi?
2. Akademik husnixatni to‘g‘ri yozishda qanday qoidalar bor?
3. Akademik husnixatga qanday mavzu tanlanadi?
4. Husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Akademik husnixatda qo‘llaniladigan metodlar qaysilar?
6. Akademik husnixatning boshqa husnixatlardan farqi nimada?

Amaliy mashg‘ulot

Kartonda ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikki darajali elementlarni ajrata olish.



12-mavzu. Kompozitsiya qidirish jarayoni




Akademik harflarga xomaki ishlashda, avvalambor, akademik harf o'zi nima, unda qanday ish qilish mumkin, buning uchun nima qilish lozim? Talaba xomaki ishlashdan oldin, o'quvchi murabbiy tomonidan akademik harflar to'g'risida umumiy ma'lumot, ko'rsatma va turli mavzularga oid tavsiyalar olib, mavzu haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladi. O'quvchilar akademik harflarga xomaki ishlashga ixtiyoriy ravishda mavzu tanla-

shadi, o'quvchi mavzuni to'laqonli ochib berishni asosiy maqsad qilib qo'yib, buning ustida tinmay ishlash kerak bo'ladi. Birinchidan, shu mavzuga oid turli adabiyotlar, qo'lyozmalar, arxiv materiallari, hujjatlari, fotosuratlar, internet ma'lumotlari, videofilmlar va boshqa ashyoviy dalillarni qunt bilan erinmasdan birma-bir o'rganib chiqib, shu soha bo'yicha mutaxassislarning ko'rsatma va maslahatlariga asoslanib ishlansa, akademik harflar real voqelikni aks ettirgan bo'lib, oddiy, hatto professional tomoshabinning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadigan san'at asari yaratiladi.

Bunday san'at asariga erishish uchun uning kelib chiqish tarixi, qaysi xalqqa mansubligi, qanday muhitda paydo bo'lganligi, uning ko'rinishi, shakli, ishlanish texnikasi va boshqa ko'plab omillarni o'rganib, ustoz-o'qituvchi bilan maslahatlashib, xomaki ishlashga kirishish mumkin.

Xomaki ishlashda o'quvchining vaqtini va ashyosini tejash maqsadida A 4 formatdagi qog'ozga asl nusxa hajmini o'n baravar kichiklashtirib, 5×7 sm hajmda gorizontal va vertikal to'rtburchak shakllarga bo'lib chiqilib, bu shakllar ichiga turli xil ko'rinishga ega bo'lgan xomaki (variant) ko'rinishlar qidiriladi.

Xomaki ishlashda yumshoq grafik ashyolardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki yumshoq grafik ashyo bilan o'quvchi o'zida tug'ilgan mavzuga oid dastlabki fikr-mulohazalarni tez amalga oshirishda juda qo'l keladi. O'quvchi mavzuga oid bo'lgan dastlabki fikr-mulohazalarni ustoz-o'qituvchisiga ko'rsatadi, xomakilar ichidan mavzuni yoritishga yaqin keladigan dastlabki chizmalarni ajratib olib, shu chizma xomakilarni yanada rivojlantirish uchun shu mavzu ustida o'qib-o'rganib, o'qituvchining ko'rsatmasi va tavsiyalari asosida ushbu topilgan mavzuni to'liq ochish jarayoni boshlanadi.



ОФОРТ ЛИТОГРАФИЯ КАЛЛИГРАФИЯ КСИЛОГРАФИЯ ЛИНОГРАВЮРА



Nazorat savollari

1. Nima uchun shriftlar guruhga ajratiladi?
2. Husnixatga kompozitsiya kerakmi?
3. Husnixatda xomaki nima uchun qidiriladi?
4. Husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Husnixatda qo‘llaniladigan kompozitsiya qanday bo‘lishi lozim?
6. Akademik husnixatning boshqalaridan farqi nimada?

Amaliy mashg‘ulot

Kompozitsiya ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikki darajali elementlarni ajrata olish.

13-mavzu.

Kompozitsiya qidirish jarayoni

Topshiriqni ikki xil usulda, ya’ni foni oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki aksini ishlash mumkin. Kompozitsion jihatdan topilgan husnixatni eskiz tasdiqlangandan so‘ng, uni 50×70 sm bo‘lgan kartonga, ya’ni millimetrovkaga masshtabda joylashtiriladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga to‘liq amal qilinadi. Harflar orasidagi masofaga harflarni qaysi biri kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o‘ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar so‘z yoziladigan bo‘lsa, har bir so‘z orasida bir harf kengligida masofa tashlanadi.

Kompozitsiyani kartonga joylashtirishda aksariyat hollarda asl nusxaning ikki yon o'ng, chap va tepa qismlaridan bir xil masofa qoldiriladi. Asl nusxaning pastki qismidan esa, ularga nisbatan ko'proq joy qoldirib yoziladi. Kartonda barcha qiyinchiliklar qoralamalar tugatilib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin yana bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Kartonning hajmi asl nusxasini hajmi bilan tepa teng bo'ladi. Kartondagi chizmani asl nusxa o'tkazishdan oldin, karton orqa tomoni qora qalam yoki ko'mir bilan qoralab chiqiladi. Qoralangan kartonni asl nusxa planshetga skochlab yoki knopkalab barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga o'tkazib olinadi.






Nazorat savollari

1. Qanday husnixat garnituralarini bilasiz?
2. Husnixat yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. So'zlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
6. Kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
7. Kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
8. Nima uchun eskiz kartondan qilinadi?
9. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Karton bilan ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.



14-mavzu.

Kartonda ishlash

Topshiriqni ikki xil usulda, ya'ni fonini oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki aksini ishlash mumkin. Kompozitsion jihatdan topilgan husnixatni eskiz tasdiqlangandan so'ng, uni 60×90 sm bo'lgan kartonga, ya'ni millimetrovkaga masshtabda joylashtiriladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarni yozish qoidalariga to'liq rioya qilinadi. Harflar orasidagi masofaga harflarni qaysi biri kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.



Agar soʻz yoziladigan boʻlsa, har bir soʻz orasida bir harf kengligida masofa tashlanadi.

Kompozitsiyani kartonga joylashtirishda, asosan, kompozitsiyaning ikki yon qismi va tepa qismidan bir xil masofa qoldiriladi. Pastki qismidan esa ularga nisbatan koʻproq joy qoldiriladi. Karton barcha qiyinchiliklar qoralamalar tugatilib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan soʻng, uni asl nusxaga oʻtkazishdan oldin uni yana bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Kartonning hajmi asl nusxasining hajmi bilan teng boʻladi. Kartondagi chizmani asl nusxaga oʻtkazishdan oldin, kartonning orqa tomoni qora qalam yoki koʻmir bilan qoralab chiqiladi. Qoralangan kartonni asl nusxa planshetga skochlab yoki knopkalab barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga oʻtkazib olinadi.

Topshiriq ikki xil usulda, yaʼni fonni oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki aksini ishlash mumkin. Kompozitsion jihatdan topilgan husnixat eskiz tasdiqlangandan soʻng, uni 50×70 sm boʻlgan kartonga, yaʼni (millimetrovkaga) asl nusxa hajmida harflarni toʻgʻri joylashtirib chiqiladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarni yozish qoidalariga toʻliq amal qilinadi. Harflar orasidagi masofaga harflar qanday kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, oʻng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar soʻz yoziladigan boʻlsa, har bir soʻz orasida eng kamida bir harfning kengligida masofa tashlab yozish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Kartonning hajmi qanday bo'lishi lozim?
2. Kartondan nima uchun foydalaniladi?
3. Kartonning qulaylik tomoni nimada?
4. Gazeta va jurnallarda qo'llaniladigan husnixatlarning qaysi turlarini biladi?
5. Qanday husnixat elementlarini bilasiz?
6. Husnixatda obraz nima uchun kerak?
7. Obrazlarning manbalari qayerdan olinadi?
8. Husnixatda birinchi va ikkinchi darajali elementlar qaysilar?

Amaliy mashg'ulot

Karton bilan ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.

15-mavzu.

Asl nusxani ishlash

Kompozitsion jihatdan topilgan qirqma husnixat eskizini 50×70 sm bo'lgan kartonda, ya'ni millimetrovkaga masshtabga mos ravishda eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga to'liq rioya qilinib, risoladagidek to'g'ri joylashtirilgandan so'ng, kartondagi eskizni asl nusxadagi planshetga o'tkazishda xomaki kartonning orqa tomonini yumshoq qalam bilan bo'yab chiqiladi. Bo'yalgan kartonni asl nusxa (planshet)ga qimiramaydigan qilib mahkamlab skochlanadi. Planshetga husnixatni aniqlashtirib chizg'ich yordamida asl nusxaga tushirib olinadi.

Asl nusxaga tushirilgan kompozitsiyani yana bir bor qaytadan aniqlashtirib chizib chiqiladi. Asl nusxani toza va ozoda bo'lishi uchun chizilgan husnixat ustidan suyuq qilib oq guash bilan tekis qilib bo'yab olinadi. Bu ishni qilishdan maqsad asl nusxa tugagandan keyin surkalgan joylarini oq guash bilan bo'yalganda qog'oz oqarib yoki sarg'ayib qolmaydi, guash rangda bo'lib qog'ozdan ajralib qolmasligi uchun bo'yaladi. Guashni suyuq qilib bo'yab o'tgandan so'ng uni obdan qurishi poylanadi, guash obdan qurigandan so'ng qalam bilan chizilgan husnixatni chekka qismlaridan chiziqli chiqib ketmaslik uchun sekin avaylab geliyli qora ruchka yordamida chizib chiqiladi, chiziqlar obdan quriganda so'ng, harf ichini katta mo'yqalam bilan akril, tempera yoki guash bo'yog'iga ozgina PVA yelimi qo'shib bo'yalsa, qorishma mustahkam bo'ladi va uzoq muddat yaxshi saqlanadi.

Harflar bo'yolib bo'lgandan so'ng eng nozik ishlari qoladi. Har bir harflarning uchlari tag qismi, gorizontal va vertikal chiziqlarni aniqlashtirib risoladagidek bo'lguncha qiyomiga keltirib ishlanadi.

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo'lingandan so'ng ularni yana bir bor birma-bir ko'zdan o'tkazib, tuzatadigan joylarini

nozik mo'yqalam bilan to'g'rilab tekislanadi, surkalgan joylari oq guash bilan tozalab bo'yaladi.

Nazorat savollari

1. Husnixat kamchiliklarini tugatishda nimaga e'tibor berish lozim?
2. Husnixat kamchiligi nimada?
3. So'zlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Kompozitsiyada eng muhimi shaklmi yoki mavzumi?
6. Kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
7. Eskiz karton nima uchun kerak?
8. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Asl nusxaning kamchiligini tugata olish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.



16-mavzu.
Asl nusxani ko'rikka tayyorlash

Barcha ishlar tugallangandan so'ng planshetni ehtiyot qilib qog'oz bilan o'rab qo'yiladi. Chunki guash bilan ishlangan ishlar juda nozik bo'lib, tezda kir bo'lishining oldi olinadi. Tugatilgan ishni baholash uchun ko'rikka hay'at a'zolari diqqatiga taqdim etiladi.



Nazorat savollari

1. Husnixat kamchiliklarini tugatishda nimaga e'tibor berish lozim?
2. Husnixat kamchiligi nimada?
3. So'zlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Kompozitsiyada eng muhimi shaklmi yoki mavzumi?
6. Kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
7. Xomaki karton nima uchun kerak?
8. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Asl nusxaning kamchiligini tugata olish.

Asl nusxani ko'rikka tayyorlash.

III KURS.

I SEMESTR (20 soat)

1-mavzu.

«Ijodkor harflar»

Inson dunyoga kelibdiki, fikrlash, muloqot, oʻzida tugʻilgan qandaydir fikr, yangilik yoki kashfiyotlarni boshqalarga yetkazish va kelasi avlodga qoldirish niyatida boʻladi. Ibtidoiy davrda insonlar juda oddiy, sodda boʻlgan maʼlumotlarni har xil tasviriy shakllarni chizish orqali kelajak avlodlarga qoldirganlar. Bunga misol tariqasida qadimiy gʻorlardagi qoya toshlarga chizib qoldirilgan turli shakldagi tasvirlarni keltirish mumkin.

Husnixat koʻp asrlardan buyon insoniyatni maʼnaviy jihatdan tarbiyalab kelmoqda, uning eng ilgʻor fikrlari, gʻoyalari, kashfiyotlari avloddan avlodga oʻtib kelmoqda. Fan, texnika, adabiyot, madaniyat, sanʼat, diniy va boshqa sohalarda insoniyat qoʻlga kiritgan eng taraqqiy etgan yutuqlarni tarixga muhrlab qoldirishga zamin yaratgan alifbo tufayli biz bu cheksiz ummonni oʻqish orqali oʻz bilim va tafakkurimizni oshirib boramiz.

Zamon taraqqiy etishi bilan husnixat ham oʻzgarib va mukammallashib bordi. Har bir davrning oʻziga xos husnixati boʻlib, u oʻsha davr ruhini eslatib turadi.

Yozuv bir sirli sandiqqa oʻxshaydi, uni kim ochib oʻqisa, dunyoga boshqacha koʻz bilan qaray boshlaydi.

Husnixat insoniyatning eng buyuk kashfiyotidir, husnixat insoniyatni asrlar davomida maʼnan tarbiyalashda yuksak ekanligining

chegarasi yoʻqligʻini hayot oʻzi isbotlab turibdi. Husnixat orqali insonlar tarixni, hozirgi zamonni va kelajagini oʻqib oʻrganadi.

Husnixatdagi har bir harf maʼlum bir tovush asosida oʻziga xos shakl va koʻrinishga ega boʻlganligi uchun biz ularni bir-biridan tez ajrata olib, harflardan insoniyatning muomala qilish uchun qoʻllanadigan barcha soʻzlar uchun tuzish imkoni mavjud boʻldi.

Harflardan soʻz tuzganda toʻgʻri yozish qoidalariga rioya qilish lozim. Yuqorida aytganimizdek, har bir harf oʻziga xos koʻrinish va shaklga ega, ulardan soʻz tuzayotganda ikki tomoni ochiq, ikki tomoni yopiq, oʻng tomoni ochiq va chap tomoni ochiq harflarning qaysi biri qachon kelishiga bogʻliq. Agar ikkita harfdan soʻz yozilsa, ular orasidagi masofaga unchalik ahamiyat bermasa boʻladi, lekin uchinchi harfdan boshlab ular orasidagi masofaga ahamiyat berish lozim. Ikki tomoni yopiq harflar ketma-ket kelganda ular orasidagi masofani bir xil masofa tashlab yozish mumkin, qolgan koʻrinishdagi harflar kelganda ularni qaysi tomoni qanchalik ochiq va yopiqligiga qarab ular orasidagi boʻshliqning katta-kichikligiga qarab, ularni bir-biriga moslashtirib yoziladi. Har bir soʻz orasidagi tashlab yoziladigan masofani kamida bir yoki bir yarim harf kengligida tashlab yozilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Oʻquvchilarni husnixatni qonun-qoidasi bilan yozishga oʻrgatishda eng asosiy koʻrsatma, yoʻl-yoʻriq, usul va uslub va toʻgʻri koʻrsatmalarni berish lozim, oʻquvchi husnixatga bir qarashda yozilgan husnixatni qaysi davrga tegishliligini, qaysi millat husnixatida yozilganligi, husnixatning yozilish uslubi, texnikasi va qaysi ashyoda yozilganligini farqlay olishni, turli xil husnixat (garnitura)ni ajrata bilishi, har bir soʻzning oʻziga xosligidan kelib chiqib, unga mos husnixat tanlay olishni, har bir mavzuga mos boʻlgan husnixat tanlashni bilsagina, yaxshi xattot-rassom boʻlishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Husnixatning insoniyat tarixida tutgan o‘rni qanday?
2. Husnixat nimaga asoslanib tuzilgan?
3. Husnixat qaysi qonuniyatga asoslanadi?
4. Husnixat yozishda so‘zlar orasidagi masofa qancha bo‘lishi kerak?
5. Ijodkor husnixatiga qaysilar kiradi?
6. Ikki tomoni ochiq harflar turini ayting.
7. O‘ng tomoni ochiq harflarga qaysi harf turini kiritsa bo‘ladi?
8. Chap tomoni ochiq qaysi harf turini kiritsa bo‘ladi?
9. Ikki tomoni yopiq harflar turini ayting.
10. Asimmetrik harflarni ayting.

Amaliy mashg‘ulot

Harflarni to‘g‘ri yozishni o‘rganish.

Harflarning shakliga e‘tibor berib yozish.

2-, 3-, 4-mavzular.

Ijodkor harflarga xomaki ishlash

Ijodkor harflarga xomaki ishlashda, avvalambor, ijodkor harf o‘zi nima, u bilan qanday ish qilish mumkin, buning uchun nima qilish lozim? O‘quvchi xomaki ishlashdan oldin, o‘qituvchi-murabbiy tomonidan ijodkor harflar to‘g‘risida umumiy ma’lumot, ko‘rsatma va turli mavzularga oid tavsiyalar olib, mavzu haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lishi lozim. O‘quvchilarga ijodkor harflarni xomaki ishlashga ixtiyoriy ravishda mavzu tanlashga imkoniyat beriladi, o‘quvchi oldiga mavzuni to‘laqonli ochib berishni asosiy maqsad qilib qo‘yib, bu topshiriq ustida tinmay ishlashi kerak bo‘ladi. Birinchidan, shu mavzuga oid turli adabiyotlar, qo‘lyozmalar, arxiv (material) hujjatlari, fotosuratlar,

internet ma'lumotlari, videofilmlar va boshqa ashyoviy dalillarni qunt bilan erinmasdan birma-bir o'rganib chiqib, shu soha bo'yicha mutaxassislarning ko'rsatma va maslahatlariga asoslanib ishlansa, ijodkor harflar real voqelikni aks ettirgan bo'lib, oddiy va hatto professional tomoshabin diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadigan san'at asari yaratiladi.

Bunday san'at asariga erishish uchun uning kelib chiqish tarixi, qaysi xalqqa mansubligi, qanday muhitda paydo bo'lganligi, uning ko'rinishi, shakli, rangi, hajmi, qaysi ashyoda ishlanganligi, ishlanish texnikasi va boshqa ko'plab omillarni o'rganib ustoz-o'qituvchi bilan maslahatlashib, dastlabki xomaki ishlash jarayoniga kirishish mumkin.

Xomaki ishlashda o'quvchining vaqtini va ashyosini tejash maqsadida A4 formatdagi qog'ozga asl nusxa hajmining o'n baravar kichiklashtirib 5×7 sm hajmda gorizontaal va vertikal to'rtburchak shakllarga bo'lib chiqilib, bu shakllar ichiga (variant) turli xil ko'rinishga ega bo'lgan xomaki qoralamalar qidiriladi. Bunday hajmda xomaki ishlaganda ham vaqt, ham qog'oz ashyosi tejiladi va topilgan xomakini o'qituvchi tasdiqlab bergandan so'ng, bu xomakini o'n baravar mashtabda kattalashtirib, kartonga o'tkazib ishlash oson bo'ladi.

Xomaki ishlashda yumshoq grafik ashyolardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki yumshoq grafik ashyo bilan o'quvchi o'zida yangi tug'ilgan mavzuga oid dastlabki fikr va mulohazalarni tez amalga oshirishda juda qo'l keladi. O'quvchi mavzuga oid bo'lgan dastlabki fikr va mulohazalarni ustoz-o'qituvchisiga ko'rsatishi lozim, xomakilar ichidan mavzuni yoritishga yaqin keladigan dastlabki chizmalarni ustoz ajratib bergandan so'ng, shu chizma xomakilarini yanada rivojlantirish uchun shu mavzu ustida o'qib o'rganib, rivojlantirib borishi lozim. Har bir izlanib topilgan xomakilarni tez-tez o'qituvchiga ko'rsatib,

uning maslahat va ko‘rsatmalarini olib mavzuni yanada murakkablashtirish jarayonlari boshlanadi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarni ishlashda nimalarga e‘tibor berish lozim?
2. O‘quvchi xomaki ishlash uchun nima qilishi kerak?
3. Xomaki ishlashda asosiy manba qayerdan olinadi?
4. Xomaki san‘at asari bo‘lishi uchun nima qilish lozim?
5. Ijodkor harflarga xomaki ishlashda nimalarga e‘tibor berish lozim?
6. Ijodkor harflarga xomaki qo‘llaniladigan usullar qaysilar?
7. Ijodkor harflarga xomaki qidirishda qanday ashyolardan foydalanadi?

Amaliy mashg‘ulot

Ijodkor harflarga xomaki ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ijodkor harflarga xomaki ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

5-mavzu.

Ijodkor harflar xomakisini rangli qalam va pastel ashyolarida qidirish

Tasviriy san‘atda rangning ahamiyati juda muhimdir, chunki rang orqali biz tashqi muhitga boshqacha ko‘z bilan qaraymiz. Tabiatda uchraydigan issiq, sovuq, xromatik, axromatik ranglarni bir-biridan ajratib, ranglarni bir-biriga qo‘shib, yana bir ajoyib rangni paydo qilish, topilgan rangni tanlab o‘z joyida qo‘llay bilish ham katta san‘atdir.

Ijodkor harflar xomakisining hajmi 5×7 sm bo‘lishi o‘ta tejamkor hisoblanadi, bu o‘quvchini xomaki ishlash vaqtini, ishlata-

digan ashyolar: qog‘oz, rangli qalamlar, turli bo‘yoqlarini iqtisod qilishda yordam beradi. Qora qalamning uch xili uchraydi: qattiq, o‘rta va yumshoq. Qattiq qalam kirillchada quyidagicha ataladi: «T», «2T», «3T», «4T» va boshqalar. Lotinchada esa «N», «2N», «3N», «4N» va boshqalar (har bir katta raqamlar qalamning qattqlik darajasini belgilaydi). Yumshoq qalamlar: kirillchada «M», «2M», «3M», «4M» va boshqalar, lotinchada «V», «2V», «3V», «4V» va boshqalari (har bir katta raqamlar qalamning yumshoqlik darajasini belgilaydi). Ular orasida uchinchi xil qalam turi mavjud, bu kirillchada «TM» va lotinchada «NV» o‘rtacha yog‘lilik darajasidagi qalamlar hisoblanadi.

Rangli qalamlar bunday darajalarga bo‘linmaydi, ular asosan o‘rtacha yumshoqlikda ishlab chiqarilgan bo‘ladi.

Birinchi bo‘lib, oddiy rangli qamlarni qo‘llash afzalligi shundaki, u surkalmaydi, surkalsa o‘chirg‘ich bilan o‘chirib tozalash imkoni bor, ishlash uchun o‘ta qulay va tez natijaga erishish mumkin.

Qalam bilan xomakini ishlashda avvalambor xomakidagi shakllarning kattasidan boshlab, uning chekka qismlarini ehtiyotlik bilan surkatmasdan bo‘yab chiqilsa, keyin ichki tomonlari tez ishlash imkoni tug‘iladi.

Pastel ashyosi xususiyati oddiy doskaga yozadigan bo‘rni eslatadi. Pastel ashyosi bilan husnixat xomakilarini ishlashda juda qo‘l keladi, chunki pastel ashyo bilan qog‘oz sathini tez bo‘yab chiqish mumkin. Pasteldagi ranglarning bir-biri bilan tus (ton)da farqi juda yaqin, shuning uchun (pastelniy) o‘ta mayin yumshoq tusga ega deb ataladi. Pastel ashyosi bilan ishlangan san’at asarini uzoq muddat saqlash o‘ta murakkab, chunki bu ashyo tez surkalib ketish xususiyatiga ega, pastelni tez surkalib ketishini oldini olish uchun asar tugagandan so‘ng ayollar sochiga sepadigan lak bilan chizilgan vazifa qotirilsa, bu ish uzoq muddat saqlanishi mumkin.

O'qituvchi xomakini tasdiqlab berganidan so'ng, bu xomakini turli rang ashyolaridan foydalanib izlanish jarayoni boshlanadi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarni ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. O'quvchi xomaki ishlash uchun nima qilishi kerak?
3. Xomaki ishlashda qalamning o'rni qanday?
4. Xomaki san'at asari bo'lishi uchun nima qilish lozim?
5. Ijodkor harflarga xomaki ishlashda pastel ashyosidan foydalansa bo'ladimi?
6. Ijodkor harflarga xomakida qo'llaniladigan ashyolar qaysilar?
7. Ijodkor harflarga xomaki qidirishda qanday qalam ashyolaridan foydalaniladi?
8. Qanday qalam turlari bor?

Amaliy mashg'ulot

Ijodkor harflarga xomaki ishlashda qalam va pastel ashyolar texnologiyasiga rioya qilish.

Ijodkor harflarga xomaki bilan ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni ajrata olish.

6-mavzu.

Ijodkor harflarning xomakisi ranglarini suv bo'yog'i va guash ashyosida qidirish

Suv bo'yog'i bilan xomakini ishlashning eng tez bajarish jarayoniga kiradi. Suv bo'yog'ining afzallik tomoni shundaki, xomakidagi ranglar tomoshabin e'tiborini tezda o'ziga yorqin jalb qila oladi, bo'yoq toza suv bilan ko'proq ishlansa, shaffof tusga ega bo'ladi, bunday shaffoflik qolgan barcha grafik ashyolarida

uchramaydi. Suv bo'yog'ining yana bir yaxshi xususiyati bitta rangni ikkinchi bir rang bilan tezda aralashib, uchinchi bir rangni hosil qilishidir. Suv bo'yog'i bilan xomaki ishlashda ayniqsa, ranglardan bir tekislikni tepadan pastga yoki uni aksini ochdan to'qqa bo'yashda juda qo'l keladi.

Suv bo'yog'ining boshqa bo'yoqlardan ajralib turadigan xususiyati – yorqinligi, uni qog'oz sathiga yupqa qatlamda berib ishlanishi, ranglarning bir-biriga ustma-ust qo'yilganda ham yorqinlik xususiyatini yo'qotmasligidadir. Suv bo'yog'ida qog'ozga bo'yalgan ranglarni quyoshga qaratib qo'yib, uni qanchalik yorqinlik xususiyatga ega ekanligini tekshirib ko'rish mumkin. Suv bo'yog'i sanoatda turli-tuman ko'rinishda, har xil sifat darajasida ishlab chiqiladi: to'rtburchakli, dumaloq shakllarida, qattiq qotirilgan holatda uchraydi, siqma idishda (tyubikda) suyuq holida ishlab chiqariladi. Foydalanish uchun eng qulayi siqma idishdagisi hamda to'rtburchak dumaloq shakllari hisoblanadi.

Guash bo'yog'i boshqa ashyo turlaridan keskin farq qiladi, u qurigandan so'ng guashning turiga va sifatiga qarab 40% gacha ocharish xususiyatiga ega. Guash bo'yog'ining suv bo'yog'idan farqi unda oq rangning borligidir. Guash tabiatan (matoviy) yaltiroqsiz tusga ega, guash bo'yog'i bilan katta maydonlarni tekis bo'yashda (kompressor va aerografdan) foydalanilsa, guash tekislikda bir me'yorda bo'yaladi. Guashdan (koller) bo'yog'i tayyorlaganda, bitta rangga ikkinchi rangni qo'shganda uni yaxshilab aralashtirish kerak, chunki yaxshi aralashtirilmasa, undan foydalanayotganda ikkinchi rang chiqib, umumiy rangni buzish ehtimoli juda yuqori.

Guash bo'yog'ining umrini uzaytirishni istasak kollerga oz miqdorda PVA yelimidan qo'shib ishlatish lozim. Guash bo'yog'i bilan katta maydonlarni mo'yqalam yordamida bo'yashda juda tez ishlash kerak, chunki guashni qog'oz tez shimib oladigan bo'lsa, u qurigandan so'ng har xil tusga ega bo'lib qoladi. Guash

ashyosida o'ziga xos texnologiyaga ega, bu texnologiyaga amal qilmasa, bo'yoqni sarflash iqtisod qilinadi va juda ko'p vaqt o'z ko'rinishini yo'qotmaydi. Guash bo'yog'ini tayyorlashda u suyuq ham, quyuq ham bo'lmasligi lozim. Guash bo'yog'i suyuq bo'lsa, bo'yalgandan so'ng ola-bula bo'lib quriydi, quyuq bo'lsa, mo'yqalam qog'ozda yaxshi yurmaydi va asabga tegadi. Guash bo'yog'i quyuq va suyuqligi me'yorda bo'lishi kerak. Guash bo'yog'i bilan bir marta bo'yalgandan so'ng uni yana ustidan bo'yalsa, tusi o'zgarib ketadi, shuning uchun iloji boricha, bir marta bo'yashga harakat qilish lozim. Guash bo'yog'i bilan koller tayyorlaganda bitta qilib ko'proq tayyorlash kerak, chunki ish jarayonida tayyorlangan rang yetmay qolsa, unga o'xshash rang topish juda murakkab bo'ladi. Guash bo'yog'i qurigandan so'ng ikki xil tusda bo'lib asabga tegadi. Hamma ish risoladagidek bo'lishi uchun guash bilan ishlashda och rangdan asta-sekin boshlab, oxiri to'q rangda tugatish kerak. Chunki qora fonga oq rangda yozilsa, bo'yalgan oq rangning tagidan qora rang chiqib kelaveradi, buni ko'rib asab buziladi, qo'shimcha vaqt va bo'yoq ketadi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarni ishlashda nimalarga e'tibor berishi lozim?
2. O'quvchi xomaki ishlashda qaysi bo'yoq turidan foydalansa bo'ladi?
3. Xomaki ishlashda suv bo'yog'ining o'rni qanday?
4. Xomaki san'at asari bo'lishi uchun nima qilish lozim?
5. Ijodkor harflarga xomaki ishlashda guash ashyosidan foydalansa bo'ladimi?
6. Ijodkor harflarga xomakida qo'llaniladigan ashyolar qaysilar?
7. Ijodkor harflarga xomaki qidirishda qaysi suv bo'yog'i ashyolaridan foydalaniladi?
8. Qanday guash turlari bor?

Amaliy mashgʻulot

Ijodkor harflarga xomaki ishlash suv boʻyogʻi va guash ashyolar texnologiyasiga rioya qilish.

Ijodkor harflarga xomaki bilan ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

7-mavzu.

Ijodkor harflar xomakisi ranglarida tempera va akril ashyolarda qidirish

Tempera boʻyoqlarining xomaki ishlarida qoʻllash imkoniyatlari juda yuqori, undan husnixatning xomaki, koʻrgazmali bezak ishlashda va barcha jarayonda qoʻllasa boʻladi. Tempera boʻyogʻi bilan ishlash juda qulay, uning guash ashyosidan farqi unga «kozein yelimi» qoʻshilgan, shu sababdan tempera boʻyogʻi tez qotib qolish xususiyatiga ega.

Tempera boʻyogʻi suvda yaxshi eriydi, tekislikka bir xil ravon yotadi, tempera boʻyogʻi juda mustahkam boʻyoq turiga kiradi, temperada ishlangan ish uzoq muddat yaxshi saqlanadi. Tempera boʻyogʻi bilan tayyorlangan kollerini uzoq muddat ochiq holda tashlab ketib boʻlmaydi, chunki tempera tez qotib qolish xususiyatiga ega, u qotib qolgandan soʻng qayta suvda erimaydi, ishlatishga boshqa yaramay qoladi. Tempera boʻyogʻi yaltiroqsiz (matoviy) tusga ega.

Akril boʻyoqlarining xomaki ishlarida qoʻllash imkoniyatlari juda yuqori, undan husnixatning xomaki, koʻrgazmali bezak ishlashda va barcha jarayonda qoʻllasa boʻladi. Akril boʻyogʻi bilan ishlash juda qulay, uni guash ashyosidan foydalanib rang qoʻshib ishlatga yaxshi aralashadi. Akril boʻyogʻi quyosh nuriga

va sovuq havoga chidamli bo'lgani uchun undan asosan hozirda tashqarida ochiq bo'lgan joylarni bo'yashda keng qo'llaniladi.

Akril bo'yog'i suvda yaxshi eriydi, tekislikka bir xil ravon yotadi, akril bo'yog'i juda mustahkam bo'yoq turiga kiradi, akril bo'yog'i bilan ishlangan ish uzoq muddat yaxshi saqlanadi. Akril bo'yog'i bilan tayyorlangan kollerni uzoq muddat ochiq holda tashlab ketib bo'lmaydi, chunki akril tez qotib qolish xususiyatiga ega, u qotib qolgandan so'ng qayta suvda erimaydi, ishlatishga boshqa yaramaydi. Akril bo'yog'i yaltiroqsiz (matoviy) tusga ega.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarni ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. O'quvchi xomaki ishlashda qaysi bo'yoq turidan foydalansa bo'ladi?
3. Xomaki ishlashda temperaning o'rni qanday?
4. Xomaki san'at asari bo'lishi uchun nima qilish lozim?
5. Ijodkor harflarga xomaki ishlashda akril ashyosidan foydalansa bo'ladimi?
6. Ijodkor harflarga xomakida qo'llaniladigan ashyolar qaysilar?
7. Ijodkor harflarga xomaki qidirishda tempera ashyolardan foydalaniladimi?
8. Akril bo'yog'i suvda eriydimi?
9. Akril bo'yog'iga guash bo'yog'ini qo'shsa bo'ladimi?

Amaliy mashg'ulot

Ijodkor harflarga xomaki ishlash tempera va akril ashyolar texnologiyasiga rioya qilish.

Ijodkor harflarga xomaki bilan ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

8-, 9-, 10-mavzular.

Ijodkor harflarni yozish qoidalari

Topshiriqni ikki xil usulda, ya'ni oq (foni) qog'oz sathiga qora rangda, qora qog'oz sathiga oq rangda harflar yozish mumkin. Ijodkor harflarning mavzusiga qarab, har bir so'zni ma'nosidan kelib chiqib, unga mos bo'lgan husnixat tanlay olish uchun o'quvchidan yuqori malaka, ko'nikma, amaliy tajriba talab etiladi.

O'qituvchi tomonidan tasdiqlab berilgan mavzular bo'yicha har bitta ijodiy so'zni alohida ko'rib chiqib, unga tegishli bo'lgan husnixat garniturasini qunt bilan o'rganib, uning tarixi, kelib chiqishi, millati, davri va boshqa omillar qatori uni to'g'ri yozilish uslubi, texnikasi, ishlatiladigan turli ashyolarini amalda qo'llay bilish va risoladagidek qonun-qoidasi bilan yoza bilishi uchun o'quvchi juda ko'p o'z ustida ijod qilib, amaliy mashg'ulotlar olib borishi lozim.

Har bir harfning o'ziga xos geometrik shakli, ko'rinishga ega bo'lgani uchun biz bu harflarni bir-biridan tezda farqlab olamiz, ulardan so'zlar tuzib, o'qiymiz va yozamiz. Harflar orasidagi masofaga harflarni qanday kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

So'z yozilgandan so'ng, har bir so'z orasida eng kamida bir harfning kengligida masofa tashlab yozish tavsiya etiladi.

Harflar kompozitsiyani risoladagidek joylashtirishda asosan kompozitsiyani ikki yon qismi o'ng, chap tomoni va uchinchi planshetni tepa qismidan bir xil masofa 3 sm tashlab yoziladi. Uning pastki qismidan esa ularga nisbatan ko'proq joy 5 sm qoldirib yozilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin uni yana bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarni yozish qoidalariga qanday?
2. Ijodkor harflarni yozishda kompozitsiya kerakmi?
3. Ijodkor harflarni yozishda xomaki nima uchun qildiriladi?
4. Ijodkor harflarni yozishda husnixat garniturasining boshqa bir husnixat bilan aloqasi nimada?
5. Ijodkor harflarni yozishda qo'llaniladigan kompozitsiya qanday bo'lishi lozim?
6. Ijodkor harflarni yozish uchun qanday ashyolardan foydalansa bo'ladi?
7. Ijodkor harflar orasidagi masofa qancha bo'lishi mumkin?

Amaliy mashg'ulot

Ijodkor harflarni yozish qoidalariga rioya qilish.

Ijodkor harflarni yozish jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata bilish.

11-, 12-, 13-mavzular.

Ijodkor harflardan kompozitsiya qidirish

Ijodkor harflarda to'g'ri yozishni o'rgangandan so'ng, keyingi bosqich uni chiroyli qilib planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirish jarayoni boshlanadi. Avvalambor vaqtni va ashyolarni tejash maqsadida asl nusxa hajmiga nisbatan masshtabda o'n baravar kichiklashtirib A4 format qog'ozga 5×7 sm hajmga bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shakl chizib chiqiladi, ular ham vertikal va gorizontal ko'rinishda bo'lishi lozim. Shu to'rtburchak shakl ichiga harflarni chiroyli original tarzda kompozitsiyasini to'g'ri estetik jihatdan joylashtirish uchun bir qancha namuna (variant) lar izlab ko'riladi.

Ijodkor harflardan husnixatning o'ziga xosligi shundaki, har bir yoziladigan so'zning ruhiyati, mazmuni to'laqonli ochilsagina, husnixat o'z vazifasini va obraziga mos topilgan hisoblanadi. Ijodkor harflar turli mavzuda bo'lishi mumkin: qadimiy, zamonaviy, ma'lum bir millat yoki mintaqaga xos bo'lgan husnixat, ilmiy, texnikaviy, ommabop, fantastik, ko'rgazmali, tijoratga oid, bolalar mavzusini yoritib oladigan, insoniyatning barcha turmush tarzida uchraydigan turli mavzularga mos husnixatni to'g'ri tanlay olishda tajriba, malaka, ko'nikma va albatta, amaliy mashg'ulot eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunga erishish uchun o'quvchi o'z ustida tinmay mehnat qilishi, ustoz bilan maslahatlashib u bergan maslahat va ko'rsatmalariga amal qilsagina, tezroq yaxshi natijaga erishadi.

Ijodkor harflarning o'ziga xosligini inobatga olib, har bir so'zga mos bo'lgan husnixat tanlay olish, uning harakatlarini topish, shu so'zning ruhiyatiga kirib borish uchun ko'plab bilimlarni egallash talab etiladi.

Topshiriqni ikki xil usulda, ya'ni foni oq, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki uni aksini ishlash mumkin. Mavzuning ruhiy kompozitsion jihatdan topilgan husnixatning eskizi tasdiqlangandan so'ng, uni 50×70 sm bo'lgan kartonga, ya'ni millimetrovkaga masshtabda kompozitsion to'g'ri joylashtiriladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga to'liq rioya qilinadi. Harflarni to'g'ri yozishda ular orasidagi masofaga, harflarni qaysi biri kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar ijodkor harflardan so'z yoziladigan bo'lsa, har bir so'z orasida kamida bir harf kengligida masofa tashlanadi.

Kompozitsiyani kartonga joylashtirishda, asosan, kompozitsiyaning ikki yon qismi va tepa qismidan bir xil masofa qol-

diriladi. Pastki qismidan esa ularga nisbatan ko‘proq joy qoldiriladi. Barcha qiyinchiliklar qoramalar tugatilib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan so‘ng, uni asl nusxaga o‘tkazishdan oldin uni yana bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Kartonning hajmi asl nusxasining hajmi bilan teng bo‘ladi. Kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga o‘tkazishdan oldin, karton orqa tomoni yumshoq qora qalam yoki ko‘mir bilan qoralab bo‘yab chiqiladi. Qoralangan kartonni qimirlab ketmasligi uchun planshetdagi asl nusxaga skochlab yoki knopkalanadi va barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga shoshmasdan o‘tkazib olinadi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun shriftlar guruhga ajratiladi?
2. Husnixatga kompozitsiya kerakmi?
3. Husnixatda xomaki nima uchun qidiriladi?
4. Husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Husnixatda qo‘llaniladigan kompozitsiya qanday bo‘lishi lozim?
6. Ijodkor husnixatining boshqalaridan farqi nimada?

Amaliy mashg‘ulot

Kompozitsiya ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

14–15-mavzular.

Ijodkor harflarni kartonga ishlash

Kompozitsiyani kartonga joylashtirishda asosan kompozitsiyani ikki yon qismi o'ng, chap tomoni va planshetni tepa qismidan bir xil masofa qoldiriladi. Pastki qismidan esa ularga nisbatan ko'proq joy qoldiriladi. Kartonning asosiy vazifasi harflarni planshetga kompozitsion to'g'ri joylashtirish. Barcha qiyinchiliklar qoralamalar tugatib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin uni yana bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Kartonning hajmi asl nusxasining hajmi bilan teng bo'ladi. Kartondagi chizmani asl nusxaga o'tkazishdan oldin, karton orqa tomoni qora qalam yoki ko'mir bilan qoralab chiqiladi. Qorlangan kartonning asl nusxa planshetga skochlab yoki knopkalab, barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga shoshilmay o'tkazib olinadi.

Nazorat savollari

1. Karton qanday hajmda bo'lishi lozim?
2. Karton nima uchun kerak?
3. Kartonga xomakini o'tkazishda masshtabga rioya qilinadimi?
4. Nima uchun husnixat harflar turlarga va variantlarga bo'linadi?
5. Broshyura va kitoblardagi husnixatning farqi nimada?
6. Qanday husnixat elementlarini bilasiz?
7. Husnixatda obraz nima uchun kerak?
8. Husnixatda birinchi va ikkinchi darajali elementlar qaysilar hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulot

Kartonda ishlash qoidalariga rioya qilish.

Ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

16–17-mavzular.

Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlash

Kompozitsion jihatdan topilgan qirqma husnixat eskizini 50×70 sm bo‘lgan kartonda, ya’ni masshtabga millimetrovkaga mos ravishda eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga to‘liq rioya qilinib, risoladagidek to‘g‘ri joylashtirilgandan so‘ng, kartondagi eskizni asl nusxadagi planshetga o‘tkazishda xomaki kartonning orqa tomonini yumshoq qalam bilan bo‘yab chiqiladi. Bo‘yalgan kartonni asl nusxa planshetga qimirlamaydigan qilib mahkamlab skochlanadi. Planshetga husnixatni aniqlashtirib chizg‘ich yordamida asl nusxaga tushirib olinadi. Asl nusxagi tushirilgan kompozitsiyani yana bir bor qaytadan aniqlashtirib chizib chiqiladi. Asl nusxaning toza va ozoda bo‘lishi uchun chizilgan husnixatni ustidan suyuq qilib oq guash bilan tekis qilib bo‘yab olinadi. Bu ishni qilishdan maqsad asl nusxa tugagandan keyin surkalgan joylarini oq guash bilan bo‘yalganda qog‘oz oqarib yoki sarg‘ayib qolmaydi, guash oq rangda bo‘lib, qog‘ozdan ajralib qolmasligi uchun bo‘yaladi. Guashni suyuq qilib bo‘yab chiqqandan so‘ng uni obdan qurishi poylanadi, guash obdan qurigandan so‘ng qalam bilan chizilgan husnixatni guash, tempera yoki akril bo‘yog‘i bilan bo‘yab chiqiladi. Chiziqlar obdan qurigandan so‘ng mo‘yqalam bilan husnixat ichlari guashga ozgina PVA yelim qo‘shib bo‘yalsa, qorishma mustahkam bo‘ladi. Harflar bo‘yalib bo‘lgandan so‘ng eng nozik ishlari qoladi. Har bir harfning uchlari tag qismi, gorizonta va vertika chiziqlarni aniqlashtirib risoladagidek bo‘lguncha qiyomiga keltirib ishlanadi.

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo‘lingandan so‘ng, ularni yana bir bor birma-bir ko‘zdan o‘tkazib, tuzatadigan joylarini nozik mo‘yqalam bilan to‘g‘rilab tekislanadi, surkalgan joylari oq guash bilan tozalab bo‘yaladi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarning qanday husnixat turini yoza olasiz?
2. Ijodkor harflarning husnixatini yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Ijodkor harflar so'zlari orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Ijodkor harflarning harflari orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Ijodkor harflarning qoralama eskizlari kerakmi?
6. Ijodkor harflarni yozishda kompozitsiya muhimmi?
7. Ijodkor harflar bilan yozishda kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
8. Ijodkor harflarning yozilishida eskiz kartoni kerakmi?
9. Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Amaliy mashg'ulot

Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlash qoidalariga rioya qilish.

Asl nusxani tugata bilish.

18–19-mavzular.

Ijodkor harflarning kamchiliklarini tugatish

Planshetdagi barcha harflar yozilib bo'linganidan so'ng, ularni yana bir bor, birma-bir ko'zdan o'tkazib, harflarning kompozitsion joylashishiga har bir harfning to'g'ri yozilish qoidalariga rioya qilish, harflarning qayerda qalin bo'lib, qayerda chiziq asta-sekin ingichkalashib, go'yoki ajoyib bir yoqimli (sinfoniya) kuyga o'xshab jonlanib qalin va ingichka bo'lib noziklashtirib chizilishi tomoshabinning beixtiyor e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun ish jarayonida pedagog us-

tozga tez-tez asl nusxani ko‘rsatib, maslahat va yo‘l-yo‘riqlar olib borish tavsiya etiladi. Ustoz ko‘rsatgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish uchun o‘zida bor tajriba va to‘plagan mahoratini ishga solib, tuzatilishi lozim bo‘lgan joylarini nozik mo‘yqalam bilan to‘g‘rilab tekislanadi, surkalgan joylarini oq guash bilan tozalab chiqiladi.

Nazorat savollari

1. Ijodkor harflarning yozilishi qanday tugatiladi?
2. Ijodkor harflarning husnixat kompozitsiyasi qanday bo‘lishi lozim?
3. Ijodkor harflarning so‘zlari orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Ijodkor harflarning harflari orasidagi masofa qanday bo‘lishi kerak?
5. Ijodkor harflarning qoralama eskizlarini qilish zarurmi?
6. Ijodkor harflarni yozishda kompozitsiya kerakmi?
7. Ijodkor harflar bilan yozishda kompozitsiyada nimalarga e‘tibor berish kerak?
8. Ijodkor harflar kartonga ishlanadimi?
9. Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlashda nima qilish lozim?

Amaliy mashg‘ulot

Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlash qoidalariga rioya qilish.

Asl nusxani talab darajasida tugata bilish.

20-mavzu.

Ijodkor harflarni ko‘rikka tayyorlash

Barcha ishlar tugallangandan so‘ng planshetni ehtiyot qilib qog‘oz bilan o‘rab qo‘yiladi. Chunki guash bilan ishlangan ishlar juda nozik bo‘lib, tezda kir bo‘lishi yoki boshqa narsalar tegib

ketsa, tez qirilishi va buzilishini oldi olinadi. Tugatilgan ishni ko‘rik hay‘at a‘zolariga baholash uchun taqdim etiladi.

Nazorat savollari

1. Asl nusxani ishlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Asl nusxani ishlashda nimalarga e‘tibor beriladi?
3. Asl nusxani ishlashda so‘zlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Asl nusxani ishlashda qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
6. Asl nusxani ishlashda kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
7. Asl nusxa kompozitsiyasini ishlashda qanday texnikadan foydalaniladi?
8. Asl nusxani ishlashda nima uchun eskiz karton kerak?
9. Asl nusxani talab darajasida tugatishda nima qilish lozim?

Amaliy mashg‘ulot

Asl nusxani talab darajasida ishlash qoidalariga rioya qilish.
Asl nusxani ko‘rikka tayyorlash.

III KURS.

II SEMESTR (8 soat)

1-mavzu.

Badiiy husnixat

Har qanday badiiy husnixat yozuv taraqqiyoti uchun uning alifbosi muhim sanaladi. I–V asrlarda (eramiz boshida) harflarni yozishda muhim evolutsiya sodir bo‘ldi. Bu esa turli xil sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, harflar oddiy shaklga keltiriladi, ikkinchidan, harflarni tez yozish va tez o‘qishga erishiladi. Har qanday oddiylik ham ratsional emas, harflarni oddiy shaklda yozish mumkin (doiraviy, kvadrat va uchburchak shakllarida), ammo ularni tez o‘qish mumkin emas. Faqat tez yozish va tez o‘qish mumkin bo‘lgan harflarni, tez ajratish mumkin bo‘lgan shaklnigina eng qulay deyish mumkin. Asr boshida rim harflari bunday talablarga javob bermas edi, unda harflar faqat katta harflar bilan yozilardi, ular ikki chiziq orasiga yozilib ko‘zni tez charchatardi.

XII–XV asrlar shohona yozuv chiroyliligi, aniqliligi, talablarga to‘liq javob berishiga qaramasdan, o‘zgarishiga asos bo‘lmasa-da, boshqa turdagi yozuvlar o‘zgarishiga olib keldi. XI asr oxiri va XII asrda yozuv o‘zgacha shakl topdi. Chunki bu davrda san’at va me’morchilikda asosli o‘zgarishlar yuz bera boshlagan edi. Bu evolutsiya rivojlangan davlatlarda ko‘zga tashlana boshlagan edi. Harflardagi yozuvlar qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldi, faqat ortiqcha shakllar olib tashlandi. Har bir davrning o‘ziga

xos husnixat turlari bo'lgan, bular o'sha muhit qandayligi haqida go'yo hikoya qilgandek bo'ladi.

Badiiy husnixatning o'ziga xosligi shundaki, har bir yoziladigan so'zning ruhiyatini, mazmunini to'laqonli ochsagina husnixat o'z obrazini topgan hisoblanadi. Badiiy husnixatlar turli mavzuda bo'lishi mumkin: qadimiyligi, zamonaviy, ma'lum bir millat yoki mintaqaga xos bo'lgan husnixat, ilmiy, texnikaviy, ommabop, fantastik, ko'rgazmali, tijoratga oid, bolalar mavzusini yoritadigan, insoniyatning barcha turmush tarzida uchraydigan turli mavzularga mos husnixatni to'g'ri tanlay olishda tajriba, malaka, ko'nikma va albatta amaliy mashg'ulot eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunga erishish uchun talaba o'z ustida tinmay mehnat qilishi, ustozi bilan maslahatlashib u bergan maslahat va ko'rsatmalariga amal qilinsa, tezroq yaxshi natijaga erishiladi.

Badiiy husnixatlardan o'ziga xosligini inobatga olib, har bir so'zga mos bo'lgan husnixat tanlay olish, uning harakatlarini topish, shu so'zni ruhiyatiga kirib borish uchun ko'plab bilimlarni egallash talab etiladi.

Nazorat savollari

1. Badiiy husnixatning insoniyat tarixida tutgan o'rni qanday?
2. Badiiy husnixat nimaga asoslanib tuzilgan?
3. Badiiy husnixat qaysi qonuniyatga asoslanadi?
4. Badiiy husnixatni yozishda so'zlar orasidagi masofa qancha bo'lishi kerak?
5. Badiiy husnixat deb qaysi husnixatga aytiladi?
6. Badiiy husnixat nima degani?
7. Badiiy husnixatni yozishda qanday ashyolardan foydalansa bo'ladi?
8. Badiiy husnixatda obraz bormi?
9. Badiiy husnixat yozishda iste'dod birlamchimi yoki mahoratmi?
10. Badiiy husnixat xomakisini ishlashda asosiy manbani o'quvchi qayerdan oladi?

Amaliy mashgʻulot

Badiiy husnixat yozishda harflarni toʻgʻri yozishni oʻrganish.

Badiiy husnixat yozishda harflarning shakliga eʼtibor berib yozish.

2-mavzu.

Badiiy husnixatga xomaki qidirish

Badiiy husnixatga xomaki ishlashda, avvalambor, badiiy harf oʻzi nima, qanday ish qilish mumkin, buning uchun nima qilish lozim? Oʻquvchi xomaki ishlashdan oldin, oʻquvchi murabbiy tomonidan badiiy harflar toʻgʻrisida umumiy maʼlumot, koʻrsatma va turli mavzularga oid tavsiyalar olib, mavzu haqida kengroq tushunchaga ega boʻladi. Oʻquvchilarga badiiy harflarga xomaki ishlashga ixtiyoriy ravishda mavzu tanlash imkoni beriladi, oʻquvchi oʻz oldiga mavzuni toʻlaqonli ochib berishni asosiy maqsad qilib qoʻyib, buning ustida tinmay ishlashi kerak boʻladi. Birinchidan, shu mavzuga oid turli adabiyotlar, qoʻlyozmalar, arxiv materiallari, hujjatlari, fotosuratlar, internet maʼlumotlari, videofilmlar va boshqa ashyoviy dalillarni qunt bilan erinmasdan birma-bir oʻrganib chiqib, shu soha boʻyicha mutaxassislarning koʻrsatma va maslahatlariga asoslanib ishlansa, badiiy harflar real voqelikni aks ettirgan boʻlib, oddiy va hatto professional, tomoshabin diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etadigan sanʼat asari yaratiladi.

Bunday sanʼat asariga erishish uchun uning kelib chiqish tarixi, qaysi xalqqa mansubligi, qanday muhitda paydo boʻlganligi, uning koʻrinishi, shakli, rangi, hajmi, qaysi ashyoda ishlanganligi, ishlanish texnikasi va boshqa koʻplab omillarni oʻrganib ustoz-oʻqituvchi bilan maslahatlashib, xomaki ishlashga kirishish mumkin.

Xomaki ishlashda o'quvchining vaqtini va ashyosini tejash maqsadida A 4 formatdagi qog'ozga asl nusxa hajmining mashtabda o'n baravar kichiklashtirib 5×7 sm hajmda gorizontaal va vertikal to'rtburchak shakllarga bo'lib chiqilib, bu shakllar ichiga turli xil ko'rinishga ega bo'lgan xomaki variantlar qidiriladi.

Xomaki ishlashda yumshoq grafik ashyolardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki yumshoq grafik ashyo bilan o'quvchi o'zida tug'ilgan mavzuga oid dastlabki fikr-mulohazalarni tez amalga oshirishda juda qo'l keladi. O'quvchi mavzuga oid bo'lgan dastlabki fikr-mulohazalarni ustoz-o'qituvchisiga ko'rsatadi, xomakilar ichidan mavzuni yoritishga yaqin keladigan dastlabki chizmalarni ajratib olib, chizma xomakilarini yanada rivojlantirish uchun shu mavzu ustida o'qib o'rganib, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan bundan-da murakkablashtirib borish jarayoni boshlanadi.

Nazorat savollari

1. Badiiy husnixatni ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Badiiy husnixatga o'quvchi xomaki ishlash uchun nima qilishi kerak?
3. Badiiy husnixatga xomaki ishlashda asosiy manbani qayerdan oladi?
4. Badiiy husnixat xomaki san'at asari bo'lishi uchun nima qilish lozim?
5. Badiiy husnixatga xomaki ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Badiiy husnixatga xomakida qo'llaniladigan metodlar qaysilar?
7. Badiiy husnixatga xomaki qidirishda qanday ashyolardan foydalaniladi?

Amaliy mashgʻulot

Badiiy husnixatga xomaki ishlash qoidalariga rioya qilish.

Badiiy husnixatga xomaki ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajalilarini ajrata olish.

3-mavzu.

Badiiy husnixatni kartonda ishlash

Topshiriqni bir qancha usulda, ya'ni foni oq bo'lsa, harflarni qora bilan yozish mumkin yoki uni aksini ishlash mumkin. Kompozitsion jihatdan topilgan husnixatni eskiz tasdiqlangandan so'ng, uni 50×70 sm bo'lgan kartonga, ya'ni millimetrovkaga masshtabda joylashtiriladi. Eskizni kattalashtirish jarayonida harflarning yozilish qoidalariga to'liq rioya qilinadi. Harflarni to'g'ri yozishda ular orasidagi masofaga, harflarning qaysi biri kelishiga qarab joylashtiriladi, bunda ikki tomoni ochiq, o'ng tomoni ochiq, chap tomoni ochiq va ikki tomoni yopiq harflarning shakli, hajmi, kengligi, torligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar so'z yoziladigan bo'lsa, har bir so'z orasida bir harf kengligida masofa tashlanadi.

Kompozitsiyani kartonga joylashtirishda asosan kompozitsiyani ikki yon qismi va tepa qismidan bir xil masofa qoldiriladi. Pastki qismidan esa ularga nisbatan ko'proq joy qoldiriladi. Kartonda barcha qiyinchiliklar, qoralamalar tugatilib, kartonga chiroyli joylashtirilgandan so'ng, uni asl nusxaga o'tkazishdan oldin bir bor yaxshilab tekshirib olinadi.

Karton hajmi asl nusxasining hajmi bilan teng bo'ladi. Kartondagi chizmani asl nusxaga o'tkazishdan oldin, kartonning orqa tomoni qora qalam yoki ko'mir bilan qoralab chiqiladi. Qoralangan kartonning asl nusxasi planshetga skochlab yoki

knopkalab barcha kartondagi chizilgan husnixatni asl nusxaga o'tkazib olinadi.

Nazorat savollari

1. Badiiy husnixat nima uchun shriftlar guruhga ajratiladi?
2. Badiiy husnixatga kompozitsiya kerakmi?
3. Badiiy husnixatga xomaki nima uchun qidiriladi?
4. Badiiy husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Badiiy husnixatda qo'llaniladigan kompozitsiya qanday bo'lishi lozim?
6. Badiiy husnixatning boshqalardan farqi nimada?

Amaliy mashg'ulot

Badiiy husnixatga kompozitsiya ishlash qoidalariga rioya qilish.

Badiiy husnixatni ishlash jarayonida kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarini ajrata olish.

4-mavzu.

Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlash

Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda o'quvchi uch yilda husnixatdan olgan bilim, tajriba, ko'nikmalarini ishga solib san'at darajasida amaliy ish qiladi. Barcha ishlar tugallangandan so'ng planshetni ehtiyot qilib qog'oz bilan o'rab qo'yiladi. Chunki guash bilan ishlangan ishlar juda nozik bo'lib, tezda kir bo'lishi yoki boshqa narsalar tegib ketsa, tez qirilishi va buzilishini oldi olinadi. Tugatilgan ishni ko'rik hay'at a'zolariga baholash uchun taqdim etadi.

Nazorat savollari

1. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda soʻzlar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
4. Badiiy husnixatda harflar orasidagi masofa qanday tanlanishi kerak?
5. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
6. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
7. Badiiy husnixatning asl nusxasi kompozitsiyasini ishlashda qanday texnikadan foydalaniladi?
8. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlashda nima uchun eskiz karton kerak?
9. Badiiy husnixatning asl nusxasini talab darajasida tugatishda nima qilish lozim?

Amaliy mashgʻulot




Badiiy husnixatning asl nusxasini talab darajasida ishlash qoidalariga rioya qilish.



Badiiy husnixatning asl nusxasini koʻrikka tayyorlash.

ILOVA


Qirqma shrift kompozitsiyalari




















АРОМАТ 
 ГЕНИИ 
 ГЕРОИ 
 НАПРАВО ОВЕЛАН
 ГОРЬКИЙ СЛАДКИЙ
 ПЛОСКИЙ 
 ВИДИКИЙ 



НОЗЫЙ СТАРЫЙ
 ФАКТУРНЫЙ ГЛАДКИЙ
 ТЯЖЕЛЫЙ ЛЕГКИЙ
 ЧИСТЫЙ ГРЯЗНЫЙ
 ОБЪЕМНЫЙ ПЛОСКИЙ

ОБУСЬ
 РАБОТА
 МОРОЗ
 РОЗА
 ПЕРЬЯ

ЖИВА
 УЗОР
 МЕО
 КОСМОС
 МУЗЫКА
 МАСКА









МАУГЛИ

Красная шапочка

КОЛОБОК

Незнайка

Дюймовочка

БУРАТИНО

Снежная королева

Золушка



С НОВЫМ 2014 ГОДОМ!!!



БАКА

ШЕФОВЫ

ДЕД МОРОЗ

Снегурочка

ДЕТИ

ИГРУШКИ

ПОДАРОК

ШАПКА

Сани

Снежок

CLEAN

DIRTY


COLOURFUL

UNICOLOUR

WIDE

STRAIGHT

NARROW







MAVZULAR YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

1. Soʻzlar orasidagi masofa qancha boʻlishi kerak?

- a) toʻrt harf;
- b) uch harf;
- d) ikki harf;
- e) bir harf.

2. Akademik harflarning qalin va ingichka chiziqlari eng kamida qancha boʻlishi kerak?

- a) uchta;
- b) oʻnta;
- d) beshta;
- e) toʻrtta.

3. «A» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

4. «Ж» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

5. «П» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;

- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

6. «М» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

7. «О» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

8. «С» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

9. «Е» harfi qaysi harf turiga kiradi?

- a) ikki tomoni yopiq;
- b) chap tomoni yopiq;
- d) oʻng tomoni yopiq;
- e) ikki tomoni ochiq.

10. Harflarni joylashtirishda qaysi usuldan foydalaniladi?

- a) markaz, bayroqqa nisbatan;

- b) harflarni katta-kichikligiga;
- d) harflarning joylashishiga;
- e) hammasi to'g'ri.

11. Karton nima uchun kerak?

- a) harflarni joylashtirish uchun;
- b) harflarni kattalashtirish uchun;
- d) asl nusxaga moslash uchun;
- e) hammasi to'g'ri.

12. Eskiz nima uchun kerak?

- a) kompozitsiya qidirish uchun;
- b) mavzu qidirish uchun;
- d) kompozitsiyani aniqlash uchun;
- e) hammasi to'g'ri.

13. Tush qanday xususiyatga ega?

- a) yaltirash;
- b) bo'yalish;
- d) chizish;
- e) hammasi to'g'ri.

14. Tush qanday xususiyatga ega?

- a) matoviy;
- b) bo'yalish;
- d) suvda erish;
- e) hammasi to'g'ri.

15. «O» harfiga o'xshash harflar qaysi?

- a) «C», «fO», «E» harflari;
- b) «B», «H», «P» harflari;
- d) «b», «bI», «Φ» harflari;
- e) «H», «H», «Π» harflari.

16. «H» harflariga o'xshash harflar qaysi?

- a) «T», «Y», «Φ» harflari;
- b) «M», «J», «Ч» harflari;
- d) «Π», «H», «C» harflari;
- e) hammasi to'g'ri.

17. «B» harflariga o'xshash harflar qaysi?

- a) «b», «O», «Φ», harflari;
- b) «B», «O», «C», harflari;
- d) «B», «b», «P», «bI» harflari;
- e) «H», «O», «Φ», «Π» harflari.

18. «E» harflariga o'xshash harflar qaysi?

- a) «K», «Γ»;
- b) «E», «Γ»;
- d) «H», «E»;
- e) «Π», «Γ».

19. Harflar orasidagi masofa qanday aniqlanadi?

- a) harflar turiga qarab;
- b) harflarni bir-biriga qiyoslab;
- d) harflar oldidagi va orqasidagiga qarab;
- e) harflarining katta-kichikligiga qarab.

20. Katta harflarga nisbatan kichik harflar qanday bo'lishi kerak?

- a) ikki baravar;
- b) uch baravar;
- d) to'rt baravar;
- e) besh baravar.

21. Simmetrik harflar qaysilar?

- a) «А», «Ж», «К», «Т»;
- b) «Х», «Р», «Ю», «К»;
- d) «А», «Ж», «Н», «П»;
- e) «П», «Т», «Б», «Е»;

22. Asimmetrik harflar?

- a) «А», «Д», «Л»;
- b) «Б», «В», «Г»;
- d) «Р», «С», «Н»;
- e) «И», «Е», «Я».

23. Hattotlik yozishning ma'nosi nima?

- a) yozish san'ati;
- b) harflar to'plami;
- d) chiroyli yozuv;
- e) husnixat yozuvi.

24. Kirill alifbosida necha harf bor?

- a) 36 ta;
- b) 33 ta;
- d) 32 ta;
- e) 29 ta .

25. Qadimgi rus husnixati nechanchi asrda paydo bo'lgan?

- a) IV–XVI asrlarda;
- b) XVI–XVII asrlarda;
- d) XVII–XVIII asrlarda;
- e) XVIII–XIX asrlarda.

26. Qog'oz nechanchi asrda, qayerda paydo bo'lgan?

- a) Samarqandda VII asrda;
- b) Yaponiyada VI asrda;

- d) Xitoyda II asrda;
- e) Eronda II asrda.

27. Qog'oz nimadan olinadi?

- a) turli chiqindilardan;
- b) suv o'tidan;
- d) o'simlik tolasidan;
- e) gullar bargidan.

28. Qog'ozdagi yog' dog'i qanday ketkaziladi?

- a) tozalab yuviladi;
- b) sovun bilan tozalanadi;
- d) nashatir spirti bilan artiladi;
- e) dog' joyi qiriladi.

29. Sifatli qog'oz qanday aniqlanadi?

- a) qog'oz qalin bo'lishi lozim;
- b) suvni yaxshi shimishi, chidamli bo'lishi kerak;
- d) yelimlanishi, bo'yoqni o'ziga yaxshi olishi lozim;
- e) o'chirg'ich bilan o'chirganda iz qolmasligi shart.

30. Karton nima degani?

- a) xomaki nusxa degani;
- b) asl nusxa ishlashdan oldingi jarayonga aytiladi;
- d) xomakini asl nusxa hajmida kattalashtirilgan aniq nusxasi degani;
- e) tugallangan eskiz nusxasi.

31. Kartoning vazifasi nimadan iborat?

- a) xomaki nusxa ko'rinishidan iborat;

- b) kompozitsiyaning asosini ishlashni maqsad qiladi;
- d) eskizning asl nusxa hajmida kattalashtirib ishlangan nusxasi;
- e) kompozitsiyaning bir bo'lagidan iborat.

32. Guash bo'yog'ining qanday xususiyatlari bor?

- a) ocharish xususiyatiga ega;
- b) matoviy tusga egaligi;
- d) oq rangning ishtirok etishi;
- e) qurigandan so'ng ocharish, matoviy tusi, oq rang borligi.

33. Tempera bo'yog'ining afzalligi nimada?

- a) har qanday ashyoga yaxshi bo'yalishi;
- b) tez qurish xususiyatiga ega;
- d) qurigandan so'ng rangi o'zgarmaydi;
- e) ustma-ust ranglar bo'yaganda yaxshi bo'yalishi, ishni tez qurishi, ranglar o'zgarmaslik sifatlariga ega.

34. Akril bo'yog'i xususiyatlaridan nimalarni bilasiz?

- a) bo'yalgandan keyin tez quriydi;
- b) suvda eriydi, qo'lga yuqmaydi;
- d) biroz yaltiroq xususiyatiga ega;

- e) boshqa suv bo'yoqlari bilan yaxshi aralashadi;
- f) hammasi to'g'ri.

35. Birinchi bosma stanok qachon paydo bo'lgan?

- a) Gollandiyada 1500–1504-yillarda;
- b) Angliyada 1438–1441-yillarda;
- d) Germaniyada 1441–1445-yillarda;
- e) Fransiyada 1505–1510-yillarda.

36. Ko'rgazma deganda nimani tushunamiz?

- a) badiiy ko'rgazmalar san'at asarlarini ommaviy namoyish etish joyi;
- b) maxsus ko'rgazma zallarni tushunamiz;
- d) maxsus qurilgan yoki moslashtirilgan binolardagi ko'rgazmalar o'tkaziladigan joy;
- e) muzey madaniyat saroyi, jamoat binolarini tushunamiz.

37. Birinchi ko'rgazma qachon va qayerda bo'lib o'tgan?

- a) miloddan oldin III–II asrlarda Yunonistonda bo'lgan;
- b) miloddan oldin III–I asrlarda Rimda o'tkazilgan;
- d) miloddan oldin IV–II asrlarda Misrda bo'lgan;

e) miloddan oldin II–I asrlarda Xitoyda o‘tkazilgan.

38. Tijorat plakatining asosiy maqsadi nimalardan iborat?

- a) tovarni tez sotishga ko‘maklashish;
- b) tovarga kafolat berishdan iborat;
- d) tovar afzalligini xaridorga yetkazish;
- e) tovarni foydali va sifatini xaridorga ko‘rsatishdan iborat.

39. Tijorat plakati qanday tasvirlanishi lozim?

- a) tezroq xaridor topishda tasvir yorqin rangda bo‘lishi lozim;
- b) tijorat plakatining husnixati chiroyli yozilishi kerak;
- d) tovarning afzallik va sifatini xaridorga tezroq ma‘lum qilishda tijorat plakati oddiy, sodda yorqin ranglarda bo‘lishi shart;
- e) tovardan tezroq foyda ko‘rishga qaratilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

40. E‘lon va afishalarning vazifasi nimadan iborat?

- a) bo‘ladigan hodisani oldindan tushuntirish;
- b) axborotni tezroq tinglovchiga yetkazish;
- d) tadbir, voqea va hodisalarni oldindan ogohlantirish;

e) o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish.

41. Afisha va e‘lonlarni yozishda qanday husnixat tanlanadi?

- a) husnixatni uzoqdan yaxshi o‘qilishini inobatga olish kerak;
- b) katta husnixat bilan yozish lozim;
- d) mavzuga mos husnixat tanlashga e‘tibor berish kerak;
- e) husnixatni bexato yozish shart.

42. Diagramma orqali nimalar ifodalanadi?

- a) korxona ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari ko‘rsatiladi;
- b) korxonaning o‘sish sur‘ati yoki aksi bildiriladi;
- d) korxona va tashkilotlarning ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumotlar majmuasi;
- e) ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlar haqida.

43. Erkin mavzuni berishdan maqsad nima?

- a) o‘quvchining xohlagan mavzusida ishlashga ruxsat berish;
- b) o‘quvchi o‘ziga yoqqan mavzusida ish qilishga erishadi;
- d) o‘quvchining ijodiy o‘sishiga erkinlik berish;
- e) o‘quvchiga o‘z ustida mustaqil ishlash imkonini yaratish;
- f) hammasi to‘g‘ri.

44. Shior yozishda bo'g'in olib yozish mumkinmi?

- a) bo'g'in ko'chirish mumkin;
- b) sharoitdan kelib chiqib ishlash mumkin;
- d) bo'g'in ko'chirish mumkin emas;
- e) bo'g'in ko'chirishda matnga qarab ish tutiladi.

45. Konstovar perolari qanday hajmda bo'ladi?

- a) 1 mm dan 20 mm gacha bo'ladi;
- b) 3 mm dan 30 mm gacha uchraydi;
- d) 1 mm dan 25 mm gacha ishlab chiqariladi;
- e) 2 mm dan 20 mm gacha mavjud.

46. Pero bilan yozishda qaysi ashyolardan foydalansa bo'ladi?

- a) tush, guash, moybo'yoq, tempera ashyolaridan foydalaniladi;
- b) moybo'yoq, tush, guash, akril ashyosi ishlatiladi;
- d) tush, guash, tempera, suv bo'yoq qo'llaniladi;
- e) suvbo'yoq, moybo'yoq, tushlardan foydalansa bo'ladi.

47. Pero bilan yozganda ashyo qanday suyuqlikda bo'lishi lozim?

- a) suyuq holda bo'lishi shart;
- b) quyuq holda bo'lishi kerak;
- d) o'rtacha bo'lishi lozim;
- e) suyuq, o'rtacha darajada bo'lsa maqsadga muvofiq.

48. Dumaloq mo'yqalamning qanday turlari mavjud?

- a) 1 dan 24 gacha hajmda uchraydi;
- b) 1 dan 30 gacha hajmda bo'ladi;
- d) 1 dan 40 gacha hajmda ishlab chiqariladi;
- e) 1 dan 50 gacha hajmli turlari mavjud.

49. Yapaloq mo'yqalamning qanday turlari bor?

- a) 1 dan 12 gacha hajmda uchraydi;
- b) 1 dan 24 gacha hajmda bo'ladi;
- d) 1 dan 40 gacha hajmda ishlab chiqariladi;
- e) 1 dan 50 gacha hajmda turlari mavjud.

50. Husnixat qanday san'at turi?

- a) go'zal shakllar san'ati turidir;
- b) insonlarning ma'lumot almashish vositasi;
- d) yozma harflar to'plami;
- e) harflar ketma-ketligi.

51. Husnixat yozishda nimalarga e'tibor beriladi?

- a) mukammallik, uygʻunlik, simmetriya, asimmetriya, ritm, shakl, oʻziga xoslik, bir xillik va umumiylikka;
- b) chiroyli yozishga ahamiyat berish kerak;
- d) xatosiz yozishga eʼtibor berish lozim;
- e) oson oʻqilishi shart.

52. Husnixatga mavzu tanlashda nimalarga eʼtibor beriladi?

- a) hayotiy tajribaga asoslanib tanlanadi;
- b) dolzarbligiga qarab tanlanadi;
- d) hayotiylikiga va zamonaviyligiga qarab tanlanadi;
- e) husnixat garniturasiga eʼtibor berib ishlanadi.

53. Husnixatda sujet nima degani?

- a) mavzuni aniq ifodalashni bildiradi;
- b) mohiyat va maʼno birlamchi degani;
- d) estetik va goʻzallikni anglatadi;
- e) chiroyli va xatosiz yozishni bildiradi.

54. Husnixatda kompozitsiya nima degani?

- a) badiiy asar koʻrinishi degani;

- b) asarni toʻgʻri joylashtirishni bildiradi;
- d) asar gʻoyasini ifodalashni anglatadi;
- e) husnixat asosini bilish degani.

55. Garnitura degani nima?

- a) harflarni tafovutlar orqali yozish degani;
- b) harflar tartibi va ketma-ketligini anglatadi;
- d) harflarning shakl-shamoyilini bildiradi;
- e) bir xil turkumdagi harflar majmuasi.

56. Alifbo bu nima?

- a) harflar yigʻindisini bildiradi;
- b) harflar majmuasi degani;
- d) harflar tartibi, oʻxshashligi, maʼnosini bildiradi;
- e) harflarning oʻzaro munosabatini anglatadi.

57. Alifboning koʻrinishi qanday?

- a) turli belgilarga asoslangan boʻladi;
- b) geometrik shakllarga asoslangan boʻlishi kerak;
- d) toʻgʻri chiziqlardan iborat boʻlishi lozim;
- e) egri chiziqlardan iborat boʻlishi shart.

58. Alifboning asosiy vazifasi nimalardan iborat?

- a) barcha yozilgan fikrlarni tarixga muhrlashdan iborat;
- b) soʻzlar tartib bilan yozilishi lozim;
- d) fikrlar aniq yozilishi kerak;
- e) bexato yozishdan iborat.

59. Yozuvning vazifasi nimadan iborat?

- a) maʼlumotlarni boshqa bir insonga yetkazishi lozim;
- b) harflar tartibi bilan yozilishiga ahamiyat berish kerak;
- d) insonlarga xabar va maʼlumotlar berishdan iborat;
- e) harflarni ketma-ketlikda yozish tartibi.

60. Alifbo nimaga asoslanadi?

- a) tovushlar ohangiga asoslanadi;
- b) soʻzlarning toʻgʻri tuzilishini anglatadi;
- d) jumalarning qofiyali yozilishini bildiradi;

- e) harflar ketma-ketligiga asoslanadi.

61. Husnixat shakllari qanday boʻlishi lozim?

- a) oʻqish va yozish uchun qulay boʻlishi kerak;
- b) jozibador va goʻzal boʻlishi lozim;
- d) estetik chiroyli boʻlishi kerak;
- e) oddiy va sodda shaklda boʻlishi shart.

62. Musiq va husnixat oʻrtasida qanday oʻxshashlik bor?

- a) tovush va harflar estetik zavq berishi;
- b) ohang va shakllarning insonga taʼsir etishi;
- d) tovush va harflarning bir-biridan farqli boʻlishi;
- e) kuy va husnixatni oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq tomonlari borligi.

SAVOLNOMALAR

(Amaliy mashg'ulotlar uchun)

1. Nima uchun shriftlar guruhlariga ajratiladi?
2. Husnixat fanining predmeti nima?
3. Husnixat fanining rivojlanish tarixi qanday?
4. Husnixat fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimada?
5. Husnixatda qo'llaniladigan metodlar qaysilar?
6. Harflarda qo'llaniladigan metodlar qaysilar?
7. Akademik husnixatning boshqalaridan farqi nimada?
8. Alifboda o'ng tomoni yopiq harflarga qaysilar kiradi?
9. Alifboda o'ng tomoni ochiq harflarga qaysilar kiradi?
10. Alifboda chap tomoni ochiq harflarga qaysilar kiradi?
11. Alifboda ikki tomoni ochiq harflarga qaysilar kiradi?
12. Alifboda ikki tomoni yopiq harflarga qaysilar kiradi?
13. O'xshash harflarning bir-biri bilan bog'liqlik joyi nimada?
14. Husnixatda formatlar nima uchun kerak?
15. Nima uchun husnixat harflari turlarga va variantlarga bo'linadi?
16. Broshyura va kitoblardagi husnixatning farqi nimada?
17. Gazeta va jurnallarda qo'llaniladigan husnixatlarning qaysi turlarini bilasiz?
18. Qanday husnixat elementlarini bilasiz?
19. Husnixatda obraz nima uchun kerak?
20. Obrazlarning manbalari qayerdan olinadi?
21. Husnixatda birinchi va ikkinchi darajali elementlar qaysilar?
22. Qanday husnixat garnituralarini bilasiz?
23. Husnixat yozishda nimalarga e'tibor beriladi?
24. So'zlar orasidagi masofa qanday yozilishi kerak?
25. Harflar orasidagi masofa qanday yozilishi kerak?
26. Qoralama eskizlar nima uchun qilinadi?
27. Kompozitsiya muhimmi yoki mavzumi?
28. Kompozitsiyada nimalarga e'tibor berish kerak?
29. Nima uchun eskiz karton qilinadi?
30. Asl nusxani ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

GLOSSARIY

Abrisa – tashqi ko‘rinish, xomaki reja.

Abbru-bahor – sirti betakror rangli dog‘lar bilan qoplangan qog‘oz.

Abstraksiya – mavhum shakl va chiziqlardan iborat tasviriy san‘at asari.

Afisha – tomosha haqida e‘lon.

Akkompanement – jo‘rlik.

Akril – asosi sun‘iy, suvli bo‘yoq turi.

Aksent – asar yaratishda kerakli joylarga urg‘u berish.

Akvatinta – ofortning bir turi bo‘lib, maxsus ruh taxtachadagi chizma shakllarni soya farqlarga ajratib ishlash.

Arxitektonika – kitob elementlarining joylashtirish qurilmasi.

Asfaltu – bitum va mineral moddalar aralashmasidan iborat tabiiy va sun‘iy massa, qorishma.

Avantitul – tituldan oldingi bet.

Avtografskiy – toshbosma uchun maxsus qog‘oz turi (kornpapier).

Avtolitografiya – mualliflik toshbosma asari.

Bigovka– tayyor bosma mahsulotini buklash joyidagi botiq chiziq.

Blik – yorug‘lik nuri eng ko‘p aks etgan yaltiroq joy.

Bukvisa – matn boshlanishidagi naqshli bosh harf.

Duradgor yelimi – jonivorlar teri, shox, suyaklarini qaynatish orqali olingan yelim.

Foreskiz – xomaki nusxadan oldingi birlamchi chizgilar.

Forma – qolip.

Forma – shakl.

Format – o‘lcham.

Forzas – kitob varaqlarini muqova bilan biriktirib turadigan qog‘oz yoki latta.

Fragment – asarning kichik bir lavhasi.

Frontispis – titul yoniga joylashtirilgan rasm va kitobning asosiy mazmunining tasviri.

Garnitura – harflarning tafovuti, narsaning yigʻindisi.

Gladilka (tekislagich) – tekislagich asbob, taxtachadagi keraksiz chiziqlarni ketkazgich.

Grunt – boʻyoq, qogʻoz, matoning orqa tomoniga oʻtib ketishini oldini olish maqsadida sath teshiklarini berkitish.

Guash – fransuz tilida hoʻl, botqoq maʼnosini beradi. Suvli boʻyoq turi.

Kamed – mevali daraxt tanasida hosil boʻladigan modda.

Kazein – tvorog mahsulotidan tayyorlangan yelim..

Koʻmir qalamchasi – havosiz muhitda kuygan novda qalamchasi.

Messopotamiya – Yaqin sharqdagi Tigr va Efrat daryolari orasidagi madaniyati taraqqiy etgan eng qadimgi davlatlar joylashgan hudud.

Naturmort – jonsiz buyumlar tasviri.

Obraz – asar ruhiyatini ochish, siymo, timsol.

Ofort – mis, ruh plastinkalarga tasvir tushirilib, maxsus asboblarda chiziladi, kislotada ishlov berilib, soʻngra bosma usulda nusxa olish.

Ofset – bosma formadan rezina moslamaga koʻchirib, undan qogʻozga bosish usuli.

Ornament – naqshli bezak.

Palitra – boʻyoqlarni aralashtirish uchun yasalgan maxsus taglik.

Panno – devorga oʻrnatilgan sanʼat asari.

Pape – mashe – tosh qogʻoz.

Papirus – Misrdagi Nil daryosi boʻylarida oʻsadigan qamishsimon oʻsimlik.

Pastel – pigment bogʻlovchidan tashkil topgan qobiqsiz, yogʻoch qobiqli rangli qalamlar. Bugungi kunda yogʻoch qobiqli pastel qalamlari ishlab chiqarilmoqda.

Pechat – bosma.

Pereplet – kitob qattiq muqovasi, jild.

Pergament – teridan tayyorlangan yozuv ashyosi.

Perspektiva – qisqarish.

Pigment – mayda zarrachalardan iborat rang kukuni.

Qirtishlash (viskryobanie) – ish taxtachasidagi keraksiz joylarni qirish.

Sangina – asosi pigment boʻlgan qizgʻish rangli qobiqsiz qalamlar.

Bugungi kunda yogʻoch qobiqli sangina qalamlari ishlab chiqariladi.

Selluloza – maʼnosi *tola* degani; uning tabiatdagi sof holda koʻrinishi paxta chigitidagi tuklar.

Sinkografiya – grafika texnikasi rux plastinkaga kislotada fotografiya tushirish.

Smola – ignabargli daraxt tanasida hosil boʻladigan modda.

Suvli boʻyoq – suvda eruvchi boʻyoqlar: akvarel, guash, tempera, akril boʻyoqlari.

Tempera – qaytmas xususiyatiga ega suvli boʻyoq nomi.

Test – egallangan bilim, malaka va koʻnikmalarni kompyuter dasturida tekshirish yoki baholash maqsadlarida qoʻllaniladi.

Vikrivanie – metall taxtachani kislotada ishqorlanmasligi uchun maxsus lak bilan berkitish.

Xarakter – feʼl, axloq, xulq tasviri sanʼatda modelning ichki va tashqi holatini oʻziga xosligini belgilaydi.

Yuqori bosma (Visokaya pechat) – taxtachadagi bosma olish elementlarining balandda joylashuvi.

Shaber – ofortda ishlatiladigan asbob.

Shrift – bosma harf.

Shtrix – turli yoʻnalishdagi chiziqlar.

Shyolk – ipak mato.

Chuqur bosma (glubokaya pechat) – ish taxtachasida bosma elementlarning chuqur joylashuvi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.Karimov*. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «O'zbekiston». 2008.
2. *I.Karimov*. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: «O'zbekiston». 2009.
3. O'zbekiston Ensiklopediyasi, 2002.
4. Toshkent «San'at» jurnali nashriyoti. O'quv qo'llanma, 2010.
5. *N.T. Xusanov*. Grafika. – T.: «Sharq» nashriyoti. O'quv qo'llanma, 2006.
6. *C.II. Смирнов*. Шрифт в наглядной агитации. – М.: «Плакат». 1987.
7. *Альберт Капр*. Эстетика искусства шрифта. – М., 1979.
8. *N. Saidahmedov*. Pedagogik texnologiya va mahorat. – T., 2007.
9. ALBERT KAPR SCHRIFTRUNST Dresten. 1971.
10. *C.II. Смирнов*. Шрифт и шрифтовой плакат. – М.: «Плакат». 1980.
11. *В. Матвеев*. Шрифты. Изд. – М.: «Искусство». 1954.
12. *П.А. Семченко*. Основы шрифтовой графики. – Минск, 1978.

Internet saytlari

www.vgik.info

www.pencil.nm.ru

www.Ziyonet.uz

www.MRDI.uz

www.msus.org.

www.artacademu.spd.ru

www.nbgf.intal.uz

www.nbgf.intal.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Qirqma husnixatda to‘g‘ri yozish qoidalari.....	6
2-mavzu. «A», «Б», «В», «Г», «Д», «Е», «Ё» harflarini yozish qoidalari	9
3-mavzu. «Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З» harflarini yozish qoidalari	12
4-mavzu. «И», «Й», «Н», «П», «С» harflarini yozish qoidalari	13
5-mavzu. «М», «Ш», «Щ» harflarini yozish qoidalari.....	14
6-mavzu. «О», «С», «Э», «Ю» harflarini yozish qoidalari.....	16
7-mavzu. «Р», «Т», «Ъ», «Ы», «Я» harflarini yozish qoidalari.....	17
8-mavzu. «F», «T», «Ў», «Y», «Ф», «X», «Х», «Ч» harflarini yozish qoidalari.....	18
9-mavzu. «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarini yozish qoidalari.....	20
10-mavzu. «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozish qoidalari.....	22
11-mavzu. Qirqma husnixatda yozilgan harflardan kompozitsiya yaratish	23
12-mavzu. Qirqma husnixatni kartonda ishlash	25
13-mavzu. Asl nusxani ishlash	26
14-mavzu. Asl nusxani ko‘rikka tayyorlash	28
 I KURS. III SEMESTR (40 soat).....	 32
1-mavzu. Gulsimon harflar.....	32
2-mavzu. Gulsimon «A», «Б», «В», «Г» harflarini yozish qoidalari	35

3-mavzu. Gulsimon «Д», «Е», «Ё», «Ж» harflarini yozish qoidalarini	37
4-mavzu. Gulsimon «З», «И», «Й», «К», «Қ» harflarini yozish qoidalarini	39
5-mavzu. Gulsimon «Л», «М», «Н», «О» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	41
6-mavzu. Gulsimon «П», «Р», «С», «Т» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	43
7-mavzu. Gulsimon «У», «Ф», «Х», «Х» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	46
8-mavzu. Gulsimon «Ў», «Қ», «Ғ», «Б» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	48
9-mavzu. Gulsimon «Б», «Д», «Ч», «Ш» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	50
10-mavzu. Gulsimon «Э», «Ю», «Я» harflarini yozish qoidalarini o'rganish	52
11-mavzu. Gulsimon «1», «2», «3», «4», «5» raqamlarining yozilish qoidalarini o'rganish	54
12-mavzu. Gulsimon «6», «7», «8», «9», «0» raqamlarini yozish qoidalarini o'rganish	57
13-mavzu. Gulsimon barcha harflarni yozish qoidalarini o'rganish	59
14–15-mavzular. Gulsimon harflarga kompozitsiya qidirish	61
16–17-mavzular. Gulsimon harflarni kartonda ishlash	62
18–19-mavzular. Asl nusxani ishlash	64
20-mavzu. Asl nusxani ko'rikka tayyorlash	68

II KURS. I SEMESTR (16 SOAT)	70
1-mavzu. Akademik harflar	70
2-mavzu. Akademik husnixatdan nusxa olish	72
3-mavzu. Akademik «Д», «Л», «Ж», «К», «Қ», «З» harflarini	

yozish qoidalari.....	75
4-mavzu. Akademik «И», «Й», «Н», «П», «Ц» harflarini yozish qoidalari.....	77
5-mavzu. Akademik «М», «Ш», «Щ» harflarini yozish qoidalari	79
6-mavzu. Akademik «О», «С», «Э» harflarini yozish qoidalari.....	80
7-mavzu. Akademik «Р», «Ђ», «Љ», «Я» harflarini yozish qoidalari	82
8-mavzu. Akademik «F», «Т», «Ў», «У», «Ф», «Х» harflarini yozish qoidalari.....	83
9-mavzu. Raqamlarning yozilish qoidalari.....	85
10-mavzu. Akademik raqamlarning yozilish qoidalari	87
11-mavzu. Akademik barcha harflarni yozish qoidalari.....	89
12-mavzu. Kompozitsiya qidirish jarayoni	91
13-mavzu. Kompozitsiya qidirish jarayoni	97
14-mavzu. Kartonda ishlash	100
15-mavzu. Asl nusxani ishlash	103
16-mavzu. Asl nusxani ko‘rikka tayyorlash	105
 III KURS. I SEMESTR (20 soat)	107
1-mavzu. «Ijodkor harflar».....	107
2-, 3-, 4-mavzular. Ijodkor harflarga xomaki ishlash.....	109
5-mavzu. Ijodkor harflar xomakisini rangli qalam va pastel ashyolarida qidirish.....	111
6-mavzu. Ijodkor harflarning xomakisi ranglarini suv bo‘yog‘i va guash ashyosida qidirish.....	113
7-mavzu. Ijodkor harflar xomakisi ranglarida tempera va akril ashyolarda qidirish.....	116
8-, 9-, 10-mavzular. Ijodkor harflarni yozish qoidalari	118
11-, 12-, 13-mavzular. Ijodkor harflardan kompozitsiya qidirish	119
14–15-mavzular. Ijodkor harflarni kartonga ishlash	122

16–17-mavzular. Ijodkor harflarning asl nusxasini ishlash	123
18–19-mavzular. Ijodkor harflarning kamchiliklarini tugatish	124
20-mavzu. Ijodkor harflarni ko‘rikka tayyorlash	125

III KURS. II SEMESTR (8 soat) 127

1-mavzu. Badiiy husnixat	127
2-mavzu. Badiiy husnixatga xomaki qidirish.....	129
3-mavzu. Badiiy husnixatni kartonda ishlash	131
4-mavzu. Badiiy husnixatning asl nusxasini ishlash	132

Ilova. Qirqma shrift kompozitsiyalari	134
---	-----

Mavzular yuzasidan test savollari.....	151
--	-----

Savolnomalar (amaliy mashg‘ulotlar uchun)	159
---	-----

Glossariy	160
-----------------	-----

Foydalanilgan adabiyotlar.....	163
--------------------------------	-----

O'quv nashri

N.T. HUSANOV

SHRIFT

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir *M. Po'latov*

Musahhih *H. Zakirova*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *D. Salixova*

Kompyuterda sahifalovchi *Ye. Belyatskaya*

Original maket «Niso Poligraf» nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2017-yil 28-noyabr ruxsat etildi. Bichimi 60×84^{1/16}.

Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida. Kegli 12.

Shartli bosma tabog'i. 10,5. Nashr tabog'i. 9,76. Adadi 82 nusxa.

Buyurtma №702.

«Niso Poligraf» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.